



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 107 sahifa,
1-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA PEDAGOG SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	8
Ashurov Ramzidin Ramazonovich	
SUITSIDIAL HOLATLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR	11
Sadilloev Odiljon Oripovich	
MAHKUM SHAXSINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI O'RGANISH YUZASIDAN ILMIY TAHLILLAR	15
Turdiyev Zafar Erkinovich	
TALABALARDA KORRUPSION XULQ-ATVORG A IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	18
Xamidov Mansurjon Abduxalilovich	
AYOLLARDA KETISH ISTAGI FENOMENI VA MIGRATSIYA MOTIVLARINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI (ICHKI MIGRANT AYOLLAR MISOLIDA)	21
Sadullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi	
HARBIY XIZMATCHILARDA PSIXIK O'ZINI O'ZI BOSHQARISH DOIRASIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI.....	30
Qiyomxo'jayeva Madina Rustambek qizi	
NAMANGAN OILALARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAVSIFI	35
Turg'unboyeva Azizaxon G'ulomovna	
PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI KASBIY FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISH	39
Berdiyeva Raxima Shakarboyevna	
O'ZBEKISTON PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA EMOTSIONAL HOLATLAR VA AYBDORLIK HISSINING PSIXOLOGIK TAHLILI	44
Sultanova Saida Muhiddin qizi	
DEVIANT XULQLI YOSHLARNING IJTIMOY MOSLASHUV MEXANIZMLARIDA HISSIY-IRODAVIY JIHATLARNING AHAMIYATI	47
Zaripova Zilola Erkin qizi	
SHAXSDA IMPOSTER SINDROMI VA SALBIY BAHOLANISHDAN QO'RQISHNING PSIXOLOGIK ALOQADORLIGI	51
Yuldasheva Nilufarxon Sherqo'zi qizi	
КОЛЛЕКТИВИЗМ И ИНДИВИДУАЛИЗМ В МЕЖЭТНИЧЕСКОМ ОБЩЕНИИ: КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВАНИЯ ПОВЕДЕНИЯ В ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ОБЩЕСТВАХ.....	54
Айдарова Диана Сматулаевна	
O'QITUVCHILARGA KO'RSATILADIGAN PSIXOLOGIK XIZMATNING ILMIY ASOSLARI	62
Usmonova Dilnoza Bahodir qizi	
DESTRUKTIV AXBOROT TAHDIDLARIGA QARSHI PSIXOLOGIK PROFILAKTIKA STRATEGIYALARI.....	66
Barakayeva Nilufar Zubaydullo qizi	
THE STRUCTURAL MODEL OF STUDENTS' ENGAGEMENT IN LIFELONG LEARNING	72
Y.K. Quliev	
"PSYCHOLOGICAL CORRECTION MODEL OF COGNITIVE IMPAIRMENTS IN PATIENTS WITH CORONARY HEART DISEASE"	79
Kudratova Aziza Ne'matovna	
DEVIANT GURUHGA MANSUB YIGIT VA QIZLARNING SHAXSIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING "DEVIANT XULQ-ATVORG MOYILLIK" VA "INTERNETGA QARAMLIK" BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI	83
Akbar Begaliyevich Chimanov, R.Abdurasulov	



O'SMIRLIK DAVRIDAGI STRESSNING PSIXOLOGIK JIHATLARI	88
Tulyaganova Gulnoza Olimjonovna	
TALABALARDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA GENDER XUSUSIYATLARINING O'ZGARISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	93
Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Janabaeva Raxima Orazali qizi	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING MAMLAKATIMIZ HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	96
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
SUITSIDAL XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	101
Tursunova Ozoda Abdullayevna	

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA PEDAGOG SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ashurov Ramzidin Ramazonovich

O'zMPU "Psixologiya" kafedrası dotsenti v.b.,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishida pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari hal qiluvchi omil sifatida tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida o'qituvchilarning mas'uliyatlilik, ochiqlik va hissiy barqarorlik kabi shaxsiy fazilatlar bilan o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasi o'rtasidagi bog'liqliklar korrelyatsion va dispersion (ANOVA) tahlillar orqali aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, psixologik yetuklik darajasi yuqori bo'lgan pedagoglar sinfida o'quvchilarning kognitiv salohiyati sezilarli darajada yuqoriroq. Ilmiy asoslar Bandura, Vygotskiy va Big Five modeli nazariyalari orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagog psixologiyasi, boshlang'ich ta'lim, intellektual rivojlanish, psixologik xususiyatlar, ochiqlik, mas'uliyatlilik, emotsional barqarorlik.

Abstract: This article explores the impact of primary school teachers' psychological traits on the intellectual development of students. The study examines the relationship between teachers' personal characteristics—such as conscientiousness, openness, and emotional stability—and students' cognitive growth. Using correlation and ANOVA analysis, the research shows that higher levels of psychological maturity in teachers are significantly associated with stronger intellectual outcomes among pupils. The theoretical framework draws upon Bandura's self-regulation theory, Vygotsky's zone of proximal development, and the Big Five personality model.

Key words: teacher psychology, primary education, intellectual development, psychological traits, openness, conscientiousness, emotional stability.

Аннотация: В статье рассматривается влияние психологических характеристик личности учителя начальных классов на интеллектуальное развитие учащихся. В ходе исследования были выявлены значимые корреляции между такими личностными чертами педагога, как добросовестность, открытость и эмоциональная устойчивость, и уровнем интеллектуального развития школьников. При помощи методов корреляционного анализа и ANOVA установлено, что более высокий уровень психологической зрелости учителя способствует повышению когнитивных способностей учеников. Теоретической основой послужили труды Бандуры, Выготского и модель «Большой пятерки».

Ключевые слова: психология педагога, начальное образование, интеллектуальное развитие, личностные характеристики, открытость, добросовестность, эмоциональная устойчивость.

KIRISH

XXI asrda inson kapitalini shakllantirishda boshlang'ich ta'lim muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish — nafaqat metodik yondashuv, balki pedagog shaxsining psixologik fazilatlariga ham bog'liq. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosati asosida, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy salohiyatiga yuksak talab qo'yilmoqda.

Ko'plab maktablarda pedagogning psixologik tayyorgarligi bilan o'quvchilarning intellektual rivoji o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Bu holat emotsional barqarorlik, empatiya va refleksiv yondashuv kabi fazilatlarining etishmasligida aks etadi.

Tadqiqot maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchisining psixologik xususiyatlari o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini nazariy va empirik jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent shahri va Buxoro viloyatidagi 2 ta maktab tanlab olindi. Unda 150 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari va 250 nafar 1–4 sinf o'quvchilari respondent sifatida qatnashdi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o'rganilayotgan muammoning nazariy asoslarini chuqur anglash, mavjud yondashuvlarni solishtirish hamda mualliflik pozitsiyasini aniqlash imkonini beradi. Quyida pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yorituvchi muhim adabiyotlar sharhi keltirilgan.

John, O. P. & Srivastava, S. (1999). "The Big Five Trait Taxonomy" mazkur tadqiqot shaxs psixologiyasida eng ommabop bo'lgan "Katta beshlik" (Big Five) modelini asoslaydi. Unga ko'ra, inson shaxsiyati beshta asosiy omil: Openness (ochiqlik), Conscientiousness (mas'uliyatlilik), Extraversion, Agreeableness va Neuroticism (emosional barqarorlik) orqali tavsiflanadi.

Bizning tadqiqotimizda ham aynan ochiqlik, mas'uliyatlilik va barqarorlik omillari o'quvchilar intellektual rivojiga bevosita ta'sir etuvchi pedagogik xususiyatlar sifatida o'rganildi [1].

Raven, J. C. (2000). "Manual for Raven's Progressive Matrices" nomli ushbu qo'llanmasida universal intellektni baholash usuli – Ravenning progressiv matritsalar haqida batafsil ma'lumot beradi. Bu test tilga bog'liq bo'lmagan, analitik va mantiqiy fikrlash darajasini aniqlovchi kuchli vositadir [2].

Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining IQ darajalarini aniqlashda ushbu metodika asosiy mezon sifatida ishlatildi.

Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, bola rivoji ijtimoiy muhit, xususan, kattalar va ustozlar bilan muloqot orqali yuzaga chiqadi. Pedagogning psixologik holati – bolaning bilimlarni o'zlashtirish tezligi va chuqurligini belgilovchi asosiy vositachidir [3].

Bu nazariya tadqiqotda pedagogning shaxsiy fazilatlarini o'quvchi rivojiga qanday vositachi bo'lishini tushuntirishda metodologik tayanch bo'lib xizmat qildi.

Bandura o'zining "Ijtimoiy-kognitiv nazariyasi"da shaxsning o'zini boshqarish (self-regulation), o'zini baholash va o'ziga ishonch (self-efficacy) mexanizmlarini ta'limdagi asosiy komponentlar sifatida ko'rsatadi.

Tadqiqotimizda mas'uliyatlilik va reflektivlik darajalari yuqori bo'lgan o'qituvchilarning o'quvchilarda kuchli intellektual natijalarga erishishiga sabab bo'lishi Bandura modeli orqali tushuntiriladi [4].

Rosenthal, R. & Jacobson, L. larning (1968). "Pygmalion in the Classroom" nomli tadqiqotida pedagogning o'quvchidan kutgan natijasi (expectancy) o'quvchining haqiqiy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Pygmalion effekti deb nomlanuvchi bu hodisa, hissiy barqaror, optimistik pedagoglar o'z o'quvchilariga yuqori natijalarni "yuklaydi" va ular bu kutishlarga mos natija ko'rsatadilar [5]. Ushbu nazariya pedagog shaxsiyati va o'quvchi IQ bog'liqligini psixologik tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

Bondareva, E. V. (2019). "Эмоционал устойчивость педагога начальной школы" nomli asarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun eng muhim fazilat sifatida emosional barqarorlikni ko'rsatadi.

Dars jarayonida yuzaga keluvchi psixologik bosim, stressli vaziyatlar va ziddiyatli muloqotlarda pedagogning barqarorligi sinfdagi umumiy ruhiy iqlimni shakllantiradi [6]. Bizning tadqiqotda aynan ushbu fazilat bilan o'quvchi IQ darajasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda deskriptiv statistika, pearson korrelyatsiya koeffisienti, ANOVA, SPSS 25 dasturi Ravenning progressiv matritsalarini, Amthauerning IQ testidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishida pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari ahamiyatli ekanligi korrelyatsion tahlil natijalari orqali tasdiqlandi.

1-jadval. Korrelyatsiya tahlil natijalari

Psixologik xususiyatlari	IQ bilan bog'liqlik (r)
Ochiqlik	0.29**
Mas'uliyatlilik	0.35**
Hissiy barqarorlik	0.20*

ANOVA natijasi:

$F(2,597)=8.45$, $p<0.001$ — Mas'uliyatlilik darajasi IQ darajalarida sezilarli farq keltirib chiqargan.

Ochiqlik psixologik xususiyati omili kognitiv qiziqish, tasavvur kuchi, ijodkorlik bilan aloqadorlik qayd etgan. Bunday pedagoglar darsda o'quvchilarning yangi g'oyalar bilan ishlash qobiliyatini rag'batlantiradi. Korrelyatsiya $r = 0.29$ — o'rtacha ijobiy bog'liqlik.

Vazifaga mas'uliyatli yondashuv, rejalilik va qat'iyatlilik. Sinfdan tartib va izchillik o'quvchilarning ham intellektual yondashuvini shakllantiradi. Korrelatsiya $r = 0.35$ — eng yuqori bog'liqlik. ANOVA farqni isbotlaydi.

Hissiy barqarorlik omili stressga chidamlilik, murosallilik. O'qituvchining emotsional muvozanati o'quvchilar ruhiy iqlimiga va fikrlash erkinligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi bunda hissiy barqarorlik omili $r = 0.20$ bilan ijobiy aloqadorlik qayd etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, mas'uliyatlilik va ochiqlik o'quvchilarda mustaqil fikrlash va intellektual faollikni rag'batlantiradi. Hissiy barqarorlik esa psixologik qulaylik yaratib, o'quvchilar ongli bilim olishiga sharoit yaratadi.

Pedagoglarni psixologik tayyorgarlikdan o'tkazuvchi doimiy trening kurslarini joriy etish.

– Treninglar quyidagi komponentlarga asoslangan bo'lishi lozim: o'zini tahlil qilish, stressni boshqarish, refleksiya, emotsional yetuklik, empatiya.

– Har bir pedagog yilda kamida 1 marotaba psixologik ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda qatnashishi tavsiya etiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "Psixologik profil" asosida baholash tizimini ishlab chiqish.

– Bunda pedagoglarning mas'uliyatlilik, ochiqlik, hissiy barqarorlik, kommunikativlik darajalari baholanadi.

– Baholash natijalari asosida individual rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi.

Psixologik monitoring va ichki kuzatuv tizimini joriy etish.

– Maktab psixologlari tomonidan har yili pedagogik jamoaning emotsional iqlimi, ruhiy zo'riqish darajasi, professionallik sindromi (burnout) belgilanadi va chora-tadbirlar belgilanadi.

– O'quvchilarning intellektual rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lgan psixologik salohiyat mezonlari ishlab chiqiladi.

Pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy-emotsional o'zaro ta'sirlarni mustahkamlash.

– Shaxslararo muloqot, empatiya, motivatsiya va psixologik qo'llab-quvvatlov madaniyatini shakllantiruvchi amaliy mashg'ulotlar yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

– "Pedagog – O'quvchi – Psixolog" uchrashuvi asosida dinamik yondashuv tavsiya etiladi.

"Rivojlanayotgan pedagog profili" konsepsiyasini ishlab chiqish.

– Unda quyidagi 3 yo'nalish asosida rivojlanish ko'zda tutiladi:

a) Kognitiv kompetensiyalar (bilimlar, fikrlash)

b) Emotsional kompetensiyalar (barqarorlik, sabr-toqat)

c) Axloqiy-psixologik pozitsiya (baholash, javobgarlik)

Pedagogik kadrlarni tanlashda psixologik diagnostika talab etiladigan mezon sifatida kiritilishi kasbiy faoliyatda ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

– Kasbga tayyorlik faqatgina akademik bilim emas, balki emotsional tayyorgarlik, shaxsiy fazilatlar asosida ham baholanishi kerak.

– Shu orqali "pedagogik moslik" darajasi aniqlanadi.

Intellektual rivojlanish bo'yicha yillik ko'rsatkichlar hisobotiga psixologik omillarni ham integratsiya qilish.

– Har bir sinf kesimida o'quvchilarning IQ, emotsional iqlim, motivatsiya va o'z-o'zini baholash darajalari aniqlanishi va maktab rahbariyati tomonidan tahlil qilinishi o'quvchi shaxsining intellektual rivojlanishida ijobiy natijalarni qayd etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. John, O. P., & Srivastava, S. (1999). The Big Five Trait Taxonomy: History, Measurement, and Theoretical Perspectives.
2. Raven, J. C. (2000). Manual for Raven's Progressive Matrices and Vocabulary Scales.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
4. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
5. Rosenthal, R., & Jacobson, L. (1968). Pygmalion in the Classroom: Teacher Expectation and Pupil's Intellectual Development.
6. Bondareva, E. V. (2019). Эмоциональная устойчивость педагога начальной школы. Pedagogika, 6(2), 112–119.
7. Ramazonovich, A. R. Interplay of Cognitive Abilities and Intellectual Growth in Elementary Students. Modern Journal of Social Sciences and Humanities 2024, 3(3), 41–44.
8. Ashurov R.R. O'quv faoliyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarning fikrlash qobiliyatining intellektual operatsiyalarini rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. №2. B. 639-646.



SUITSIDIAL HOLATLARNI KELTIRIB CHIQUARUVCHI OMILLAR

Sadilloyev Odiljon Oripovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsid holatlarini keltirib chiqaruvchi turli psixologik omillar haqida fikr bildirilib, bunda turli davrlarda ushbu holat bo'yicha o'tkazilgan olimlarning tadqiqotlari natijalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: suitsid, deviant, jamiyat, ijtimoiy aloqa, shaxs, inson, autoagressiya, stress, depressiya, erkinlik, o'lim, qo'rquv, moslashish, o'smir, psixologik sabablar, tashabbuskor, inqiroz.

Abstract: The article presents an opinion on various psychological factors that cause suicidal behavior in adolescents with deviant behavior, highlighting the results of scientific studies conducted on this issue in different periods.

Key words: suicide, deviant, society, social communication, personality, human, autoaggression, stress, depression, freedom, death, fear, adaptation, teenager, psychological reasons, initiator, crisis.

Аннотация: В статье представлен взгляд на различные психологические факторы, обуславливающие суицидальное поведение подростков с девиантным поведением, с освещением результатов научных исследований, проведенных по этой теме в разные периоды.

Ключевые слова: самоубийство, девиант, общество, социальная коммуникация, личность, человек, аутоагрессия, стресс, депрессия, свобода, смерть, страх, адаптация, подросток, психологические причины, инициатор, кризис.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega muammolardan biri bu suitsidial holatlar sonining ko'payishidir.

Har bir harakatning motivlari bo'lgani kabi, suitsidial holatlarni ham yuzaga keltiruvchi omillari mavjud. Suitsidial holatlarni kelib chiqishida eng avvalo o'smir lardagi xulq-og'ishlar asosiy omillardan biri sanaladi.

Sotsiologik nazariyalarda deviant hatti-harakatlarning kelib chiqishi ijtimoiy jarayonlar, jamiyat va aniq bir shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlar natijasi bilan bog'liqligi e'tirof etiladi. Deviant shaxs xulq-atvori ijtimoiy, psixologik va biologik omillarning o'zaro ta'sirining natijasi sifatida qaraladi, uning ta'siri, o'z navbatida, shaxs munosabatlari tizimi orqali o'tadi. Natijada reallik bilan aloqa uzilib, o'ziga ishonch yo'qotiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amerikalik psixoanalitik Garri Stek Salliven suitsidni o'zining shaxslararo muloqot nazariyasi nuqtai nazaridan talqin etgan. Bunga ko'ra individning o'ziga-o'zi beradigan bahosi o'zgalarning unga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. Bunday vaziyatga autoagressiya sodir etish yo'li bilan azoblarni to'xtatish va «yomon men»ni «men emas»ga aylanishi uchun yagona alternativ variant bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, shaxs ushbu hatti-harakati bilan bir vaqtning o'zida odamlarga va butun dunyoga o'zining dushmanligini namoyon qiladi.

Suitsidial xulq-atvorning kelib chiqishida xavotirlanish va boshqa emotsional kechinmalarning roli haqida gumanistik psixologiya namoyondalari tomonidan ham ta'kidlab o'tilgan.

Norman Farberou asarlarida insonning o'zini vayron etish konsepsiyasi keltirilgan bo'lib, ushbu konsepsiya doirasida xulq-atvorning autoagressiv shakllariga quyidagilar kiritilgan: alkogolizm, taksikomaniya, o'ylamasdan o'zini xavf ostiga qo'yimoq va b. Shunday qilib, Farberou birinchilardan bo'lib bungacha suitsidalga taalluqli bo'lmagan o'zini vayron etuvchi xulq-atvor shakllarini tavsiflagan va tizimli o'rganib chiqqan.

Bundan tashqari, xavotirlanish nafaqat belgi (simptom) sifatida balki, turmushning ekzistensial ko'rinishi va inson hayotidagi muhim konstruktiv kuch hamdir. Olim uni «borliq va yo'qlik uchrashuvini» kechirish va «erkinlik va odamning real borlig'i paradoksi» deb hisoblagan.

Logoterapiya asoschisi, Viktor Frankl o'zini-o'zi o'ldirishni hayot mazmuni va odam erki kabi tushunchalar qatorida, shuningdek, o'lim va o'lish psixologiyasi bilan bog'liqlikda tadqiq etgan. Uning ko'rsatishicha, mavjudlikning anglanganligiga xos bo'lgan odam, o'zining turmush usuliga nisbatan munosabatlarida erkindir. Biroq u hayotda uchta darajada ekzistensial cheklovga duch keladi: u muvaffaqiyatsizlikka duch keladi, qiyinaladi va o'lishni xohlaydi. Shuning uchun odamning vazifasi o'zining cheklanganligini anglab, omadsizlik va azobni ko'tarishdan iboratdir. V.Frankl o'zini-o'zi o'ldirishga afsus bilan munosabatda bo'lgan va unga qonunan, jumladan, axloqan oqlash yo'qdir deb, ta'kidlagan. Suitsid ro'y berganda inson uchun hayot mag'lubiyatga uchraydi. Oxir oqibat o'z joniga qasd qiluvchi o'limdan qo'rqmaydi balki u hayotdan qo'rqadi, deb hisoblardi V.Frankl.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amerikalik psixoanalitik Garri Stek Salliven suitsidni o'zining shaxslararo muloqot nazariyasi nuqtai nazaridan talqin etgan. Bunga ko'ra individning o'ziga-o'zi beradigan bahosi o'zgalarning unga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. Bunday vaziyatga autoagressiya sodir etish yo'li bilan azoblarni to'xtatish va «yomon men»ni «men emas»ga aylanishi uchun yagona alternativ variant bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, shaxs ushbu hatti-harakati bilan bir vaqtning o'zida odamlarga va butun dunyoga o'zining dushmanligini namoyon qiladi.

E.Shneydman birinchi bo'lib, suitsidning yaqinlashayotganini bildiruvchi belgilarni tavsiflaydi va ularni «suitsidga olib boruvchi kalitlar» deb ataydi. U jamiyatdagi mavjud suitsid haqidagi afsonalarni, shuningdek shaxsning suitsidal xulq-atvorini asoslovchi o'ziga xoslikni o'rganib, shunday xulosaga keladi. Uning fikricha o'ziga xosliklar o'zi tarafidan yaratilgan, individlarning original tipologiyasida o'z aksini topadi va ular ko'pincha ongli ravishda o'z o'limlarini yaqinlashtiradilar. Ularga quydagilar taaluqlidir:

- o'limni qidiruvchilar - o'zida o'limdan qutilish imkoniyatini pasaytirib, ataylab hayot bilan vidolashuvchilar;
- o'lim tashabbuskorlari, uni ataylab yaqinlashtiruvchilar (masalan, og'ir kasallar, o'zini hayotiy ta'minlovchilaridan ongli ravishda uzuvchilar);
- o'lim bilan o'ynashuvchilar, hayotini garovga qo'yish imkoniyati mavjud vaziyatlarni qidirishga moyillar, tirik qolish imkoniyati pastligi bilan ajralib turadi;
- o'limni ma'qullovchilar ya'ni, hayot bilan vidolashishga faol intilmaslik bilan bir qatorda o'zining suitsidal istaklarini yashirmaydilar: bu masalan yolg'iz qariyalarga yoki Ego – identlik inqirozi vaqtidagi emotsional noturg'un o'smir lar va o'spirinlarga xosdir.

E.Shneydman suitsidlar shart-sharoitlarining va ularni amalga oshirish usullarining turlichaligiga qaramay, barcha suitsidlarga xos bo'lgan hamma belgilarni tavsiflaydi va ajratdi:

1. Suitsidlarning umumiy maqsadi yechimni qidirishdir.
2. Suitsidning umumiy maqsadi ongni to'xtatishdir.
3. Suitsidning umumiy turtkisi chidab bo'lmaydigan ruhiy og'riqdir.
4. Suitsid umumiy stressor psixologik ehtiyojlarning frustratsiyaga uchrashidir.
5. Umumiy suitsidal emotsiyalar ojizlik va umidsizlikdir.
6. Suitsidga umumiy ichki munosabat ambivalentlikdir.
7. Suitsidda psixikaning umumiy holati kognitiv sohaning torayishidir.
8. Suitsiddagi umumiy harakatdan qochishdir (agressiya).
9. Suitsiddagi umumiy kommunikativ harakat o'z niyati haqida xabar berishdir.
10. Suitsidal o'rinish umumiy qonuniyat bo'lib, suitsidal xulq-atvorning hayot davomidagi uslubiga muvofiq kelishidir (belgilariga).

E.Shneydman N.Farberou bilan birgalikda amaliyotga o'zini-o'zi o'ldirishning psixodinamikasini tushunishni chiqurlashtirgan psixologik autopsii metodini (o'z joniga qasd qilganlarning o'lim oldi xatini tahlilini o'z ichiga oluvchi) kiritdi. Ushbu metod asosida ular tomonidan suitsidning uch turi ajratilgan:

- egotik o'zini o'ldirish - ularning sababi intra – (ichki) – psixik dialog, «Men»ning qismlari o'rtasidagi nizo, tashqi sharoitlar esa qo'shimcha rol o'ynaydi, masalan, eshituv gallyusinatsiyalaridan qiyinaladigan psixik kasallarning o'zini o'ldirishi;

- diadik o'zini o'ldirish - asosi ahamiyatli bo'lgan yaqin odamga tegishli amalga oshmagan ehtiyoj va xohishlarda namoyon bo'ladi, shu tariqa ushbu harakatda boshqasiga munosabat aktiga aylantiruvchi tashqi omillar ustunlik qiladi;

- agenerativ o'zini o'ldirish, bunda biror bir avlodga yoki insoniyatga tegishlilik hissini yo'qotish oqibatida yo'q bo'lish hissi yuzaga keladi masalan, qarilik davridagi suitsid.

N.Farberou odamning o'zini-o'zi yo'q qilish xulq-atvori konsepsiyasi yaratuvchisi hisoblanadi deydi. Uning yondashuvi muammoga kengroq qarash imkoniyatini beradi, u nafaqat amalga oshirilgan o'z joniga suiqaadni, balki autoagressiv xulq-atvorning boshqa shakllarini ham ko'rib o'tadi: alkogolizm, toksikomaniya, narkotik tobelik, delekvent hatti-harakatlar, ishga qattiq berilish, oqlanmagan xavf-xatarga moyillik, noadekvat qiziqish



va h.k. Ushbu yondashuv N.Faberouga o'zini o'ldirishning oldini olishning zamonaviy tamoyillarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bundan tashqari u «tirik qolganlar» – o'zini o'ldirishni eplay olmaganlar va o'zini o'ldirganlarning qarindoshlari va do'stlarining psixologiyasini tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

F.Baumeister, S.J.Sher (1988) nazariy tahlillari asosida, o'z joniga qasd qilish hatti-harakatlarining uchta turini aniqlaydi:

1) birlamchi o'z joniga qasd qilish: shaxs o'ziga zarar yetkazishga intiladi va uni ataylab keltirib chiqaradi. Bunday hatti-harakatlarning asosi kuchli salbiy his-tuyg'u bo'lib, u diqqatni o'z kamchiliklariga qaratish bilan birga o'ziga nisbatan salbiy munosabatni yaratadi;

2) qarama-qarshi turdagi o'z joniga qasd qilish hatti-harakatlari samarasiz strategiyalardan foydalanishdir: odamlar oddiy maqsadlarga intilishadi, lekin, samarasiz strategiyalarni qo'llash orqali o'zlariga zarar yetkazishadi;

3) uchinchi turdagi o'z joniga qasd qilish inson bir-birini istisno qiladigan ikkita maqsadni ko'zlaydi. Bir nechta qarama-qarshi maqsadlar mavjud bo'lganda, ijobiy natijadan oshib ketadigan maqsadni tanlash, qaror qabul qilish xatoligini ko'rsatadi.

R.F Baumeister tomonidan o'tkazilgan har xil turdagi o'z joniga qasd qilish hatti-harakatlari tahliliga ko'ra, ikkinchi yoki uchinchi turlarga belgilanishi mumkin; ularning hech biri birlamchi autodestruksiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin emas. Mualliflarning xulosasiga ko'ra, sog'lom odamlar o'z joniga qasd qilish uchun ongli intilish tufayli emas, balki hukm qilishdagi kamchiliklar, noto'g'ri javoblar, suboptimal usullarning kutilmagan oqibatlari, xarajatlar va xavflarni kam baholaganliklari tufayli o'zlariga zarar yetkazadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi zamon mamlakatimiz va chet el adabiyotlarida tan olinganki, 25-30% suitsid psixik kasallar tomonidan sodir etiladi, qolgan miqdori psixik sog'lom va psixik noxushlik bilan chegaradosh shaxslarga to'g'ri keladi.

Biroq, oxirgi yillarda suitsidal xulq-atvor mexanizmlarining aniqlanganligi haqidagi fakti inobatga olmoq lozim. Shu yo'nalishda, Dj.Mann, M.Asberg, V.I.Braun va boshqalar asarlarida suitsidal xulq-atvor va depressiyaning bioximik korrelyatlari aniqlangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, mualliflarning katta qismi, suitsidal hatti-harakatlarni psixik kasallar bilan birga, mutlaqo sog'lom shaxslar ham sodir etishi mumkin degan qarashni ilgari surgan. Shuning uchun, suitsidni faqatgina to'g'ridan-to'g'ri psixik patologiya natijasi deb emas, balki psixopatologik simptomlar va individum ijtimoiyligining asosini tashkil etadigan, uning genezisida atrof-muhit ta'siri va shaxs ijtimoiy-psixologik tuzilishining o'zaro bog'liqligi katta ahamiyatga ega ekanligini ko'p omilli hodisa sifatida ko'rib chiqish lozim.

Dj.Mann va D. Vasserman stress-diatez konsepsiyasida, suitsidal xulq-atvorni oldindan aytishda quyidagi omillar hisobga olinadi: irsiy omillar yoki stressga orttirgan ta'sirchanlik yordamida shakllanadigan jismoniy moyillik. Stress hayotdagi negativ hodisalar natijasida shakllanadi, bular: atrof muhitdagilar bilan o'zaro negativ munosabatlar, qashshoqlik, ishsizlik, alkogolizm va boshqalar. Jismoniy omillarga ushbu konsepsiyada suitsidal xulq-atvorning neyrobiologik mexanizmlari kiritilgan.

Endi deviant xulq-atvorli o'smirlarda kuzatilgan suitsidal holatlarni statistikasiga o'tamiz.

R.D.Goldney [1989] tomonidan o'tkazilgan so'rovda qatnashgan 1014 nafar Skandinaviya yoshlaridan 17,5% qizlar va 20,2% o'g'il bolalar so'rovdan bir hafta oldin o'z joniga qasd qilish fikrida bo'lganliklarini ma'lum qilishgan.

R. Schweitzer [1995] tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada qatnashgan 1678 o'smir orasida respondentlarning 62% o'z joniga qasd qilish fikrlari mavjudligini qayd etgan va 6,6% o'z joniga qasd qilishga urinishlarning bir yoki bir necha marotaba sodir etganliklari aniqlangan.

Rayt L.S [1985] tekshiruvlarida qatnashgan 901 nafar o'smir larning atigi 6 foizi o'z joniga qasd qilish fikrlari borligini aytdi. Daniyada esa 3042 nafar yoshlar anonim va ixtiyoriy suhbatlarda ishtirok etdi. Ularning 40% ga yaqini hayotida kamida bir marta o'z joniga qasd qilish haqida o'ylaganligini aytdi va har 20 kishidan 1 nafari o'z joniga qasd qilishga uringanligini tasdiqladi. Yoshlar tomonidan sodir etilgan o'z joniga qasd qilishlarning 75 dan 90% gacha rasman qayd etilmagan [Jessen G. va boshq., 1996].

D. Dhossche o'z tadqiqotlarida [2002], 19-26 yoshdagi 795 yoshlarni tekshirib, ularning 2,5% da o'z joniga qasd qilish fikrlari mavjudligini aniqladi.

A.Gmitrovichning ta'kidlashicha [2003], tadqiqotda qatnashgan 1663 nafar o'smir larning 31 foizida o'z joniga qasd qilish fikri borligini va 8 foizi o'z joniga qasd qilishga uringanliklarini tan olishgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Suitsidal hatti-harakatlarni psixik kasallar bilan birga, mutlaqo sog'lom shaxslar ham sodir etishi mumkin degan qarashni ilgari surgan. Shuning uchun, suitsidni faqatgina to'g'ridan-to'g'ri psixik patologiya natijasi deb



emas, balki psixopatologik simptomlar va individum ijtimoiyligining asosini tashkil etadigan, uning genezisida atrof-muhit ta'siri va shaxs ijtimoiy-psixologik tuzilishining o'zaro bog'liqligi katta ahamiyatga ega ekanligini ko'p omilli hodisa sifatida ko'rib chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Н.Тайлоков. Вояга етмаганларга ўртасида суицид ҳолатларини олдини олиш. Методик қўлланма. Тошкент 2017
2. Х.Рухиева. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар ва суицид ҳолатлари профилактикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент 2021
3. Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство. – М., 1995 – С. 275
4. З.С.Элов. Қадимги халқлар урф-одатлари ва ривожланган жамиятда ўз жонига қасд қилишнинг ижтимоий психологик сабаблари. Тарих ва бугун (қадимги халқлар урф – одатлари ва бугунги замон). Жамият ва инновациялар. Тошкент. (10) 2021
5. З.С.Элов. Суицид – ўз жонига қасд қилиш ижтимоий психологик муаммо сифатида. CONFERENCE ON SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. 2021
6. З.С.Элов. Замонавий жамиятда суицид (ўз жонига қасд қилиш) муаммолари. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences 1 (2(2021): EJLFAS), 26-28
7. З.С.Элов. Девиант хулқ-атворли ўсмирларда кузатиладиган психологик ўзгаришларнинг ёш билан боғлиқ ХУСУСИЯТЛАРИ (Вояга етмаганларга ижтимоий ёрдам кўрсатиш маркази тарбияланувчилари мисолида) PEDAGOGIK MAHORAT 2022 №6 72-75
8. Z.S.Elov. [O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri](https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz). PSIXOLOGIYA ILMIY JURNAL 1 (1, 2022), 27-29



MAHKUM SHAXSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI O'RGANISH YUZASIDAN ILMIY TAHLILLAR



Turdiyev Zafar Erkinovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
IIIV huzuridagi jazoni ijro etish departamenti,
6-mintaqaviy hudud, 1-son JIEK boshlig'i, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahkum shaxslar orasida kriminogen travmalarning kelib chiqish sabablari, ularning psixologik oqibatlari hamda profilaktika usullari yoritilgan. Kriminogen omillar shaxsni jinoyatga undovchi asosiy psixososial omillar hisoblanadi. Mazkur maqolada zamonaviy psixokorreksion yondashuvlar, xalqaro va mahalliy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Statistik jadval va ilmiy faktlar asosida kriminogen travma profilaktikasining psixologik samaradorligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: mahkum, shaxs, jinoyat, buzilish, yosh davri, kriminogen travma, psixokorreksiya, mahkum, retsidivizm, profilaktika, rehabilitatsiya.

Abstract: This article discusses the causes of criminogenic traumas among convicted persons, their psychological consequences, and methods of prevention. Criminogenic factors are the main psychosocial factors that motivate a person to commit a crime. This article analyzes them based on modern psychocorrectional approaches, international and local experience. The psychological effectiveness of criminogenic trauma prevention is shown based on statistical tables and scientific facts.

Key words: convict, personality, crime, disorder, age, criminogenic trauma, psychocorrection, convict, recidivism, prevention, rehabilitation.

Аннотация: В статье рассматриваются причины возникновения криминогенных травм у осужденных, их психологические последствия и методы профилактики. Криминогенные факторы являются основными психосоциальными факторами, мотивирующими человека к совершению преступления. В статье они анализируются с учетом современных психокоррекционных подходов, международного и отечественного опыта. На основе статистических таблиц и научных данных показана психологическая эффективность профилактики криминогенных травм.

Ключевые слова: осуждённый, личность, преступление, расстройство, возраст, криминогенная травма, психокоррекция, осуждённый, рецидивизм, профилактика, реабилитация.

KIRISH

Jamiyatda jinoyatchilik muammosi nafaqat huquqiy, balki psixologik va ijtimoiy masalalarni ham qamrab oladi. Jinoyat sodir etgan shaxs – mahkum – bu jinoyat huquqi doirasida javobgarlikka tortilgan, ozodlikdan mahrum etilgan insondir. Mahkum shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish, uning jinoyatga qanday omillar ta'sirida qo'l urgani, ruhiy holati, shaxsiy fazilatlarini va ijtimoiy muhitdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Bu esa, ularning ijtimoiy rehabilitatsiyasini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.N. Leontyev, B.G. Ananyev, Z. Freud, E. Fromm kabi psixologlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki: Jinoyatchilik – bu faqat ijtimoiy muhitga emas, balki shaxsning individ sifatidagi ichki psixologik inqiroziga ham bog'liq.

Mahkumlarning ko'pchiligida nevroitik xatti-harakatlar, emosional beqarorlik, impuls nazoratining pastligi kabi belgilar uchraydi. Bu shaxsiy buzilishlar jinoyat sodir etish ehtimolini oshiradi.

Erich Fromm nazariyasiga ko'ra, jinoyat insonning "ozodlikdan qochish" holatining ifodasidir. U o'z hayotining nazoratini yo'qotgan, o'zini jamiyatdan begonalashgan deb hisoblaydi.

E. Dyurkgeym, R. Merton, G. Becker, T. Parsons kabi sotsiologlarning tadqiqotlarida quyidagilar ta'kidlangan: Jinoyatchilik – bu normal jamiyat hayotining bir qismi, u orqali jamiyat o'zini yangilaydi (Durkgeym). Biroq haddan tashqari ko'paygan jinoyatchilik ijtimoiy tizim muvozanatini buzadi.

R. Merton o'zining "Anomiya nazariyasi"da aytganidek, jamiyatda qonuniy yo'l bilan maqsadlarga erishish imkonlari cheklangan bo'lsa, shaxs noqonuniy yo'llarga murojaat qiladi. Mahkumlarning aksariyati aynan shu modelga mos keladi. Jinoyatchilikka olib boruvchi omillar sifatida qashshoqlik, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik va marjinallik ko'rsatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar (masalan, G'ulomova G., Ergashev M. va boshqalar) quyidagilarni ko'rsatadi:

Jinoyatchilarda past empatiya (boshqalarni tushunish qobiliyati) va yuqori impulsivlik ko'p uchraydi.

Ko'pchilik mahkumlar o'zini past baholaydi, ya'ni o'ziga ishonchi yo'q.

Mahkumlarning taxminan 30–40% da psixik diskomfort (depressiv, nevroitik holatlar) mavjud.

Ularning aksariyati ijtimoiy me'yorlarni to'liq anglamagan yoki ularni e'tiborsiz qoldirgan.

1. Mahkum shaxsining psixologik portreti

Mahkum shaxsi o'ziga xos ruhiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Ularning psixologik portretini tuzishda quyidagi omillar e'tiborga olinadi:

Shaxsiy fazilatlar: ko'pchilik jinoyatchilar impulsiv, tajovuzkor, irodasiz yoki emotsional beqaror bo'lishadi. Ular o'z harakatlari oqibatini chuqur anglab yetmaydilar yoki bu haqida o'ylashdan qochadilar.

Motivatsion omillar: jinoyat sodir etilishiga ko'pincha shaxsiy manfaatlar, qasos, moddiy yetishmovchilik, bosim ostida qolish, o'z-o'zini tasdiqlash istagi kabi sabablar turtki bo'ladi.

Psixik holatlar: ba'zi mahkumlar ruhiy buzilishlardan aziyat chekkan bo'lishi mumkin (masalan, depressiya, psixopatiya, nevrozlar), bu esa ularning ijtimoiy xatti-harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Ijtimoiy muhitning ta'siri

Mahkum shaxsining shakllanishida ijtimoiy omillar katta rol o'ynaydi:

Oilaviy muhit: jinoyatchilarning ko'pchiligi nosog'lom oilaviy muhitda (ota-onasining ajrashuvi, e'tiborsizlik, zo'ravonlik) ulg'aygan. Bu ularning ijtimoiylashuvi va axloqiy qadriyatlarini egallashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim va tarbiya: yetarli darajadagi ta'lim olmagan, maktabda yoki jamoada muammolarga duch kelgan shaxslar jinoyat yo'lga kirish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Do'stlar va atrof-muhit: jinoyatkor guruhlar bilan aloqalar, salbiy do'stlar davrasi, ommaviy axborot vositalaridagi zo'ravonlik targ'iboti ham muhim omillardir.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval. Jinoyat sodir etganlarning yosh bo'yicha taqsimoti

Yosh oralig'i	Jinoyatchilar soni (%)
14–18 yosh	8%
19–25 yosh	34%
26–35 yosh	28%
36–50 yosh	20%
50 va undan katta	10%

Jinoyatlarning katta qismi 19–35 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etiladi. Bu davr psixologik barqarorlik shakllanish davridir.

3. Mahkumning ijtimoiy-psixologik muammolari

Mahkum bo'lgan shaxs ko'plab ijtimoiy-psixologik muammolar bilan duch keladi:



Jamiyatdan ajralish: ozodlikdan mahrum qilish, insonning oila va jamoat hayotidan uzilishi, uni ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi.

Identifikatsiya muammosi: mahkum o'zini jamiyat a'zosi sifatida emas, balki "chetdagi" inson sifatida idrok etishi mumkin.

Reabilitatsiyaga qarshilik: ayrim mahkumlar ozodlikka chiqqanidan so'ng jamiyatga moslashishda qiynaladilar, o'zini jamiyatdan begona his qilishadi, bu esa qayta jinoyat sodir etish xavfini oshiradi.

2-jadval. Mahkumlarning ta'lim darajasi bo'yicha taqsimoti

Ta'lim darajasi	Ulushi (%)
Boshlang'ich ta'lim	10%
Umumiy o'rta ta'lim	60%
O'rta maxsus	20%
Oliy ta'lim	7%
Ta'limsiz (savodsiz)	3%

Jinoyatchilarning ko'pchiligi to'liq o'rta yoki undan pastroq ta'lim darajasiga ega. Bu ularning ijtimoiy ko'nikmalar va mehnatga integratsiyalashganlik darajasining pastligini ko'rsatadi.

4. Reabilitatsiya va psixologik yordamning o'rni

Mahkumlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishda psixologik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bunga quyidagilar kiradi:

Psixologik maslahatlar: mahkumlarning ichki muammolarini aniqlash va ularga yechim topishda yordam berish.

Motivatsion treninglar: shaxsni ijobiy maqsadlarga yo'naltirish, ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Kasb-hunar o'rgatish: mahkumlarni jamiyatga foydali shaxs sifatida qayta tayyorlash.

Oila bilan ishlash: mahkumlar oilasi bilan muloqotni yo'lga qo'yish va ularni reabilitatsiya jarayoniga jalb etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahkum shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish ularning jinoyatga yo'l qo'ygan sabablarini aniqlash, psixik holatini tahlil qilish, reabilitatsiya va qayta ijtimoiylashuv jarayonlarini samarali tashkil etish imkonini beradi. Jinoyatga qarshi kurashishning eng samarali yo'llaridan biri bu – mahkumni inson sifatida anglash, unga to'g'ri yondashish va jamiyatga qayta moslashuviga yordam berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.Elov. Zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал 1 (9) 2024
2. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o'rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to'plami. 2023
3. Z.Elov. Jinoyat sodir etishning ijtimoiy-psixologik sabablar. 2024 PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI 2 (1), 103-107
4. З.Элов. Ўсмир шахсида деликвент ахлоқ-девиант хулқ-атвор шакли сифатида. Та'лим va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal. –Buxoro 2023
5. З.Элов. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар орасида суицидал ахлоқ тушунчаси ва илмий таҳлиллар. 2023 ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 170-178
6. Z.Elov. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidal holatlarning psixologik sabablari. 2024. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice 2 (10), 53-60
7. Z.Elov. Deviant xulq-atvorni o'rganishdagi psixologik yondashuvlar. 2025 ИКРО журнал 16 (01), 34-39

TALABALARDA KORRUPSION XULQ-ATVORGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Xamidov Mansurjon Abduxalilovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda korrupsiyaga qarshi tushunchani shakllantirish jarayonining ilmiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Korrupsiya holatlari va uning yoshlar ongiga ta'siri psixologik jihatdan tahlil qilinadi, talabalarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishda ta'lim-tarbiya muhitining o'ri ko'rsatiladi. Shuningdek, mazkur jarayonda shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy ong va axloqiy me'yorlarning roli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, talabalar, psixologik xususiyat, axloqiy tarbiya, ijtimoiy ong, fuqarolik pozitsiyasi.

Abstract: This article discusses the scientific and psychological characteristics of the process of forming an anti-corruption concept in students. The cases of corruption and its impact on the minds of young people are analyzed psychologically, the role of the educational environment in the formation of immunity against corruption in students is shown. The role of personal values, social consciousness and moral norms in this process is also substantiated.

Key words: corruption, students, psychological characteristics, moral education, social consciousness, civic position.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-психологические особенности формирования антикоррупционного представления у студентов. Проводится психологический анализ случаев коррупции и её влияния на сознание молодёжи, показывается роль образовательной среды в формировании антикоррупционного иммунитета у студентов. Обосновывается роль личностных ценностей, общественного сознания и моральных норм в этом процессе.

Ключевые слова: коррупция, учащиеся, психологические особенности, нравственное воспитание, общественное сознание, гражданская позиция.

KIRISH

Bugungi kunda korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solayotgan ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar, xususan, talabalar orasida korrupsiyaga nisbatan befarqlik yoki unga loqayd munosabat shakllansa, bu kelajak avlodning axloqiy-ruhiy yetukligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Taniqli olim S.L.Rubinshteyn shunday deydi: "Shaxsda ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlar uyg'unlashgandagina korrupsiyaga qarshi ichki immunitet vujudga keladi."

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy-falsafiy va psixologik yondashuvlar

1. Sotsiologik-psixologik nazariya: "Ijtimoiy normalarga moslashuv"

Talqin: Talaba yoshidagi shaxslar ijtimoiy muhitdan, ayniqsa atrofdagi kattalar (ustozlar, ota-onalar, jamiyat yetakchilari) xatti-harakatlaridan ta'sirlanadi. Agar ijtimoiy normalarda halollik qadrlanmasa, korrupsiyaga moslashish ehtimoli ortadi.

Asoschi olimlar: E. Dyurkgeym, T. Parsons

Ilmiy xulosa: Talabalarda korrupsiyaga qarshi immunitet shakllantirish uchun jamiyatda halol hayotni qadrllovchi ijtimoiy normalarni yaratish zarur.

2. Aksiologik yondashuv: "Qadriyatlar orqali ongni shakllantirish"

Talqin: Shaxsning harakatlari va qarorlari uning qadriyat tizimiga tayanadi. Korrupsiyani rad etish uchun shaxsda halollik, adolat, javobgarlik kabi qadriyatlar mustahkam bo'lishi kerak.

Asoschi olimlar: S.L. Rubinshteyn, A. Maslou, V. Frankl

Ilmiy xulosa: Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish – bu axloqiy qadriyatlar tizimini ongli ravishda rivojlantirishdir.



3. Kognitiv psixologiya: “Kognitiv dissonans va ijtimoiy qarama-qarshilik”

Talqin: Talabada korrupsiyani noto’g’ri deb bilish va shu bilan birga unga bevosita duch kelish — ongda kognitiv dissonans (ichki qarama-qarshilik)ni keltirib chiqaradi. Bu holatda shaxs uni inkor etadi yoki unga moslashishga harakat qiladi.

Asoschi olimlar: L. Festinger

Ilmiy xulosa: O’qituvchilar va psixologlar talabada kognitiv dissonans yuzaga kelmasligi uchun to’g’ri ijtimoiy ko’rsatmalarni doimiy taqdim etishlari zarur.

4. Shaxsiy taraqqiyot nazariyasi: “O’zini anglash va mas’uliyat hissi”

Talqin: Talabaning o’zini jamiyatdagi muhim shaxs sifatida anglay boshlashi, uni ijtimoiy mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga undaydi. Bu jarayon orqali korrupsiya singari salbiy hodisalarga qarshi ichki to’siqlar shakllanadi.

Asoschi olimlar: E. Erikson, K. Rogers

Ilmiy xulosa: Talabalarga o’z shaxsiy o’sishini anglash imkoniyatini yaratish orqali, ularni mustaqil, halol va javobgar fuqaroga aylantirish mumkin.

5. Madaniy-psixologik yondashuv: “Korrupsiyaga qarshi madaniyat”

Talqin: Korrupsiyaga qarshi kurash faqat qonunlar orqali emas, balki madaniyat orqali ham olib boriladi. Madaniyatning tarkibiy qismi sifatida korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish ta’limning doimiy elementi bo’lishi kerak.

Manba: YuNESKO tavsiyalari, Transparency International ma’lumotlari

Ilmiy xulosa: Oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi madaniyat mustaqil fan yoki modullar orqali o’rgatilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shuning uchun ham korrupsiyaga qarshi kurash faqat huquqiy chora-tadbirlar bilan emas, balki psixologik, tarbiyaviy va ma’naviy omillar bilan ham olib borilishi zarur.

1. Talabalar psixologiyasi va ijtimoiy ong shakllanishi

Talabalik yoshi inson shaxsining shakllanishida o’ta muhim davr hisoblanadi. Bu davrda:

Axloqiy qadriyatlar;

Ijtimoiy faollik;

Fuqarolik pozitsiyasi;

Hayotga nisbatan qarashlar faol shakllanadi.

Psixologik nuqtai nazardan, bu davrda shaxsda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijtimoiy muammolarga nisbatan munosabat bildirish ko’nikmalari rivojlanadi. Aynan shu bosqichda korrupsiyaga nisbatan inkor etuvchi munosabatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

2. Korrupsiyaga qarshi immunitetning shakllanishi

Psixologik jihatdan korrupsiyaga qarshi immunitet quyidagi omillar asosida rivojlanadi:

Axloqiy me’yorlar va qadriyatlar tizimi – insonning halollik, adolat, vijdon kabi tushunchalarga ega bo’lishi;

Model ta’limi – talabalarga ijobiy namunalarni ko’rsatish, o’qituvchi va ota-onalarning shaxsiy namunasi;

Ijtimoiy mas’uliyat hissi – o’z harakatlarining jamiyatga ta’sirini anglash;

Emotsional yetuklik – nafsga qarshi turish, ichki iroda va o’zini nazorat qilish qobiliyati.

3. Ta’lim-tarbiya muhitining o’rni

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta’lim muassasalarida quyidagi yo’nalishlar bo’yicha ishlash samarador bo’ladi:

Ma’naviyat darslari va davra suhbatlari orqali korrupsiyaga qarshi madaniyatni singdirish;

Psixologik treninglar yordamida talabalarni hayotiy vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilishga o’rgatish;

Kuzatuv va tahlil mashg’ulotlari orqali korrupsiya holatlarini aniqlash va unga nisbatan tanqidiy yondashuvni shakllantirish.

1-jadval. Talabalarda korrupsiya holatlariga nisbatan munosabat (so’rovnom natijalari asosida)

№	Savol matni	Ha (%)	Yo’q (%)	Fikrim yo’q (%)
1	Korrupsiya jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatadi deb hisoblaysizmi?	88	5	7
2	Ta’lim muassasalarida korrupsiya mavjud deb o’ylaysizmi?	42	38	20
3	Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning burchi deb hisoblaysizmi?	75	10	15
4	Siz korrupsiya holatiga guvoh bo’lganmisiz?	28	72	-



Talabalik yoshi shaxsiy ong, axloqiy qadriyatlar va fuqarolik pozitsiyasi shakllanishining muhim bosqichi bo'lib, aynan shu davrda korrupsiyaga qarshi immunitetni rivojlantirish eng samarali hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi tushunchani shakllantirish – bu nafaqat huquqiy savodxonlikni oshirish, balki psixologik barqarorlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga asoslangan kompleks jarayondir.

Shaxsiy namunalar (model ta'limi) va o'qituvchilarning halollik tamoyillariga asoslangan xatti-harakatlari talabalar uchun kuchli psixologik motivator bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik treninglar, davra suhbatlari, keys-stadi metodlari, rolli o'yinlar orqali talabalarni korrupsion vaziyatlarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishga va ijtimoiy jihatdan faol pozitsiyani egallashga yo'naltirish mumkin.

Aksiologik va kognitiv yondashuvlar asosida olib borilgan ta'lim-tarbiya ishlari talabalarni korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi shaxsiy mas'uliyatini chuqur anglashga yordam beradi.

Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish uchun har bir oliy ta'lim muassasasida tizimli, psixologik asoslangan, qadriyatlarga tayanadigan, ijtimoiy ongni yuksaltiruvchi uzluksiz dasturlar joriy etilishi lozim.

Ilmiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi ichki qarshilik (psixologik immunitet) yuqori bo'lgan talabalar orasida o'zlashtirish darajasi ham yuqori, ijtimoiy faollik kuchli va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlangan bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda korrupsiyaga qarshi tushunchani shakllantirish – bu murakkab, ko'p bosqichli psixologik-tarbiyaviy jarayon bo'lib, u nafaqat huquqiy bilimlar, balki shaxsiy axloqiy pozitsiyaning ham asoslanishini talab qiladi. Bu jarayonda o'qituvchilar, psixologlar, ota-onalar va jamiyatning o'zi faol ishtirok etishi kerak. Korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish orqali biz halol, vijdonli va ijtimoiy mas'uliyatli avlodni tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Tadjibayeva N. Korrupsiyaga qarshi madaniyat asoslari. – T.: O'zbekiston, 2020.
4. Yunusova D. Talabalik davr psixologiyasi. – T.: Fan, 2019.
5. Anti-Corruption Education: UNESCO Recommendations, 2021.



UO'K:159.2:17.021.1

AYOLLARDA KETISH ISTAGI FENOMENI VA MIGRATSIYA MOTIVLARINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI (ICHKI MIGRANT AYOLLAR MISOLIDA)



Sadullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi

O'zJOKU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi
Elektron pochta: j.sadullaeva1993@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki migrant ayollarning migratsiya motivlari va psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot Toshkent shahrida istiqomat qilayotgan 57 nafar ichki migrant ayol ishtirokida olib borildi. Respondentlarning ta'lim darajasi, turmush muddatlari, qadriyat yo'nalishlari va psixologik omillari turlicha ko'rib chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, oliy ma'lumotli ayollarda kasbiy o'sish va shaxsiy rivojlanish motivlari ustun bo'lsa, o'rta maxsus ma'lumotli ayollarda esa oilaviy qadriyatlar, mustaqillik va barqarorlik ustunlik qiladi. Migratsiya qaroriga oila a'zolari — ota-onalar va turmush o'rtoqlarining ta'siri sezilarli darajada kuchli ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari ichki migratsiyaning psixologik determinantlarini yoritib, ayollarda ijtimoiy integratsiya va shaxsiy o'sishga undovchi omillarni ochib beradi.

Kalit so'zlar: Ichki migratsiya, ayollar, psixologik motivlar, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy integratsiya, oilaviy omillar.

Abstract: This article analyzes the motives and psychological characteristics of internal migrant women. The study was conducted among 57 internal migrant women residing in Tashkent. Their educational background, marital duration, value orientations, and psychological factors were examined. The findings indicate that women with higher education are mainly motivated by professional growth and personal development, while women with secondary education prioritize family values, independence, and stability. It was also revealed that the influence of family members—particularly parents and spouses—plays a crucial role in migration decisions. The results highlight the psychological determinants of internal migration and reveal the factors that encourage women's social integration and personal growth.

Key words: Internal migration, women, psychological motives, value system, social integration, family factors.

Аннотация: В статье рассматриваются мотивы и психологические особенности внутренних мигранток. Исследование проведено среди 57 женщин, проживающих в городе Ташкенте в статусе внутренних мигрантов. Были проанализированы их уровень образования, семейный стаж, ценностные ориентации и психологические факторы. Результаты показали, что для женщин с высшим образованием ведущими мотивами являются профессиональный рост и личностное развитие, тогда как для женщин со средним специальным образованием — семейные ценности, независимость и стабильность. Также установлено, что при принятии миграционных решений значительное влияние оказывают члены семьи, особенно родители и супруги. Полученные данные раскрывают психологические детерминанты внутренней миграции и факторы, способствующие социальной интеграции и личностному росту женщин.

Ключевые слова: Внутренняя миграция, женщины, психологические мотивы, система ценностей, социальная интеграция, семейные факторы.

KIRISH

Ichki migratsiya – bu aholining bir mamlakat ichida bir mintaqadan ikkinchisiga ko'chishi. Ichki migratsiya aholi migratsiyasining shakllaridan biri bo'lib, ichki migratsiyaning asosiy motivi, iqtisodiy omillar – daromadlar va xarajatlar darajasi. Shuningdek, hayot sifatini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda, migratsiyaga shaxsning psixologik holati ham migratsiyaga qaror qilishda muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

E.S.Vakulenko tamonidan 2015-yilda Rossiyada ichki migratsiya motivlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki migratsiya motivlarini o'rganish davlatning muhim strategiyasi hisoblanadi. Aholini mintaqalar orasida harakatlanishi hududlardagi muammolarni ko'rsatib beradi hamda ichki migratsiyani e'tibor bilan o'rganish orqali kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Chunki insonlar yashash uchun yaxshi sharoitlarga ega bo'lmagan hududlardan ketishga harakat qilishadi.

Tashqi migratsiya ham ichki migratsiya ham hozirga kelib tezlik bilan o'sib borayotgani kuzatilmoqda. Tarixga nazar tashlasak, migratsiya asosan iqlim o'zgarishlari (tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik), ocharchilik, urushlar sabab sodir bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunga kelib tinchlikka erishgan mamlakatlarda migratsiyani tezlik bilan o'sishiga nima sabab bo'lmoqda. Ichki migratsiyani tabiiy ofatlar, iqtisodiy, ekologik sabablaridan tashqari psixologik sabablari ham mavjud bo'lib, ularni quyida ko'rib chiqamiz:


- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy o'sish xohishi;
- migratsiyaga qaror qilgan insonlarda stressli vaziyatlarga chidamlilik, o'zgarishlardan va qiyinchiliklardan qo'rqmaslik kabi psixologik xususiyatlarni ustunlik qilishi;
- jamiyatning zamonaviy tuzilishi, insonlardagi ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarni o'zgarib borishi;
- yashash tarzidagi doimiylikni yo'qolishi. Insonlar ish joylarini, dam olish maskanlarini, faoliyat sohaslarini, turmush tarzini o'zgartirib turishi odatiy holga aylanishi. Bularni inson hayotida paydo qilish istagi insonni ko'proq harakat qilishga undaydi. Jamiyatni zamonaviy talablariga erishayotgan insonlar o'zlarini muvoffaqiyatli va kuchli his qilishadi. Insonlar mana shu hissiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ichki migratsiyaga qaror qilishadi.

TADQIQOT METODLARI

L.A.Glazkova va O.V Reshlar Belgorodda ichki migratsiya jarayonlari bo'yicha tadqiqot o'tkazdi. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha, respondentlarni avvalgi yashash joyini tark etishga undagan asosiy motivlar orasida quyidagilar yuqori o'rinlarni egalladi: shaxsiy o'sish va oilaviy sabablarga ko'ra 42,5%, o'qish hamda o'qishdan keyin ishlab migratsiya qilgan joyida qolish maqsadida 14,1 %, noqulay iqlim sharoiti tufayli 10,5%, past turmush darajasi sababli 8,0% kabilar. Migrant va migrant bo'lmagan, migratsiyaga nisbatan xohishi yo'q aholi bilan olib borilgan so'rov natijasiga ko'ra quyidagi psixologik farqlar xulq-atvorida namoyon bo'ldi. Migrant va migratsiyaga qaror qilganlarda, tavakkalchilik, bog'lanib qolmaslik, ekstrovertlik, adaptatsiyaga tez kirishish kabi xususiyatlar ustunlik qilgan bo'lsa, migratsiyaga nisbatan qiziqish bildirmagan ishtirokchilarda mehribonlik, bog'lanib qolish, mas'uliyatlilik kabi xususiyatlar ustunlik qilgan [41].

TAHLIL VA NATIJALAR


Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib ichki migrant ayollarning migratsiya motivini psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida tadqiqotga umumiy hisobda 358 nafar ayol respondentlar jalb etilib, ulardan 57 nafari Toshkent shahrida hozirda ichki migrant sifatida yashayotgan hamda ishlayotgan ayollar respondent sifatida tanlab olindi. Respondentlarni tanlash maqsadli tanlash usuli orqali yo'lga qo'yildi va bunda ularning yoshi, mehnat faoliyati, turmush staji e'tiborga olindi.



1-rasm. Ichki migrant ayollarni ma'lumot darajasi bo'yicha ko'rsatkichlari




Tadqiqotimizda ichki migrant sifatida ishtirok etgan respondentlarning 31 nafari oliy ma'lumotli va 26 nafari o'rta maxsus ma'lumotli ayollarni tashkil etdi. Shuningdek, ichki migrant ayollarning turmush muddatiga ko'ra taqsimoti quyidagi rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. Ichki migrant ayollarning turmush muddatiga ko'ra taqsimoti (% hisobida)

Ichki migrant ayollarning turmush muddatiga ko'ra taqsimotida ichki migrant ayollarning 29,82 foizi 1-5 yillik turmush muddatiga ega, 33,33 foizi 6-10 yillik turmush muddatiga ega va 36,84 foizi esa 11-16 yillik turmush muddatiga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotimiz davomida o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomadagi ayollar migratsiya motivini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy fikrlarni tahlil qilish bizda ayollarning migratsiyaga ketish qarorining muhim ko'rsatkichlarini aniqlash uchun yo'l ochadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tashqi migrant ayollar "Migratsiya qaroringizga eng ko'p kim ta'sir ko'rsatadi?" savoliga eng katta ulushda "mustaqil qaror qabul qilaman" 47 nafar (34,31%) javobini bildirgan. Ushbu ko'rsatkich ayollarning shaxsiy erkinligi, hayotiy maqsadlarini mustaqil belgilashga intilishi va o'zini namoyon etish motivlarining kuchliligidan dalolatdir.



3-rasm Migrant ayollarda migratsiya qaroriga ta'sir etuvchi subyektlarning taqsimoti . (% hisobida)


Keyingi o'rinlarda "turmush o'rtog'im" 38 nafar (27,74%) hamda "ota-onam" 30 nafar (21,90%) ta'siri qayd etilgan bo'lib, bu natijalar muhim hayotiy qarorlar, xususan, xorijga chiqish masalalarida yaqin oila a'zolari bilan maslahatlashish va ularning roziligini olish an'anasining saqlanib qolganini tasdiqlaydi.

"Do'stlar ta'siri" javobini 22 nafar (16,05%) tashqi migrant ayollar belgilaganligidan do'stlar, tanish-bilishlarning ta'siri ham sezilarli darajada ekanligini taxmin qilish mumkin. Umuman olganda, tashqi migratsiya qarorlarini shakllantirishda shaxsiy motivatsiya va mustaqil tanlovga intilish sezilarli darajada namoyon bo'lsa-da, oila omili, ayniqsa turmush o'rtog'i va ota-onaning roziligi, etakchi ijtimoiy-psixologik determinant sifatida o'z mavqeini saqlab qolmoqda.



Ichki migrant ayollarda esa eng ko'p ko'rsatkichlarni "ota-onam" 20 nafar (35.09%) va "turmush o'rtog'im" 22 nafar (38.60%) javoblari egalladi. Bu holat O'zbekiston ijtimoiy-psixologik muhitida oila institutining etakchi o'rin tutishini yaqqol ko'rsatadi. Ichki migratsiya sharoitida qaror qabul qilish jarayonida ota-onaning fikri yuqori darajada inobatga olinishi, masofa qisqaligi, ijtimoiy nazoratning kuchliligi va oilaviy bog'liqliklar bilan izohlanadi.

So'rovnomadagi «Migratsiya orqali hayotingizni ijobiy o'zgartirish imkoniga qanchalik ishonasiz?» nomli savolga tashqi migrant ayollarda "to'liq ishonaman" javobi 71 nafar (51,82 %) bo'lib, bu ularning migratsiyani transformativ hayotiy imkoniyat sifatida ko'rishidan dalolat beradi.



4-rasm Migrant ayollarda migratsiyaning hayotni ijobiy o'zgartirishga bo'lgan ishonch darajasi (% hisobida).

Tashqi migrant ayollarning ham katta qismi migratsiyani o'zini o'zi ro'yobga chiqarish degan ijobiy fikrlar bilan bog'lashadi. Bu fikr esa migratsiya jozibadorligini oshishiga va xavfli tomonlarini o'ylab ko'rmaslikka olib kelmoqda deyish mumkin. "Qisman ishonaman" javobini 47 nafar (34,31%) ayollar belgilagan bo'lib, ular ijobiy istiqbollarga ishonish bilan birga moslashish jarayoni va qiyinchiliklarni hisobga olgan holda migratsiyani tanlashadi. Shuningdek, "ishonmayman" 12 nafar (8,76 %) va "umuman ishonmayman" 7 nafar (5,11%) javoblarini belgilashgan. Bu so'rovnoma xulosasiga ko'ra ayollar migratsiyani hayotini o'zgartiruvchi yo'l deb hisoblashi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki migrant ayollarning 23nafar (40,35 %) migratsiya orqali hayotini ijobiy o'zgartirish imkoniga to'liq ishonadi, 24 nafar (42,11%) esa qisman ishonadi. Bu ko'rsatkichlar ichki migratsiya sharoitida qaror qabul qilish jarayonining ko'p hollarda ehtiyotkor optimizmga asoslanishini anglatadi. Ichki migrant ayollar orzularini migratsiyaga bog'laganini javoblardan ko'rish mumkin. "Ishonmayman" 6 nafar (10,53 %) va 4 nafar (7,01 %) "umuman ishonmayman" javoblarini ko'rsatkichlari pastligidan migratsiya ayollar orasida ijobiy tushuncha hosil qilganligini anglash mumkin. Bu esa migratsiyani yanada ayollar orasida o'sib borishini anglatadi.

Ayollarda ichki migratsiya motivini aniqlash maqsadida A.A.Reanning "Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatdan qo'rqish motivatsiyasi so'rovnomasi" M.Rokichni "Qadriyatlar yo'nalishi" D.A.Leontevni "Hayot mazmuni yo'nalganligi testi" R.Plutchik, G.Kellerman. X.Kontelarning "Hayot maromi indeksi" so'rovnomasi, Gerbachevskiyning "Intilish darajasi" testlaridan foydalanildi. Migrant ayollardan olingan metodikalarning natijalarini imperik tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqotimizda qatnashgan ichki migrant ayollarining muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatdan qo'rqish motivatsiyasi so'rovnomasi hamda hayot mazmuni yo'nalganligi metodikalari bo'yicha olingan natijalarda ishonchli farqlar aniqlanmadi. Natijalardan ichki migrant ayollarning muvaffaqiyatga intilishi yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishiga nisbatan motivlarida umumiylik mavjud deb xulosa qilish mumkin, chunki ma'lumotidan qat'iy nazar migratsiya qilayotgan har qanday ayol kishi muvaffaqiyatga erishish motivi mavjud bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi $U=146,500$; $p>0,05$. Hayot mazmuni yo'nalganligi metodikasi bo'yicha hayotdagi maqsadlar $U=139,000$; $p>0,05$, hayot jarayoni $U=157,000$; $p>0,05$, hayotning natijaviyligi $U=176,000$; $p>0,05$, nazorat lokusi-men $U=176,000$; $p>0,05$, nazorat lokusi-hayot $U=181,500$; $p>0,05$ shkalalarida ham natijalarda ishonchli farqlar aniqlanmadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, ichki migrant ayollarda maqsad qo'yish, hayotdan emotsional qoniqish va o'z hayotini boshqarish istagi ma'lumot darajasiga bog'liq emasligi tadqiqotimizda isbotlandi (1-ilovaga qarang).

Quyidagi jadvalda tadqiqotda ishtirok etgan ichki ayol migrantlarning ma'lumot darajasiga ko'ra qadriyatlar yo'nalishi, intilish darajasi va hayot maromi indeksi metodikalari bo'yicha aniqlangan natijalar keltirib o'tildi.



1-jadval. Ichki migrant ayollarning ma'lumot darajasi kesimida qadriyatlar tizimi, intilish darajasi va hayot maromi indeksleri bo'yicha statistik farqlari (N=57)

Shkalalar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
	Oliy (n=31)	O'rta (n=26)	U	p
Yaxshi sadoqatli do'stlar	17,14	10,83	142,5	0,037*
Sermahsul hayot	18,68	9,70	125,5	0,003**
Baxtli oilaviy hayot	9,82	16,20	142,5	0,033*
Mustaqillik	10,05	16,03	144,5	0,047*
Sofdillik	16,95	10,97	144,5	0,047*
Aktiv hayot	16,82	24,12	117,00	0,047*
Kuchli iroda	16,64	24,35	113,00	0,035*
Vazifaning qiyinligi	16,82	11,07	146,00	0,045*
Ratsionalizatsiya	16,84	24,09	117,500	0,047*

Izoh: * $p < 0,05$, ** $p < 0,01$

M.Rokichning “Qadriyatlar yo'nalishi” metodikasi asosida ichki migrant ayollarning qadriyat tizimlari o'rganilganda, ularning ta'lim darajasi asosida muhim farqlar aniqlangan bo'lib, ushbu tafovutlar ichki migratsiyaga undovchi motivatsion omillar bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqotda ishtirok etgan ayollar qadriyatlarini hayotdagi muhimlik darajasiga ko'ra reytinglab bergan. Tahlil jarayonida ayrim terminal qadriyatlar bo'yicha ishonchli statistik farqlar aniqlangan.

M.Rokichni “Qadriyatlar yo'nalishi” metodikasidan foydalanganimizda yaxshi sadoqatli do'stlarning borligi shkalasi bo'yicha farqlar aniqlandi. Ichki migratsiyada oliy ma'lumotli ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 17,14 ni tashkil etgan bo'lsa, o'rta ma'lumotlilarda 10,83 natija chiqdi ($U=142,5$; $p < 0,05$). Bu metodika orqali shaxsning yo'nalganligini, motivi, motivatsiyasi atrofida dunyo va odamlarga munosabatini aniqlashga qaratilgan. Ichki migratsiyadagi oliy ma'lumotli ayollarda yaxshi sadoqatli do'stlarning borligi shkalasining yuqoriligiga sabab ishda, karyerada rivojlanish uchun do'stlarning qo'llab quvvatlashiga nisbatan ehtiyoj va munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ya olish xususiyatlari shakllanganligi bilan bog'lab izohlash mumkin. Shuningdek, Bu qadriyat ularning professional muhitga integratsiyalashish, ijtimoiy tarmoq yaratish, hamkasblar bilan yaqin hamkorlik qilish istagi bilan bog'liq bo'lib, Toshkentga ichki migratsiya qilishdagi asosiy motivlardan biri — kasbiy o'sish va shaxsiy rivojlanishda ijtimoiy qo'llab-quvvatlov izlash ekanligini ko'rsatadi. Ichki migratsiyadagi o'rta ma'lumotli ayollarda natijani pastligini ijtimoiy munosabatlarning cheklanganligi, uy bekasi bo'lganligi bois insonlar bilan muloqat doirasining torligi, ijtimoiy faol emasligi sabab sifatida keltirish mumkin.

Navbatdagi sermahsul hayot shkalasi bo'yicha quyidagi farqlar kuzatildi. Oliy ma'lumotli ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 18,68, o'rta ma'lumotli migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 9,70ni tashkil qildi. ($U=125,5$; $p < 0,01$). Bundan ko'rinib turibdiki oliy ma'lumotli ichki migrant ayollar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun o'z imkoniyati va qobiliyatlaridan unumli foydalana olishi, vaqtni to'g'ri rejalashtirishi hamda kasbiy o'sishga e'tibor qaratishi sabab qilib yuqori natija kuzatildi deb taxmin qilishimiz mumkin. Budan tashqari ma'lumotli ayollarning migratsiya qilishi ortida samarali hayot kechirish, vaqtni rejalashtirib ishlash, kasbiy muvaffaqiyatga erishish, salohiyatni ro'yobga chiqarish kabi motivatsion omillar turganligini ko'rsatadi. Ularning migratsiyasi ko'proq intellektual va kasbiy o'sishga yo'naltirilgan. O'rta ma'lumotli ichki migrant ayollarda o'z imkoniyat va qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltira olish kunikmalariga ega emasligi, mustaqil qaror qabul qilishdan qo'rqish hissi past ko'rsatkichga ega bo'lgan deyish mumkin.

Baxtli oilaviy hayot shkalasi bo'yicha oliy ma'lumotli migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 9,82ni o'rta ma'lumotli ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,20 ni tashkil qildi ($U=142,5$; $p < 0,05$). Bundan ko'rinib turibdiki, ichki migratsiyadagi oliy ma'lumotli ayollarda baxtli oilaviy hayot ko'rsatkichlari past bo'lib, karyera, ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy va kasbiy o'sishga intilish sabab oilaga, bolalarga kam vaqt ajratishini ko'rsatish mumkin. Ko'pincha oliy ma'lumotli ayollar viloyatdan shaharga ichki migratsiya qilish motivi bu — o'z sohasida o'sish imkoniyatini yuqoriligidir. O'rta ma'lumotli ichki migrant ayollarda esa baxtli oilaviy hayot shkalasi yuqori natijani ko'rsatgan. Bilamizki, o'rta ma'lumotli ayollar oila davrasida, farzandlari bilan ko'p vaqtini o'tkazadi. Shu sababli ular hayotini oila bilan bog'lashadi. O'rta ma'lumotli ayollar asosan oila a'zolari yoki turmush o'rtog'iga hamroh sifatida ichki migratsiya jarayonida ishtirok etadi.

Mustaqillik shkalasi bo'yicha oliy ma'lumotli migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 10,05 ni ko'rsatgan bo'lsa, o'rta ma'lumotli migrantlarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,03 ($U=144,5$; $p < 0,05$) tashkil qildi. Oliy ma'lumotli ichki migrant ayollarda natijani past ekanligiga sabab, doimiy ish bilan bandligi, o'ziga xos mas'uliyat zimmasida bo'lganligi bois hayotiy rejalarni oila va ish bilan bog'lagan holda tuzadi deb taxmin qilish mumkin.



O'rta ma'lumotli ichki migrant ayollarda mustaqillik shkalasini yuqori chiqishi sayohat, dam olish yoki biror ishni boshlash vaqtini bemaolol hal eta olishi sababli degan farazimizga bog'lagan holda izohladik.

Jadvalimizdan o'rin olgan sofdillik shkalasi bo'yicha oliy ma'lumotli ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,95 bo'lsa, o'rta ma'lumotli ichki migrantlarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 10,97 ($U=144.5$; $p<0,05$) qiymatga ega bo'ldi. Ushbu natijaning oliy ma'lumotli ichki migrant ayollarda yo'qori ko'rsatkich chiqqaniga sabab, migratsiya jarayonida ishda ijtimoiy munosabatlardagi samimiylilik, sofdillik, vazifalarini sidqidildan bajarishi ishonchli munosabatlarni o'rnatishda, ishxonada jamoaga kirishishda o'ta muhim omil ekanligini sababli deb izohlash mumkin. Ichki migrant ayollar muvaffaqiyatga intilishi sabablaridan biri ham viloyatda yaqinlariga, oilasiga yordam berish motivini yuqoriligidir. Ichki migratsiyaga kelgan o'rta ma'lumotli ayollarda sofdillik shkalasining past bo'lishiga, tez-tez ish joyini almashtirishga majbur bo'lishi, o'zini bitta ish joyi bilan bog'lamaslik hamda asosan uyda uy ishlari bilan mashg'ul bo'lishi muloqotga nisbatan ehtiyojini qoniqmasligi asabiylilikni, tushkunlik kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Aktiv hayotiy faoliyat shkalasida oliy ma'lumotlilarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 16,82ni o'rta ma'lumotlilarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 24,12 ni tashkil qildi. ($U=117,000$; $p<0,05$) Natijalarga ko'ra o'rta ma'lumotli migrant ayollar voqea hodisalarni emotsional qabul qilish oliy ma'lumotli ayollarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlandi. Oliy ma'lumotli migrant ayollar muammolarni hissiyotlarga emas, ongga tayanib hal qilishi mumkin deb izohlash mumkin.

Jadvalimizdagi iroda kuchi shkalasi bo'yicha oliy ma'lumotlilarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,64 ni o'rta ma'lumotlilarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 24,35 ni tashkil qildi. ($U=113,000$; $p<0,05$) Iroda kuchi shkalasida o'rta ma'lumotlilarda yuqori natijani ko'rsatdi. Buni mehnatda toblanganligi, yaxshi daromad topish maqsadida har xil sharoitlarda faoliyat olib borishi natijasida iroda kuchini hosil bo'lishi bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Oliy ma'lumotli ichki migrant ayollarda turli vaziyatlarda tanlov imkoni borligi bilan izohladik.

Respondentlardan olingan natijalar tahlilida Gerbachevskiyning intilish darajasi metodikasining vazifaning qiyinligi shkalasida oliy va o'rta ma'lumotli ichki migrant ayollarning qiyin vazifalarni bajarishdagi motivlari o'rtasida ishonchli farqlar aniqlandi. Oliy ma'lumotlilarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,82 ni tashkil etgan bo'lsa, o'rta ma'lumotlilarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 11,07 ni tashkil qildi ($U=146,00$ $p<0,05$). Bundan ko'rinib turibdiki, ichki migratsiyadagi oliy ma'lumotli ayollarda yuqori ko'rsatkich aniqlandi. Bunga sabab, dunyoqarashning kengligi, o'z ustida ishlash, o'ziga ishonchni yuqoriligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ustunligi bilan bir qatorda hozirda o'z kasbining etuk mutaxasislari uchun Toshkent shahrida yaxshi oylik maoshli ishlarga joylashish imkoniyati viloyatlarga nisbatan nisbatan ko'proq degan qarashning mavjudligi bilan izohlash mumkin. Ichki migratsiyadagi o'rta ma'lumotli ayollarda natijaning past chiqishiga sabab sifatida ishga joylashishdagi qurquv, o'ziga nisbatan ishonchning pastligi, mas'uliyatli vazifalarga nisbatan xavotir, daromadning kamligi, doimiy ish joyiga ega emaslik kabilar bilan izohlash mumkin. Navbatdagi jadvalimizda hayot maromi indeksi bo'yicha ichki migrant ayollarni ma'lumot darajasiga ko'ra farqlari keltirildi.

Rasionalizatsiya shkalasi bo'yicha oliy ma'lumotli ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,84ni o'rta ma'lumotlilarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 24,09 ni tashkil qildi ($U=117,500$; $p<0,05$).

O'rta ma'lumotli migrant ayollarda qiymatning yuqori bo'lishi shaharga joylashish, ish topish, moslashish kabi jarayonlarda yuzaga keladigan qo'rquvlarni ongga, mantiqqa tayangan holda bostirishga harakat qilish sabablidir. Oliy ma'lumotli ichki migrant ayollarda esa maqsadlari aniqligi sabab uzoq o'ylamasdan harakatga o'tishga moyilligi yo'qori bo'lishi bilan izohlashimiz mumkin.

Har bir shaxs umri davomida hayot mazmunini topishga harakat qiladi. Jamiyatning kelajagi ham o'z fikriga, dunyo qarashiga ega shaxslar va insonlarning ruhiy tarbiyasiga ta'sir qiladigan ma'naviy, axloqiy sohalaridagi rivojlanish bilan uzviy bog'liqdir, shu sababli ichki migratsiyaga qaror qilgan ayollarning maqsadlarini, hayot mazmunini yo'nalganligini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotimiz doirasida ichki migrant ayollarning turmush muddati davomiyligi ko'rsatkichlari ularning psixologik xususiyatlari va hayot mazmunining yo'nalishini o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi farazimizga asosanib ichki migrant ayollarning turmush staji davomiyligiga ko'ra tafovutlar jadvalini keltirishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Ichki migratsiyadagi ayollarning turmush qurganlik muddatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratdik:

I guruh – 1-5 yilgacha turmush stajiga ega bo'lgan ayollar;

II guruh – 6-10 yil turmush stajiga ega bo'lgan ayollar;

III guruh – 11-16 va undan yuqori turmush stajiga ega bo'lgan ayollar.

Respondentlarni ushbu guruhlariga ajratishda ijtimoiy psixologiya, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oilada ayollar bilan bog'liq muammolarini ochib berishga qaratilgan tadqiqot ishi natijalarida ilgari surilgan g'oyalar, tamoyillarga asoslangan holda o'rganilayotgan ichki migrant ayollarining etnik hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga oldik.

Migrant ayollarning oilaviy turmush tajribasining muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatdan qo'rqish hamda hayot mazmuni yo'nalganligiga ko'ra olingan tahlil natijalarini ko'rib o'tamiz (2-ildovaga qarang).



Jadvalimizdagi muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatdan ($H=0,803$; $p>0,05$) qo'rqish, hyotdagi maqsadlar, ($H=3,442$; $p>0,05$) hayot jarayoni, ($H=4,827$; $p>0,05$) hayotning natijaviyligi, ($H=1,872$; $p>0,05$) nazorat lokusi-men, ($H=2,621$; $p>0,05$) nazorat lokusi-men ($H=5,064$; $p>0,05$) ushbu natijalar ichki migrant ayollarning turmush muddatiga qarab hayotga va o'zlarining psixologik holatiga bo'lgan qarashlarining ko'p jihatdan farq aniqlanmadi. Ichki migratsiya asosan rivojlangan shaharlar tamon harakat ko'rsatkichiga ega ekanligi ma'lum. Ayollarning ichki migratsiya maqsadini yana e'tiborli ta'moni qisqa muddatda oilasi yoniga borish imkonini mavjudligidir. Shu sababli turmush tajribasidan qat'iy nazar ayollarda muvaffaqiyatga intilish, maqsad qo'yish kabi xususiyatlarda farq kuzatilmadi. Ba'zi shkalalar (masalan, muvaffaqiyatga intilish, hayotdagi maqsadlar) turmush muddatiga bog'liq holda sezilarli o'zgarishlar aniqlanmadi, lekin ba'zi o'zgarishlar (masalan, nazorat lokusi – men) ma'lum darajada farq qiladi. Migrant ayollarning turmush muddatiga ko'ra olingan natijalarda psixologik va hayotga oid qarashlarning o'zgarishi ehtimoli mavjud bo'lsa-da, umumiy tendensiyalar hali ham juda kichik va ahamiyatli emasligi ma'lum bo'ldi.

2-jadval. Qadriyatlar yo'nalishi metodikasi bo'yicha turmush muddatiga ko'ra farqlar (Kruskal-uollis me'zoni)

Shkalalar	O'rtacha rang			Statistik qiymat	
	1-5 (n=17)	6-10 (n=19)	11-16(n=21)	H	p
Sermahsul hayot	25,09	12,47	24,38	10,753	0,005**
Baxtli oilaviy hayot	12,68	22,20	23,65	6,559	0,038*
Intizomlilik	18,14	16,37	25,77	5,183	0,045*
Ishdagi samaradorlik	22,95	20,63	16,77	5,136	0,047*
O'yin-kulgi	19,36	15,23	26,04	6,371	0,041*
O'zgalar baxti	27,32	16,90	17,38	6,390	0,041*

Izoh: * $p<0,05$, ** $p<0,01$

Jadvalimizda ichki migrant ayollarning turmush muddatiga ko'ra qadriyatlar yo'nalishi imperik tahlil qilinganda quydagi farqlar aniqlandi. Sermahsul hayot shkalasi bo'yicha ichki migrantsiyadagi turmush davomiyligi 1-5 yil bo'lgan ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 25,09 ni, turmush davomiyligi 6-10 yil bo'lgan ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 12,47 ni, 11-16 va undan ko'p turmush stajiga ega ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 24,38 ni tashkil qildi. ($H=10,753$; $p<0,01$) Turmush davomiyligi 1-5 yil bo'lgan ichki migrant ayollarda natijani yuqoriligini turmushni dastlabki yillarida oilaviy mas'uliyatni kamligi, o'z qiziqishlariga vaqt ajrata olishi, kelajakka pozitiv emotsional ruhda qarashi, sog'lom fikrlash, qobiliyatlarini maqsadlari sari yo'naltirish imkoniyati borligi bilan izohladik. 6-10 yillik turmush davomiyligiga ega ayollarda esa yoshga oid inqiroz, oilaviy muammolar va mas'uliyatni ortishi ruhiy bosimni keltirib chiqarishi, bu o'z o'rnida ijobiy fikrlashga va harakatlarga ham ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Baxtli oilaviy hayot shkalasi bo'yicha turmush davomiyligi 1-5 yil bo'lgan ichki migrant ayollarda qiymat ko'rsatkichi 12,68 ni, turmush muddati 6-11yillik ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 22, 20 ni va 11-16 va undan yuqori turmush muddatiga ega ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 23,65 ni tashkil qildi ($H=6,559$; $p<0,01$). Ichki migratsiyadagi 1-5 yil bo'lgan ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichining past chiqishiga sabab hayotiy tajribaning kamligi, ikki jins vakilining adaptatsiya jarayonidagi qiyinchiliklar, maqsadlardagi tafovutlar bilan bog'lash mumkin. 11-16 va undan yo'qori bo'lgan ichki migrantlarda ko'rsatkichlarning yo'qori bo'lishiga sabab, farzandlar tarbiyasida va kelajak rejalardagi umumiylik, tushunish, o'zoro hurmat hissining shakllangani sabab bo'lishi mumkin degan taxminimizga ko'ra izohladik. Demak, ayollarning turmush muddati davomiyligi qanchalik uzoq bo'lsa, oilaviy baxtni his qilish darajasi yuqori bo'ladi deb xulosa qilish mumkin.

Jadvalimizdagi intizomlilik shkalasi bo'yicha ham farqlar aniqlandi. 1-5 yilgacha turmush muddatiga ega ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 18,14 ni, 6-10 yillik turmush stajiga ega ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,37 ni va 11-16 yillik turmush stajiga ega ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 25,77 ni tashkil qildi. ($H=5,183$; $p<0,01$). Insonning yoshga mos holda xulq-atvori, fikrlari va qadriyatlar ham o'zgarib borishi tadqiqotlarda isbotlangan. 1-5 yil turmush muddatiga ega ayollarda hayotiy maqsadlariga erishishda intizomlilik shkalasi past chiqishiga sabab yoshligi, qiyin vazifalardan tez zerikishi hamda yosh xususiyatlari kabi holatlarni inobatga olgan holda izohlash mumkin. 11-16 yillik turmush muddatiga ega ayollar intizomlilik shkalasini yo'qori chiqishiga sabab, intizomlilik bilan maqsadlariga va muvaffaqiyatga erishish mumkinligini tajribalar, hayotiy sinovlar sabab anglab etgani bilan izohlash mumkin.

Ishdagi samaradorlik ko'rsatkichi bo'yicha ichki migratsiyadagi 1-5 yillik turmush muddatiga ega ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi yuqori bo'lib, 22,95 ni tashkil qilgan. Buni o'zini turli sohalarida sinash imkoniyati, tavakkal qila olishi, bir vaqtning o'zida hamma narsaga ulgurish istagi yosh ayollarda ustunlikka ega ekanligi bilan bog'ladik. 6-10 yillik turmush muddatiga ega ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 20,63 va 11-16 va

turmush davomiyligi undan yo'qori bo'lgan ayollarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichi quyi natijani 16,77 ni ko'rsatdi ($H=5,136$; $p<0,01$). Bunga sabab sifatida bir vaqtning o'zida oilaviy muammolarning ko'payishi, yosh xususiyatiga ko'ra vazminlik, mulohaza asosida fikr yuritishga moyillikning ortishi, ishda intizomlilik bilan ishlash prinsipini ustun qo'yishi bilan tushuntirish mumkin. Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy norma bo'lib qolgan uy bekasi bo'lish "ishsiz" inson bo'lish bilan teng degan qarashlar ham bugungi kunda migratsiya motiviga sabab bo'lib qolmoqda. Ayollar o'z shaxsiyatidan qoniqish hosil qilish uchun ham ichki migratsiya tomon harakat qilmoqda.

Ishonchli farq aniqlangan o'yin-kulgi shkalasi bo'yicha quyidagi farqlar aniqlandi. Turmush muddati 1-5 yilni tashkil qilgan ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 19,36 ni, 6-10 yillik turmush muddatiga ega ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 15,23 ni, 11-16 va undan yo'qori turmush stajga ega ichki migrant ayollarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 26,04 ni tashkil qildi ($H=6,371$; $p<0,5$). O'yin-kulgi shkalasi o'tayotgan vaqtini qanday his qilishini aniqlashga yordam beradi. 6-10 yillik turmush stajiga ega ichki migratsiyadagi ayollarda past ko'rsatkich chiqishiga sabab sifatida bu vaqtda ehtiyojlar inqirozi yuzaga kelishi bilan tavsiflash mumkin. Oilaviy hayotning dastlabki yillaridagi zavq beruvchi holatlar turmushning 6-yilidan boshlab zerikarli tuyula boshlaydi. Er va xotin bir-biriga nisbatan qiziqishni so'nishi, ajrimlarning bu davrga ko'payishiga sabab bo'lishi tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. 11-16 va undan ko'p turmush muddatiga ega ayollarda natijalarning yo'qori bo'lishiga sabab esa oilaviy hayotini yo'lga qo'ygan, moddiy ahvoli yaxshilangan, shaxsiy erkinlikni his qilishi ortgan davrga to'g'ri kelishi bilan izohlash mumkin.

Qadriyatlar yo'nalishining o'zgalar baxti shkalasida ham tafovutlar aniqlandi. Ichki migratsiyadagi 1-5 yillik turmush muddatiga ega ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 27,32 ni, 6-10 yillik turmush muddatiga ega ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,90 ni va 11-16 va undan yo'qori turmush muddatiga ega ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 17,38 ni tashkil qildi. ($H=6,390$; $p<0,05$). Yuqori ko'rsatkichni 1-5 yillik turmush davomiyligiga ega ayollarda qayd etildi. Bunga sabab o'zbek ayollari ham muvaffaqiyatli, namunali ayol bo'lish, yaqinlariga moddiy ma'naviy yordam berish istagi yuqori bo'lishi, ammo ijtimoiy taqiqlar, bilim olishga rivojlanishga bo'lgan qiziqishini so'nishiga olib keladi. Turmush staji, yosh ko'rsatkichi ortib borishi bilan ish, oila va farzandlar tarbiyasi bilan bog'liq mas'uliyat ham ortib boradi. Natijada oila, ish va farzandlar uchligi ichida ayol yashay boshlaydi. Umidlarini, maqsadlarini oilasi bilan bog'laydi. Turmush davomiyligini 11-16 va undan ko'p mddatga ega bo'lib borishi bilan o'zgalar haqida qayg'urish ko'rsatkichlarini ham o'sishini kuzatish mumkin. Buni o'zbek ayollarini o'zi uchun emas, farzandlari va oilasi uchun yashishi sababli deyish mumkin. Tadqiqotimizda ishtirok etgan respondentlarning intilish darajasi va hayot mazmuni yo'nalganligi metodikalari bo'yicha turmush muddatiga ko'ra natijalarini tahlil qilganimizda quyidagi shkalalarda farqlar aniqlandi. Natijalar 2.1.3-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotimizda qatnashgan respondentlarda intilish darajasini baholash metodikasi bo'yicha ham olingan natijalarda farqlar aniqlandi. Natijalarning ahamiyati shkalasida 1-5 yillik turmush muddatiga ega ayollarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 25,82ni, 6-10 yillik turmush stajiga ega ayollarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 13,30 va 11-16 va undan ko'p turmush davomiyligiga ega ayollarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari 22,81 tashkil qildi ($H=8,950$; $p<0,05$). O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ichki migrant ayollarning turmush staji ularning migratsiyaga intilish darajasi va motivlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, 6–10 yillik turmush tajribasiga ega ayollarda intilish darajasining sezilarli pasaygani ularning migratsiyaga ko'proq majburiyat yoki qochish strategiyasi sifatida yondashayotganini anglatadi. Bu esa, aynan shu davrda migratsiyaga undovchi ichki bosimlar va ehtiyojlar kuchayishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki migrant ayollar motivlari ko'p qatlamli va dinamik xarakterga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Dastlab tashqi sabablar (moddiy ehtiyoj, yashash sharoitlari) asosiy rol o'ynasa-da, vaqt o'tishi bilan ichki motivlar (o'zini anglash, intizomlilik, raqobatbardoshlik, kognitiv qiziqishlar) etakchi omilga aylanadi. Ma'lumot darajasiga ko'ra tadqiqot natijalarida o'rta ma'lumotlilar uchun amaliy hayotiy moslashuv motivlari, oliy ma'lumotlilar uchun intellektual va kasbiy motivlar ustun ekanligini ko'rish mumkin. Shuningdek, turmush muddatining oshishi migrant ayollarda qadriyatlar tizimida barqarorlik va oilaviy baxtga yo'nalish kuchayishiga hamda ayollarning migratsiyadagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy psixologik resurs (shaxsiy rivojlanish, jamiyatda o'z o'rnini topish xoishi, mustaqillik) vazifasini bajarishi aniqlandi. Demak, ichki migrant ayollarda motivatsion tizim ularning ma'lumot darajasi, oilaviy tajribasi va ichki psixologik ehtiyojlari bilan bog'liq holda o'zgaradi. Bunda ichki motivlar migratsiya jarayonida muvaffaqiyatning asosiy kafolati sifatida maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimova V.M. Psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 256 b.
2. Xudoyberdiyeva D. Ichki migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 210 b.



3. Mirziyoyeva S. Ayollar migratsiyasining ijtimoiy-psixologik jihatlarini // Ijtimoiy fanlar jurnali. – 2020. – №2. – B. 45–53.
4. Вакуленко Э.С. Внутренняя миграция: мотивы и последствия // Демографические исследования. – Москва: Издательство РАН, 2015. – №3. – С. 112–120.
5. Глазкова Л.А., Решлер О.В. Социально-психологические аспекты внутренней миграции // Белгородский государственный университет журналы. – 2017. – №14(2). – С. 55–63.
6. Реан А.А. Психология личности: мотивация, саморегуляция, ценности. – Санкт-Петербург: Питер, 2006. – 384 с.
7. Рокит М. Ценности человека. – Москва: Республика, 1999. – 256 с.
8. Леонтев Д.А. Смысловая сфера личности: структура и динамика. – Москва: Смысл, 2003. – 487 с.
9. Плутчик Р., Келлерман Г., Сонте Х.Р. Тест измерения уровня эмоций. – Нью-Йорк: Академик Пресс, 1979. – 312 п.
10. Гербачевский Л.С. Тест направленности личности. – Москва: Наука, 1988. – 164 с.
11. Заёничковская З.А. Миграция и социальная трансформация в России. – Москва: Академия, 2009. – 275 с.
12. Castles S., Miller M. The Age of Migration. – New York: Palgrave Macmillan, 2009. – 376 p.
13. Massey D. et al. Worlds in Motion: Understanding International Migration at the End of the Millennium. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 362 p.

HARBIY XIZMATCHILARDA PSIXIK O'ZINI O'ZI BOSHQARISH DOIRASIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

Qiyomxo'jayeva Madina Rustambek qizi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Email: mkiyomkhujaeva99@gmail.com

Annotatsiya: Globallashuv jarayonida, demografik o'zgarishlar bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi va nisbatan olimlarning e'tibori psixologik tadqiqotlar doirasida allaqachon alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Sir emas, harbiy xizmatchilar har qanday davlatning tayanchi hisoblangan bir vaqtda, bugungi kunda harbiy sohadagi muammolar barqaror davlatning rivojlanish dinamikasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Psixologik ilmiy tadqiqotlar doirasida allaqachon isbotlanganidek, harbiy xizmatchilardagi psixologik himoya mexanizmlari asosi bo'lib xizmat qiladi va ular nafaqat xizmat faoliyati barqarorligiga, balki jamiyatda va oilaviy hayotda ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada harbiy sohada psixologik himoya mexanizmlari harbiy xizmatchilarning psixologik psixik o'zini o'zi boshqarishi fenomeni doirasida psixologik-empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: psixologik himoya, harbiy xizmatchi, samoregulyatsiya, repressiya (siqib chiqarish), proyeksiya, kompensatsiya, giperkompensatsiya, rad etish, ratsionalizatsiya, regressiya, shaxslararo munosabatlar.

Abstract: In the process of globalization, alongside demographic changes, the issue of psychological resilience and mental self-regulation among military personnel has increasingly become a subject of scientific research within the field of self-regulation psychology. It is no secret that current challenges in the military sphere have a significant impact on the dynamics of sustainable state development, as military personnel serve as a core foundation of any nation. Psychological research has already demonstrated that the defense mechanisms underlying the mental self-regulation of servicemen can influence not only their professional stability but also their social and family life. This article analyzes defense mechanisms in the military domain through the lens of the psychological self-regulation phenomenon, based on empirical psychological data.

Key words: psychological defense, military personnel, self-regulation, repression, projection, compensation, overcompensation, suppression, rationalization, regression, interpersonal relationships.

Аннотация: В процессе глобализации, наряду с демографическими изменениями, внимание к проблеме психической устойчивости, психической саморегуляции военнослужащих уже успело стать объектом научных исследований в психологии саморегуляции. Не секрет, что проблему в сфере военного дела сегодня оказывает существенное влияние на динамику развития целого устойчивого государства, когда как военнослужащие являются опорой любого государства. В рамках психологических научных исследованиях уже доказано, что механизмы психологической защиты военнослужащих в основе психической саморегуляции могут влиять не только на стабильность деятельности в службе, но и в целом в обществе, в семейном быту. В статье на основе психологических эмпирических данных анализируются механизмы психологической защиты в военной сфере в рамках феномена психологической саморегуляции военнослужащих.

Ключевые слова: психологическая защита, военнослужащий, саморегуляция, репрессия, проекция, компенсация, гиперкомпенсация, вытеснение, рационализация, регрессия, межличностные отношения.



KIRISH

Harbiy xizmat o'tash jarayonida harbiy xizmatchi shaxsi kundalik stress, yangi vazifa va yuklamalar, yangi talablar bilan to'qnashadi va ularni yengib o'tish uchun umr davomida harbiy xizmatchi ortirgan bilim va xulq-atvor tajribalari har doim ham o'z samarasini bermasligi mumkin. Shunday bo'lishi muminki, harbiy xizmatchi shaxsi har doim ham vaziyat va sharoitlarni adekvat tarzda baholay olmaganligi, tahlil qila olmaganligi va shu sabab, xulq-atvor strategiyasi noto'g'ri qo'llanilishi oqibatida ushbu shaxs nizoli, noqulay yoki ekstremal vaziyatdan chiqib keta olmasligini kuzatishimiz mumkin. Albatta, bunday muammolarning yuzaga kelishi tabiiy ravishda ichki zo'riqish va noqulaylikni keltirib chiqaradi, bu esa ko'pincha nafaqat yuzaga kelgan muammoni konstruktiv hal qilishga to'sqinlik qiladi, balki shaxsning umumiy barqarorligini ham izdan chiqaradi. Bunday salbiy oqibatlarni hal etish vositalaridan biri bu — psixologik himoya hisoblanadi. Psixologik himoya — bu shaxsnin psixik barqarorligini saqlab turuvchi maxsus tizim bo'lib, ong sohasini ichki va tashqi nizolar, xavotir va noqulaylik holatlari bilan bog'liq bo'lgan noxush, ruhiy jarohat yetkazuvchi kechinmalardan himoya qiladi. Biz bimalol ishlatadigan "himoya" atamasi psixoanalitik nazariyada dinamik yondashuvning dastlabki ifodalaridan biri hisoblanadi [1], [2]. Ushbu atama 1894-yilda Z. Freydning "Himoyaviy neyropsixozlar" asarida paydo bo'lgan va keyinchalik uning bir qator boshqa mehnatlarida ("Isteriyaning etiologiyasi", "Himoyaviy neyropsixozlar haqida keyingi mulohazalar") og'riqli yoki chidab bo'lmaz fikrlar va affektlarga qarshi "Men"ning kurashini tasvirlash uchun qo'llanilgan. Keyinchalik bu atama chetga surilgan va uning o'rniga "siqib chiqarish" atamasi ishlatila boshlangan [3] "Buzilishlar, simptomlar va xavotir" asarining ilovasida Z. Freyd dastlabki "himoya" tushunchasiga qaytadi va bu atama qo'llanishning o'z afzalliklariga ega ekanini va "Biz bu atamani umumiy ma'noda qo'llaymiz — ya'ni, 'Men'ning ziddiyatlarda foydalanadigan barcha usullarini ifodalash uchun, va shu bilan birga 'siqib chiqarish' so'zini esa — bizning dastlabki tadqiqot bosqichlarimizda eng yaxshi o'rganilgan, himoyaning alohida turi sifatida qoldiramiz" deb ta'kidlab o'tgan muallif. [4]. Bu yerda siqib chiqarish psixik jarayonlar ichida yagona va alohida mavqega ega degan tushuncha rad etiladi va psixoanalitik nazariyada ayni maqsadga xizmat qiluvchi boshqa himoya jarayonlariga ham o'rin ajratiladi.

Shu tariqa, cheksiz ziddiyatlar va murosalar oqimida xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchi shaxsi muvozanatning zarur darajasini saqlab turish uchun tabiiy va qonuniy tarzda bir qator himoya mexanizmlarini shakllantirishi zarur hisoblanadi. Bu mexanizmlarning shakllanishiga asosiy sabab — tashvish va u ichki yoki tashqi turtkilarni yenga olmaslik hissidan kelib chiqadi deb ta'kidlashimiz mumkin. Psixologik himoya mexanizmlari aynan mana shu tashvish bilan kurashishda yordam beradi. Demak, bu yerda psixologik himoyaning ijobiy ta'siri, ya'ni xulq-atvor strategiyalari buzilishida namoyon bo'ladigan harbiy xizmatchi shaxsining psixik o'zi o'zi boshqaruvini yanada takomillashuvi loimligi haqida so'z bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixoanalizning shaxs nazariyasi va psixologik moslashuv nazariyasiga qo'shgan eng muhim hissalaridan biri bu — psixologik himoya konsepsiyasidir. A. Freyd psixologik himoyaning 15 ta mexanizmini tavsiflab bergan⁶ biroq, uning izdoshlari orasida bu mexanizmlarning aniq soni bo'yicha yakdil fikr mavjud emas [5,6] Ba'zi tadqiqotchilarning (L.R. Grebennikov, R. Plutchik, Ye.S. Romanova) fikriga ko'ra, psixologik himoya mexanizmlari barcha koping-strategiyalar (ya'ni, affektiv jarayonlar va istaklar bilan kurashish uchun rivojlangan strategiyalar)ning asosi sifatida qaraladi. Shuningdek, R. Plutchik tomonidan taklif etilgan tizimli model tarkibiga kiruvchi psixologik himoya mexanizmlaridan tashqari, izolyatsiya, harakat faolligi, introeksiya, sublimatsiya, chalg'itish kabi boshqa elementlar ham mavjudligini ta'kidlash lozim. Bu elementlar turli mualliflar tomonidan tavsiflangan bo'lsa-da, ularning aksariyati asosiy psixologik himoya mexanizmlaridan hosil bo'lgan ikkilamchi shakllar hisoblanadi.[5,5,8,9,10]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolamizda O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchi shaxsining psixologik himoya mexanizmi faoliyatining xarakteri, xizmat sharoitlari, tajriba va gender xususiyatlariga qarab qanday o'zgarishini o'rganamiz. Xususan, harbiy xizmatchilardagi psixologik himoya mexanizmlarini aniqlash maqsadida Kellermen-Plutchikning "Hayotiy strategiyalarni aniqlash" so'rovnomasi (Life Style Index, LSI) metodikasidan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tuzilmalaridagi harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyati sharoitida psixik o'zini o'zi boshqarishni samarali rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni o'rganish maqsadida qo'llanildi. Bizningcha, xizmat faoliyatiga yo'naltirilgan harbiy xizmatchi qaysi xizmat turiga taqsimlangan bo'lishidan qat'iy nazar, unda shaxsga xos psixologik xususiyatlar va harbiy xizmatchiga mos bo'lgan harbiy sifatlar shakllangan bo'lishi kerak yoxud xizmat faoliyati davomida rivojlanishi kerak zarur bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sinaluvchilarimizning harbiy xizmat faoliyati ijtimoiy jarayonlarning ajralmas qismi bo'lib, bu ularning individual-tipologik xususiyatlarini shakllanganligiga ko'ra qadriyati, axloqiy me'yori va motiviga yo'naltirilgan qarashlariga ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ta'kidlashimiz joizki, hozirgi kunga kelib, kasbiy faoliyat bilan psixik o'zini o'zi boshqarish o'rtasidagi yaqin, o'zaro bog'liqlik ko'plab tadqiqotlarda o'z aksini topganligi bilan e'tiborli hisoblanadi. Bizningcha, tashqi munosabatlarning o'zaro ta'sirlashuvi shaxsning individual-tipologik xususiyatlarida ijobiy hamda salbiy namoyon bo'lishi mumkinligi ko'zga tashlanadi. Qator tadqiqotchilar psixologik himoya mexanizmlari qanday darajada chuqur va tabiiy bo'lmasin, kasbiy faoliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari ushbu himoya mexanizmlariga ta'sir ko'rsatishi, ularning xarakterini belgilab berishi mumkinligini ta'kidlaydi.[11,12]

Shuni aytilishimiz kerakki, ba'zan emotsiyalarni yengish uchun har bir shaxsda o'ziga xos psixologik himoya mexanizmi shakllanadi. Bu mexanizmlar sof holatda alohida ishlamaydi. Shuningdek, harbiy xizmatchi, odatda, bir nechta himoya usullarining kombinatsiyasidan foydalanadi, va psixologik tahlil jarayonida mutaxassis sifatida butun himoya mexanizmini kompleks ravishda ko'rib chiqishimiz kerak bo'ladi. Tahlil davomida bir yoki ikki dominanta — ustunlik qiluvchi himoya shakli ajralib chiqadi va ular aniqlangach, shaxs turi yoki uning psixologik yo'nalishi (dispozitsiyasi)ni aniqlash imkoni tug'iladi. Jadvalga muvofiq barcha sinaluvchilarimizda (N=709) himoya mexanizmlari me'yorlashilishini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, metodikani o'tkazishda barcha qoidalarga amal qilinganligi hamda olingan natijalar birlamchi statistik tahliliga ko'ra, realikka mos kelganligini ko'rsatadi.

Kellermen-Plutchikning "Psixologik himoya mexanizmlari modeli" bo'yicha olingan natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, hayot tarzi indeksi psixologik himoya mexanizmlarini o'rganishning ahamiyati harbiy xizmatchilarda psixokorreksion va psixoterapevtik imkoniyatlarini rivojlanishi va kengayishi bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin ekan. Bizda esa harbiy xizmatchilarning shaxs xususiyatlarini tuzatish motiv va uning patogen xatti-harakat stereotiplarini aniqlashga bog'liq bo'lishi mumkin. Aynan shu farazimizni ilmiy asoslantirish maqsadida R.Plutchik modelini hatbiy xizmatchining faoliyatga moslashuvchanligiga, emotsiyalar barqarorligiga modelli yondashuvga tayangan holda muallif tomonidan ilgari surilgan sakkizta asosiy hissiy-emotsional jihatlarni o'rganishga harakat qildik. Natijada, 2.1.8-jadvaldagi natijalar qayd etilib uni quyidagicha izohlashimiz imkoniyati yuzaga keldi. Jumladan, 709 nafar (458 nafar Milliy gvardiya, 251 nafari Mudofaa) harbiy xizmatchilarda psixologik himoya mexanizmi diagnostika natijalariga ko'ra 8 ta shkala bo'yicha "Siqish" shkalasi bo'yicha MG (U=369,22; p<0.05), Mudofaa (U=329,05; p<0.05); "Regressiya" shkalasi bo'yicha MG (U=372,19; p<0.001), Mudofaa (U=323,63; p<0.001); "Inkor qilish" shkalasi bo'yicha MG (U=372,45; p<0.001), Mudofaa (U=323,16; p<0.001); "Proyektsiya" shkalasi bo'yicha MG (U=374,47; p<0.001), Mudofaa (U=319,47; p<0.001); "Kompensatsiya" shkalasi bo'yicha MG (U=373,22; p<0.001), Mudofaa (U=321,76; p<0.001); "Giperkompensatsiya" shkalasi bo'yicha MG (U=369,72; p<0.05), Mudofaa (U=328,15; p<0.05); "Ratsionalizatsiya" shkalasi bo'yicha MG (U=373,40; p<0.001), Mudofaa (U=321,43; p<0.001).

Psixologik himoya mexanizmlari diagnostikasi (Kellermen-Plutchik) metodikasining tashkilot turi bo'yicha tafovutlari (N-709)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
	Milliy gvardiya (N-458)	Mudofaa (N-251)	Mann Uitni U mezon	p (ishonch darajasi)
Siqish	369,22	329,05	50965	0,012*
Regressiya	372,19	323,63	49604	0,002**
Almashtirish	359,85	346,15	55257	0,393
Inkor qilish	372,45	323,16	49488	0,002**
Proyektsiya	374,47	319,47	48562	0,001**
Kompensatsiya	373,22	321,76	49135	0,001**
Giperkompensatsiya	369,72	328,15	50738,5	0,010*
Ratsionalizatsiya	373,40	321,43	49053,5	0,001**

Izoh: p<0.001**, p<0.05*

"Proyektsiya" MG tizimida xizmat faoiyatini olib borayotgan harbiy xizmatchilarda yuqori (U=374,47) ko'rsatkich, mudofaa tizimida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilarda esa (U=319,47) past natija kuzatildi. Sababi, xizmat faoliyatining ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, tashqi ta'sirlar natijasida xatti-harakatlarni o'zgarishi bevosita harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida ichki o'zini o'zi boshqarishda psixikani himoya



qilishga qaratish kuchliroq bo'lib, birxillikdan ko'ra "yumshoq" ta'sirga ega. Xususan, jamoat tartibini saqlashda fuqarolar bilan bo'ladigan muloqot mudofaa talabidan farqli ravishda erkin, turli toifadagi shaxslar bilan kechadi. Mudofaada tizimidagi yuqori natija munosabatlar boshliq va bo'ysunuvchi talabi doirasida amal qilishi, munosabatdagi "monotonli", bir xillikni barqaror ekanligi bilan izohlanadi. Ma'lumki, shaxsga xos xulq-atvor, individual xususiyat jumladan, xarakter tashqi ta'sirga bog'liq, o'zgarish va takomillashishga xos. Bixevioristlarga ko'ra, ularni tajribalariga asosan, har qanday xulqni o'zgarishi uchun berilgan tanbeh uning kelajakdagi ijobiy xulqni shakllantirishiga xizmat qilishi kerak. (2.1.8-jadvalga qarang)

"Giperkompensatsiya" MG tizimida xizmat faoiyatini olib borayotgan harbiy xizmatchilarda yuqori (U=369,72) ko'rsatkich, mudofaa tizimida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilarda esa (U=328,15) past natija kuzatildi. Sababi, olingan natijalarimiz bo'yicha, yosh toifalari ham aynan ushbu ko'rsatkichlarda katta ahamiyatga ega bo'lib, yosh harbiy xizmatchilar uchun xavotirdan, ya'ni ziddiyatli vaziyatlardan, ma'suliyatdan qochish eng qulay yo'l hisoblanadi. Biroq, bunday holatda siqib chiqarilgan fikrlar va impulsar ong ostida faolligini yo'qotmaydi va ularni qayta-qayta esga olishni oldini olish uchun doimiy ravishda sinaluvchilarimizni psixikasi energiya sarf qilishiga tog'ri kelishini kuzatishimiz mumkin. [14] Biroq, shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, qancha ko'p ma'lumot ong ostiga siqib chiqarilsa, shaxs, shu jumladan, harbiylarimiz o'zligini yoqotishini, hayot yo'lini anglashda qiyinchiliklarga duch kelishini va ohir-oqibatda frustratsiya holatiga tushishini kuzatishimiz mumkin. Bu esa, shubhasiz, o'z navbatda, ijodiy faoliyat uchun, hayotdagi zavqli onlar uchun energiyani sarflash imkoniyatini keskin cheklaydi. Albatta, psixikamiz bevosita sog'lig'imizga ta'sir etgani tufayli, siqib chiqarilgan fikrlarni o'rni to'ldirish uchun organizmimiz stress holatiga kelib, o'zi bilan birga turli xil nevroitik xulq-atvor shakllarini (manmanlik, betakalluflik, spirtli ichimliklar), psixosomatik kasalliklar (uyqusizlik, nevroitik bosh og'riqlari, bezovta)ni ham olib keladi. Shu sababli yuqori jismoniy va psixik yuklamalar vaqtida yosh harbiylarda ruhiy-asab faoliyatida ko'proq va jiddiy buzilishlar kuzatilishini tahmin qilishimiz mumkin. Yana bir jihatni aytib o'tish zururki, psixologik himoya mexanizmi sifatida giperkomsensatsiya qo'llanilganda, jismonan va psixologik zaif harbiylar ba'zan ulardan ko'ra tashabbusko'r, ishchan, resurslarga boy xizmatdoshlariga nisbatan yashirin yoki oshkora agressiyani namoyon qilishlari mumkin. Va shu agressiyani giperkompensatsiya qilgan holda ular mayda qonunbuzarlik yoki intizomga rioya qilmaslik orqali o'z ehtiyojlarini qondirishga urinadilar, shu bilan birga ular psixik o'zini o'zi boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishini korishimiz mumkin. Ushbu psixologik himoya mexanizmining ustunligi yosh toifadagi harbiylarda stressga nisbatan zaifligi bilan bog'liq bo'lib, bu stresslar keskin ijtimoiy, siyosiy, va texnologik o'zgarishlar bilan birga keladi. Bunday o'zgarishlar noaniqlik, xavotir va dunyo bilan uzilish hissining paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Harbiy xizmat faoliyatini olib borayotgan harbiy xizmatchilar "Ratsionalizatsiya" MG (U=373,40), Mudofaa (U=321,43), "Kompensatsiya" MG (U=373,22), Mudofaa (U=321,76), «Inkor qilish» MG (U=372,45; $p<0.001$), Mudofaa (U=323,16; $p<0.001$) kabi psixologik himoya mexanizmlaridan ko'proq foydalanishlarini o'z tadqiqotimiz natijalarida aks etgan. Ya'ni, harbiylar noratsional qaror, harakat, his-tuyg'u, g'oya va boshqalarga mantiqiy bog'liq va axloqan maqbul tushuntirish berishga, taktik fikrlashga intilishadi. Bunda o'zini oqlovchi "argument" sifatida jamiyat uchun qadrlil, mentalitetimizga xos bo'lgan ijtimoiy normalar, ustanovkalar va maqsadlar "ideal" tarzda ishlatiladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchi o'zini hurmat qilishini saqlab qoladi, chunki uning "Men" konsepsiyasi pasayish xavfi ostida bo'ladi. Ratsionalizatsiya mexanizmi esa, ba'zan harbiylarning xulq-atvorini qat'iy «qonun-qoidalar» asosida yashashga, faoliyat olib borishga yo'naltiradi.

"Almashtirish" shkalasi bo'yicha MG (U=359,85; $p>0.05$) va Mudofa (U=346,15; $p>0.05$) ishonchli natijalar qayd etilmadi. Sababi, harbiy xizmatchilarda xizmat faoliyatidagi o'zgarishlarga nisbatan sovuqqonlik, "ratsiya"larga nisbatan "immunitet" shakllanganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Psixologik himoya muammosini tahlil qilish aynan harbiy sohaga oid tadqiqotlarda yondashuvlarning nihoyatda xilma-xilligi va farqliligini, berilgan ta'riflar, ularning umumiy ruhiy tuzilmadagi o'rni va ahamiyati, individual xususiyatlar va tarkibiy komponentlar bilan o'zaro aloqasi mavjudligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotimizda ishtirok etgan harbiylarning natijalaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, xizmat faoliyatida katta muvaffaqiyatga erisha olmaslik holatlarida, boshqa sohalarda muvaffaqiyat qozonishga intilishlari, bu esa ularning hayotiga ijodiy yondashuv va professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga yordam berishini bilan izohlashimiz mumkin. Shu bilan birga, ko'pincha kazusli voqealar sodir bo'lganini tan olishdan bosh tortadilar, bu esa ularning egosining moslashuvchanligi va kuchini cheklaydi.¹ Bu esa shaxsda egotsentrizm, ta'sirchanlik, ko'rsatkichlik, o'ziga ishonch, maqtanish, hissiy xulq, tanqidga nisbatan befarqlik, yolg'onchilik, simulyatsiyaga moyillik, axloqiy jamlamaning rivojlanmasligi kabi xususiyatlarda o'z ifodasini topadi, bu esa albatta, harbiy sharoitda moslashuvchanlikning buzilishiga olib kelishi mumkin.

¹ Савенко Ю.С. Проблема психологических механизмов и их типология // Самосознание и защитные механизмы личности: хрестоматия. Самара: Изд. дом «Бахрах-М», 2003. С. 622–639.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абрамова Г. С. Практическая психология: учебник для студентов вузов / Г. С. Абрамова. – М.: «Академический Проект», 2001. – 112 б.
2. Бассин Ф.В. О силе «Я» и психологической защите. Самосознание и защитные механизмы личности: хрестоматия / Ф. В. Бассин. – Самара, 2000. – 312 б.
3. Фрейд А. Эго и механизмы защиты / А. Фрейд. – М., 2003. – 159 б.
4. Грановская Р. М. Психологическая защита / Р. М. Грановская. – СПб.: изд. «Речь», 2007. – 125 б.
5. Журбин В.И. Понятие психологической защиты в концепциях З.Фрейда и К.Роджерса // Вопросы психологии. 1990. № 4. 14–23б.
6. Фрейд А. Защитные механизмы // Самосознание и защитные механизмы личности: хрестоматия. Самара: Изд. дом «Бахрах-М», 2003. 339–347б.
7. Менинжер В., Лиф М. Психические механизмы // Самосознание и защитные механизмы личности: хрестоматия. Самара: Изд. дом «Бахрах-М», 2003. 509–526 б.
8. Романова Е.С., Гребенников Л.Р. Механизмы психологической защиты. Генезис. Функционирование. Диагностика. Мытищи, 1996. 139 б.
9. Савенко Ю.С. Проблема психологических механизмов и их типология // Самосознание и защитные механизмы личности: хрестоматия. Самара: Изд. дом «Бахрах-М», 2003. 622–639 б.
10. Тарт Г. Механизмы защиты // Самосознание и защитные механизмы личности: хрестоматия. Самара: Изд. дом «Бахрах-М», 2003. 482–506 б.
11. О.Ю.Сальникова 19.00.06 – юридическая психология. Автореферат «Психологические особенности возникновения посттравматических стрессовых состояний у сотрудников уголовно-исполнительной системы в различных условиях служебной деятельности», Рязань 2010г.
12. Л.Ю. Субботина 19.00.03 - психология труда, инженерная психология, эргономика по психологическим наукам. Автореферат «Структурно-функциональная организация психологической защиты личности», Ярославль 2006г.
13. Василюк Ф.Е. Процесс переживания // Самосознание и защитные механизмы личности: хрестоматия. Самара: Изд. дом «Бахрах-М», 2003. 309–329б.



NAMANGAN OILALARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TAVSIFI

Turg'unboyeva Azizaxon G'ulomovna

Namangan davlat pedagogika instituti
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada Namangan oilalaridagi shaxslararo munosabatlarning turlari, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va amalda uchraydigan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida oila a'zolari o'rtasidagi kommunikatsiya, hissiy yaqinlik va ijtimoiy rollar tizimi ham o'rganilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlarining oila ichki munosabatlariga ta'siri hamda an'anaviy va zamonaviy tendensiyalar o'rtasidagi muvozanat yoritilgan. Shu asosda, oilaviy munosabatlarni yanada yaxshilash, ziddiyatlarni kamaytirish va barqaror psixologik muhitni shakllantirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: milliy xarakter, milliy o'zlik, etnopsixologiya, gender, oila, hudud, tajriba, qiyofa, ota-ona va farzand, tarbiya, ong, shaxs, mazmun, munosabat.

Abstract: This article analyzes the types of interpersonal relations in Namangan families, their socio-psychological characteristics, influencing factors, and existing challenges. The study explores family communication, emotional closeness, and the system of social roles among family members. Particular attention is given to the impact of national values on family dynamics and the balance between traditional and modern tendencies. Based on the findings, specific proposals and recommendations are provided to improve family relations, reduce conflicts, and promote a stable psychological environment.

Key words: national character, national identity, ethnopsychology, gender, family, region, experience, image, parents and children, upbringing, consciousness, personality, content, relations.

Аннотация: В данной статье анализируются типы межличностных отношений в намаганских семьях, их социально-психологические особенности, факторы формирования и существующие проблемы. В ходе исследования были изучены особенности коммуникации между членами семьи, уровень эмоциональной близости и система социальных ролей. Особое внимание уделено влиянию национальных ценностей на внутрисемейные отношения, а также балансу между традиционными и современными тенденциями. На этой основе предложены конкретные рекомендации по улучшению семейных отношений, снижению конфликтности и формированию устойчивой психологической среды.

Ключевые слова: национальный характер, национальная идентичность, этнопсихология, гендер, семья, регион, опыт, образ, родители и дети, воспитание, сознание, личность, содержание, отношения.

KIRISH

Har bir jamiyatning barqarorligi va rivoji oila institutining mustahkamligiga bog'liq. Oila ichidagi shaxslararo munosabatlar nafaqat shaxsning ruhiy holati, balki uning ijtimoiy faolligi, qadriyatlarga munosabati va kelajakdagi shaxsiy qarorlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, an'anaviy oilaviy munosabatlar ustuvor bo'lgan Namangan viloyatida shaxslararo muloqot, rollar taqsimoti va o'z'aro insoniy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

SHaxslararo munosabatlar psixologiyasi — shaxsning boshqalar bilan o'zaro ta'sir jarayonidagi emotsional, ijtimoiy va kommunikativ xususiyatlarini o'rganadigan sohadir. Bu munosabatlar mazmuni oiladagi har bir a'zoning ijtimoiy roli, shaxsiy ehtiyojlari va tarbiya sababli shakllangan intilishlari bilan bog'liq.

Namangan viloyatidagi oilalarda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik tavsifini o'rganish orqali biz etnopsixologik omillar, urf-odatlar, gender rollari va milliy qadriyatlarning qanday shaklda insonlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Shuningdek, bu munosabatlarda uchrayotgan ziddiyatlar, muloqotdagi cheklovlar va shaxsiy pozitsiya zaifligi kabi muammolarni ochib berish ham maqsad qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shaxslararo munosabatlar – bu real hayotda o'zaro fikrlovchi va his etuvchi insonlar muloqotlarida jamlanuvchi munosabatlardir. Muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir etish natijasida ro'y beradigan ijtimoiy psixologik hodisadir. Shaxslararo munosabatlar – insonlarning o'zaro ichki kechinmalariga bog'liq bo'lib, xarakterlarida tashqi namoyon bo'luvchi shaxslararo o'zaro ta'sirning usullari, insonlarning birgalikdagi faoliyatlari va muloqotlari jarayonida bir-birlariga o'tkazadigan o'zaro ta'sirlaridir.

Shaxslararo munosabatlar – bu ustanovkalar tizimi bo'lib, bu guruh a'zolarining bir-biriga ishonch va umidlari tashkiliy va mazmuniy birgalikdagi hayotiy munosabatlari ya'ni, insonlarning muloqotiga asoslangan qadriyatlar va birgalikdagi faoliyatlari. Shaxslararo munosabatlar tabiati ijtimoiy munosabatlar tabiatidan tub mohiyati bilan farq qiladi. Shaxslararo munosabatlarda muomalaning inson psixik dunyosiga ta'siri masalalarini psixolog olimlardan L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Anan'ev, A.V.Zaporojets, A.A.Bodalev, B.F.Lomov, M.I.Lisina, G.M.Andreyeva, B.D.Parigin, N.N.Obozov, V.M.Myasishchev va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O'zbekistonlik psixologlardan E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova, B.M.Umarov, N.A.Sog'inov kabi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda oiladagi, turli ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning namoyon bo'lish xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi omillar masalasi o'rganilgan.

Bugungi kundagi o'rganishlar natijasi va kuzatuvlarga ko'ra etnopsixologik sohadagi tadqiqotlar ko'plab yo'nalishlarda olib borilayotganini aniqlandi. Inson ruhiyati bilan bog'liq sohalarning deyarli barcha jihatlarini doimiy ilmiy nazorat ostidadir. Soha olimlarining tadqiqotlarida aytilishicha samarali izlanish olib borish uchun ijtimoiy-psixologik muammolarni boshqa fanlar bilan birga kompleks o'rganmoq zarur. Kompleks metod orqali tadqiqotning nafaqat ilmiyligi oshadi, balki u o'rganilayotgan ob'ektning turli nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. [3,...32 b]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Namangan viloyatining tumanlari va shaharda yashovchi oilalar misolida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqotda quyidagi maqsad va vazifalar asosida empirik ma'lumotlar to'plandi. Bundan maqsad hudud oilalaridagi shaxslararo munosabatlardagi mavjud tendentsiyalar, ularga ta'sir etuvchi omillar, rollar tizimi va muloqot xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

a) So'rovnoma usuli:

– Tadqiqot muallifi tomonidan tuzilgan "Oiladagi shaxslararo munosabatlar" so'rovnoma. Unda muloqot darajasi, shaxsiy pozitsiya, emotsional yaqinlik va konfliktlar haqidagi savollar joy olgan.

b) V.V.Boykoning "Empatiya darajasini tashxis qilish" metodikasi:

– Shaxsning ichki hissiy holati, o'zini qanday idrok etishi va munosabatlardagi g'amxo'rlik, qayg'udoshlik darajasini baholash uchun.

v) .Yarimstrukturalashgan intervyu:

– 50 nafar ishtirokchi bilan yuzma-yuz suhbat o'tkazilib, oiladagi munosabatlar, o'zaro hurmat, empatiya, qadriyatlar va ziddiyatlar haqida to'g'ridan-to'g'ri fikrlar to'plandi.

Tahlil va natijalar

Shaxslararo munosabatlarning samaradorligi uning sub'ektlari tomonidan boshqalarga nisbatan ifodalanadigan empativ qobiliyat va uning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Empatiya - bu murakkab, ko'pqirrali fenomen bo'lib, uning tarkibiga emotsional,

kognitiv va xulqiy ko'nikma, malaka va qobiliyatlar kiradi. Empatiya tarkibiga kiruvchi emotsional, kognitiv, xulqiy komponentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir (garmonik-disgarmonik) kishining odamlar bilan bo'lgan ijtimoiy-psixologik munosabatlari va muloqot tajribasi bilan belgilanadi. Konkret shaxs empatiyani o'zgalar harakatlariga javob reaksiyalarida yoki empatiya ob'ekti holati bilan ro'y bergan refleksiya qilingan kechinmalarda yoki o'zaro munosabatlarga kirishish imkonini beruvchi malaka va ko'nikmalarda namoyon qiladi [4,...22 b]

Buning uchun ota-onalar va farzandlarning empatiyasini o'rganishda V.V.Boykoning "Empatiya darajasini tashxis qilish" metodikasidan foydalanildi.



Ota-onalar va farzandlardagi empatiya darajasini baholash

Ota-onalarning empatiyaga qobiliyatligi	Farzandlarning empatiyaga moyillik natijalari					
	Empatiyaning ratsional kanali	Empatiyaning emotsional kanali	Empatiyaning intuitiv kanali	Empatiyani qo'llovchi ustanovklar	Empatiyadagi kirishimlilik qobiliyati	Empatiyadagi identifikatsiya
Empatiyaning ratsional kanali	0.451**	0.277*	0.378*	0.461**	0.245*	0.323*
Empatiyaning emotsional kanali	0.228	0.199	0.211	0.164	0.162	0.162
Empatiyaning intuitiv kanali	0.613**	0.208	0.456*	0.361	0.227	0.245*
Empatiyani qo'llovchi ustanovkalar	0.425**	0.327*	0.406**	0.541**	0.268*	0.271*
Empatiyadagi kirishimlilik qobiliyati	0.177	0.242*	0.301*	0.158	0.147	0.207
Empatiyadagi identifikatsiya	0.266*	0.174	0.278*	0.243	0.219	0.283*

Tadqiqot davomida olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanidagi oilalar a'zolarida empativlik tarkibiga kirgan xususiyatlarining rivojlanish darajasi o'rtasida farq kuzatiladi. Metodika ota-onalarga va ularning farzandlari uchun mo'ljallanib tatbiq etildi.

Biz tadqiqotdan olingan natijalarni ota-onalar va farzandlardagi empatiyaga qobiliyatlik orasidagi ichki qonuniyatlarni aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlilga tayanishni lozim topdik. Oilaviy munosabatlar sharoitida ota-onalar bilan farzandlar orasidagi munosabat ularning atrof-olamga, voqea-hodisalarga munosabatida qanday bog'lanish hosil qila olganligi aniqlandi. Ijtimoiy-pertsepsiyani tavsifiga ko'ra hamda shaxsning emotsional holati, uning tuyg'u va kechinmalari atrof-olamni idrok etish, u bilan birga o'zini his eta olishi, atrofda kishilarning tuyg'ularini o'zida kechirishi, ularning ruhiyatidagini o'zida aks ettira olishi va bular orqali ularga murojaat etish shubhasiz empatiyaning mazmunida aks etadi. Tadqiqotning mazkur bosqichida viloyatning Yangiqo'rg'on tumani 60 ta va Chortoq tumani qishlog'idan 60 ta oilalar ishtirok etdilar.

Empatiyaning ratsional kanali, ya'ni kishining e'tiborini, tafakkurini, o'zga kishining holati, muammolari va xulqini tushunishga qanchalar moyilligini aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlar Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlari aholisida farq mavjud.

Empatiyaning emotsional kanali bo'yicha ko'rsatkichlar shaxsning atrofida gilarini hissiy qabul qilishi, ularning kechinma va tuyg'ularini his etishi va dardiga sherik bo'lishi, qo'llab-quvvatlash qobiliyati aks etadi. Aniqlangan ma'lumotlar Yangiqo'rg'on tumani aholisida (3,52) Chortoq tumani aholisiga (2,72) nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Mazkur holat ularda boshqalarga nisbatan xayrixohlik, mehribonlik va ko'ngilchanlik sifatleri ustunligi bilan determinatsiyalanishi mumkin.

Empatiyaning intuitiv kanali, ya'ni insonning o'z sherigini xulq-atvori va xatti-harakatlarini bashorat qilish qobiliyati bo'yicha ko'rsatkichlar har ikki tuman ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farqlar aniqlanmadi.

Empatiyani qo'zg'atuvchi yoki susaytiruvchi ustanovkalarni aks ettiradigan shkala inson boshqalardan o'zini olib qochishi, odamlar bilan suhbatlashishdan o'zini chetga olsa va ularga bee'tibor bo'lsa, boshqalarning muammolariga befarq qarashi, empatiya samaradorligining pasayishini aks ettiradi. Mazkur shkala bo'yicha natijalarning qiyosiy tahlili ularda farq mavjudligidan dalolat beradi.

Empatiya holatiga kirishish qobiliyati inson uchun muhim bo'lib, uning kommunikativ xususiyatlari odamlarda erkinlik, ishonuvchanlik va mehr hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu shkala bo'yicha har ikki tuman aholisi vakillarida bir xil ustunlik mavjudligini ko'rsatadi.

Identifikatsiyalash – empatiyaning muhim sharti hisoblanib, u insonni o'zga kishilarning dardini o'zida kechirish va ularga hammad bo'lish qobiliyatini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich bo'yicha natijalar har ikki tumanda istiqomat qiluvchi ota-onalarda farzandlarga nisbatan ustunligi ma'lum bo'ldi. Mazkur holat yoshga xos xususiyatlar u yoki bu jihatdan shaxsning empativlik darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatishidan dalolat beradi. [4,...82 b]

Tadqiqotimizda ota-onalarning empatiyaga qobiliyati bilan farzandlari munosabatlari o'rtasida yigirmaga yaqin ishonchlik korrelyatsion bog'lanishlar mavjudligi kuzatildi. Ota-onalarning empatiyaga moyillik ko'rsatkichlari "ota-onaga empatiya" shkalasi farzandlarning barcha shkalalari bilan ijobiy bog'lanish hosil qila olgan. Bundan ko'rinadiki, ota-onalar farzandlariga pand-o'g'it berayotganlarida birinchi o'rinda diqqat-e'tiborlarini inson qadr-qimmatini, atrofdagilarga hurmat tuyg'usi, insonlar boshiga muammolar tushganda yordam berish, ularni yaxshi tushunish va dardlariga sherik bo'lishni e'tirof etar ekanlar. Chunki milliy va madaniy an'analarimizda ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, "Kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ko'zi bilan qarash kerak"-degan naql doimo uqtirib kelinadi.

Ammo, empatiyani o'rganish natijalari ota-ona munosabatlarini farzand ijtimoiy pertseptsiyasiga ta'siri uchun amaliy harakatlar muhimligini taqozo etdi.

Demak, bugungi kunda farzand nazorati ota-onalar tomonidan ancha kuchli yo'lga qo'yilishi lozim hamda bolalarining qiziqishlariga ham e'tibor berishlari muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etiladi. [4,...122 b]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikalarini mahorat bilan o'z o'rnida foydalanish tadqiqotlarning samaradorligini yanada oshiradi va jamoadagi psixologik muhitga aniq tashhis qo'yish imkonini beradi.

Ota onalarning o'z farzandlariga munosabati bu bolalarga nisbatan o'rnatiladigan pedagogik ijtimoiy ustanovka bo'lib, o'z ichiga ratsional emotsional va xulq-atvor komponentlarini oladi.

Oiladagi shaxslararo munosabatlar, jumladan ota-ona va farzand munosabatlari ko'p jihatdan ota-onaning pedagogik-psixologik bilimdonligi, bolalar xulq-atvorini to'g'ri nazorat qilishi, oiladagi psixologik muhitning yoqimlili, ota-onaning shaxsiy namunasi kabi omillar ta'siriga bog'liq.

Empatiya tarkibiga kiruvchi emotsional, kognitiv, xulqiy komponentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir (garmonik-disgarmonik) kishining odamlar bilan bo'lgan ijtimoiy-psixologik munosabatlari va muloqot tajribasi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SHoumarov G'.B., Rasulova Z.A. Yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar //Oila barqarorligi: muammolar, tajribalar, istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami– Toshkent,2012.–B.116- 118.
2. Akramova F.A. va boshqalar. Oila entsiklopediyasi. – T: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 240 b.
3. Shoumarov G'.B., Turgunboeva A.G. va boshqalar.. Oila psixologiyasi. – Toshkent 2022. O'quv qo'llanma, -37-41 b.
4. Ijtimoiy munosabatlar etnopsixologiyasi: Monografiya /A.Turg'unboyeva. – "Namangan nashriyoti", 2025. – 80- 98 b.
5. Qayumov, B. Z. (2025). O'smirlarda kreativlik namoyon bo'lishining hududiy tafovutlari. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(6).
6. Oila entsiklopediyasi. Tuzuvchilar: F.A.Akramova, Z.Bilolova, I.Jovliev. – T: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 240 b.
7. Baxtiyor, Q. (2024). Creativity as a research subject in psychological research. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(07), 76-80.



PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI KASBIY FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Berdiyeva Raxima Shakarboyevna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining kasbiy faoliyatida psixologik barqarorlikni rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Psixologik barqarorlik tushunchasi shaxsning stressli vaziyatlarda o'zini boshqarish, emotsional muvozanatni saqlash, qaror qabul qilishda qat'iyatlilik va ijtimoiy munosabatlarda moslashuvchanlik qobiliyatini anglatadi. Tadqiqotda inspektorlarning kasbiy stress omillari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi, motivatsion determinantlari va emotsional intellekti ularning psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, trening dasturlari, psixoprofilaktik mashg'ulotlar va ijobiy psixologik muhitni shakllantirish barqarorlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlari sifatida tavsiya etiladi. Ushbu maqola profilaktika inspektorlarining professional faoliyat samaradorligini oshirishda va ularni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: profilaktika inspektorlari, kasbiy faoliyat, psixologik barqarorlik, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar, stressga chidamlilik, emotsional intellekt, motivatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kasbiy samaradorlik, psixoprofilaktika.

Abstract: This article addresses the issue of developing psychological resilience in the professional activities of prevention inspectors. Psychological resilience is defined as the individual's ability to manage themselves in stressful situations, maintain emotional balance, demonstrate decisiveness in decision-making, and remain flexible in social interactions. The study scientifically substantiates that occupational stress factors, the level of social support, motivational determinants, and emotional intelligence directly influence inspectors' psychological resilience. Furthermore, training programs, psycho-preventive sessions, and the establishment of a positive socio-psychological climate are recommended as effective mechanisms for strengthening resilience. This article is of practical importance for improving the effectiveness of prevention inspectors' professional activities and enhancing the system of their psychological support.

Key words: prevention inspectors, professional activity, psychological resilience, socio-psychological mechanisms, stress resilience, emotional intelligence, motivation, social support, professional efficiency, psychoprevention.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема развития психологической устойчивости в профессиональной деятельности инспекторов профилактики. Психологическая устойчивость понимается как способность личности управлять собой в стрессовых ситуациях, сохранять эмоциональное равновесие, проявлять решительность в принятии решений и гибкость в социальных взаимодействиях. В исследовании научно обосновано, что профессиональные стресс-факторы, уровень социальной поддержки, мотивационные детерминанты и эмоциональный интеллект напрямую влияют на психологическую устойчивость инспекторов. Кроме того, в качестве эффективных механизмов развития устойчивости предлагаются тренинговые программы, психопрофилактические занятия и формирование позитивного социально-психологического климата. Данная статья имеет практическое значение для повышения эффективности профессиональной деятельности инспекторов профилактики и совершенствования системы их психологической поддержки.

Ключевые слова: инспекторы профилактики, профессиональная деятельность, психологическая устойчивость, социально-психологические механизмы, стрессоустойчивость, эмоциональный интеллект, мотивация, социальная поддержка, профессиональная эффективность, психопрофилактика.

KIRISH

Profilaktika inspektorlari kasbiy faoliyati zamonaviy ijtimoiy psixologik sharoitlarda nihoyatda murakkab va mas'uliyatli faoliyat turi sifatida talqin qilinadi. Ularning kundalik amaliyotida ijtimoiy munosabatlar tizimi, shaxslararo muloqot jarayonlari hamda stressogen vaziyatlar doimiy ravishda namoyon bo'lib turadi. Psixologik barqarorlik ushbu kasb egalari uchun professional faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shaxsning barqaror emotsional holati, affektiv reaksiyalarni nazorat qilish qobiliyati va kognitiv jarayonlarni muvozanatli boshqarish ularning kasbiy moslashuvchanligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Profilaktika inspektorlari turli xil ijtimoiy ziddiyatlar, konflikt vaziyatlari va xavfli ijtimoiy muhit bilan muntazam yuzma-yuz keladi. Bunday vaziyatlarda shaxsiy va kasbiy psixologik barqarorlik ularning qaror qabul qilish samaradorligini ta'minlaydi. Psixologiyada barqarorlik tushunchasi shaxsning stressga chidamliligi, frustratsiyaga bardoshliligi va ichki resurslarni safarbar qila olish qobiliyatini qamrab oladi. Shu jihatdan profilaktika inspektorlarining ruhiy barqarorligi ularning ijtimoiy psixologik moslashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Psixologik barqarorlik shaxsning ijtimoiy roli va kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ushbu masala zamonaviy psixologik tadqiqotlarda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Psixologik barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilishda ijtimoiy-psixologik, kognitiv va affektiv yondashuvlarning integratsiyasi zarurdir. Shaxsning stressni boshqarish qobiliyati, ichki psixik resurslaridan oqilona foydalanishi va ijobiy motivatsion tizimga ega bo'lishi kasbiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Profilaktika inspektorlari o'z kasbiy faoliyatida ko'plab psixogen omillar, xavfli vaziyatlar va yuqori darajadagi mas'uliyat bilan to'qnash keladi. Bunday sharoitlarda adaptatsion mexanizmlarni shakllantirish va ularni samarali qo'llash kasbiy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichidir. Kognitiv nazariyalar asosida qaralganda, ularning tafakkur jarayonlari, qaror qabul qilish tezligi va muqobil variantlarni baholash qobiliyati mustahkam ruhiy asoslarni talab etadi. Ijtimoiy-psixologik yondashuv esa shaxsning jamoa bilan hamkorlik darajasi, muloqot kompetensiyasi va konfliktni konstruktiv hal qilish qobiliyatini barqarorlik indikatorlari sifatida ko'rsatadi. Psixodinamik nuqtai nazar esa ichki qarama-qarshiliklarni boshqarish, emotsional regulatsiya va shaxsiy ehtiyojlarni nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Bularning barchasi kasbiy faoliyatning sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, profilaktika inspektorlari uchun psixologik barqarorlikni ilmiy asoslangan usullar orqali shakllantirish ijtimoiy amaliyotda zaruriy ehtiyojdir.

Zamonaviy psixologik adabiyotlarda psixologik barqarorlik tushunchasi ko'proq stressga chidamlilik, rezilientlik va ijtimoiy moslashuvchanlik bilan izohlanadi. Rezilientlik — shaxsning murakkab vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyati bo'lib, u ichki resurslardan foydalanish, ijobiy fikrlash va motivatsiyani saqlash orqali amalga oshiriladi. Profilaktika inspektorlari kasbiy faoliyatida rezilientlik yuqori darajada ahamiyat kasb etadi, chunki ular ko'pincha ijtimoiy xavfli muhitda, keskinlik va tahdidlar mavjud bo'lgan sharoitda ishlashadi. Shaxsning emotsional intellekti, o'z-o'zini anglash qobiliyati va refleksiya jarayonlari barqarorlikni shakllantirishda muhim komponent sifatida qaraladi. Emotsional intellekt shaxsga o'z va boshqalar his-tuyg'ularini anglash, baholash hamda samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Refleksiya esa shaxsning o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusida to'g'ri strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Shu jihatdan, psixologik barqarorlik kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Bunday xususiyatlar kasbga oid stresslarning salbiy oqibatlarini kamaytiradi. Natijada, profilaktika inspektorining faoliyati barqaror, tizimli va samarali bo'lishi mumkin.

Profilaktika inspektorlarining psixologik barqarorligini rivojlantirish faqat individual darajada emas, balki tizimli va institutsional darajada ham qo'llab-quvvatlanishi zarur. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida maxsus psixologik treninglar, stressni boshqarish dasturlari va kommunikativ kompetensiyani oshirish mashg'ulotlari muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi, kasbiy motivatsiya va tashkiliy muhitning barqarorligi ham psixologik barqarorlikni shakllantiruvchi asosiy tashqi omillar sifatida qaraladi. Psixologik xizmatlarning samarali faoliyati, psixoprofilaktik tadbirlarning muntazam o'tkazilishi va shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan dasturlarni joriy etish ushbu jarayonni takomillashtiradi. Profilaktika inspektorlarining ijtimoiy-psixologik salomatligini qo'llab-quvvatlash ularning kasbiy samaradorligini oshiradi va xizmat vazifalarini yanada sifatli bajarishga yordam beradi. Psixologik barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlarini tizimli asosda tadqiq qilish profilaktika sohasida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaraladi. Shu ma'noda, ushbu mavzuning ilmiy jihatdan o'rganilishi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Natijada, profilaktika inspektorlarining psixologik tayyorgarligi va kasbiy samaradorligi zamonaviy jamiyat uchun strategik dolzarblik kasb etadi.

O'zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda profilaktika inspektorlari faoliyatida psixologik barqarorlikning ahamiyati ko'p jihatdan ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog'liq holda o'rganilgan. Xususan, O'zbekiston psixologiya maktabining vakillari shaxsning emotsional barqarorligi, stressga chidamlilik va ijtimoiy moslashuvchanlikni kasbiy kompetensiyaning ajralmas komponentlari sifatida tahlil qiladilar. Olimlar ta'kidlashicha, profilaktika inspektorlarida uchraydigan psixik zo'riqish holatlari ularning faoliyat samaradorligiga



salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shu bois stressni boshqarish texnologiyalari, kognitiv-emotsional regulatsiya usullari va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish zarurdir. Mahalliy tadqiqotlarda shuningdek, psixoprofilaktik yondashuvlar, psixologik treninglar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari psixologik barqarorlikni mustahkamlashning samarali vositalari sifatida qayd etilgan. O'zbek mutaxassislarining ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, profilaktika inspektorlarining psixologik barqarorligi nafaqat individual omillarga, balki ijtimoiy-psixologik va tashkiliy sharoitlarga ham bevosita bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rus olimlari ilmiy merosida psixologik barqarorlik masalasi ko'proq shaxsiy resurslar nazariyasi va stressni boshqarish mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan. Masalan, L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev va ularning izdoshlari insonning faoliyat jarayonida emotsional va kognitiv jarayonlar uyg'unligini kasbiy moslashuvchanlikning asosiy omili sifatida ko'rsatadilar. Ularning fikriga ko'ra, profilaktika faoliyati yuqori darajadagi emotsional kuchlanish, konfliktli muloqot va xavfli vaziyatlarda qaror qabul qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga olgan bois, shaxsning ichki resurslari maksimal darajada safarbar qilinishi lozim. Rus psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan reziliyentlik nazariyalari shuni ko'rsatadiki, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi, maqsadga intilishi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari uning barqarorligini oshiradi. Shuningdek, sovet va zamonaviy rus psixologiyasida stressni yengib o'tish strategiyalari (koping strategiyalar), emotsional regulatsiya usullari va psixologik himoya mexanizmlarining kasbiy faoliyatda tutgan o'rni alohida ta'kidlangan. Bu qarashlar profilaktika inspektorlari uchun kasbiy tayyorgarlik va psixologik xizmatlarni samarali tashkil etishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa psixologik barqarorlik asosan "resilience" konsepsiyasi orqali izohlanadi va u insonning stressga qarshi turish qobiliyatini aniqlovchi kompleks psixologik tizim sifatida qaratiladi. Masalan, A. Bandura, M. Seligman, C. Peterson kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ijobiy psixologiya yondashuvlari shaxsning optimizm darajasi, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning psixologik barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini ko'rsatadi. G'arb psixologiyasida shuningdek, emotsional intellekt, refleksiya qobiliyati va mindfulness texnologiyalarining kasbiy faoliyatdagi samaradorlikka ta'siri keng o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, profilaktika inspektorlari faoliyatida psixologik barqarorlikni oshirish uchun stressni boshqarish dasturlari, kognitiv-behavioral terapiya usullari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini rivojlantirish juda muhimdir. Shuningdek, zamonaviy ingliz olimlari professional sohada psixologik barqarorlikni nafaqat individual, balki jamoaviy omillar bilan ham bog'liq holda tadqiq etadilar. Ularning ilmiy qarashlari global tajriba nuqtai nazaridan qarganda, profilaktika inspektorlarining ruhiy chidamliligi ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida strategik ahamiyat kasb etishini isbotlaydi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Profilaktika inspektorlari kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi ularning kundalik ish jarayonida yuqori darajadagi psixik zo'riqish, ijtimoiy konfliktlar va xavfli vaziyatlar bilan to'qnash kelishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun psixologik barqarorlik ularning professional tayyorgarligi va faoliyat samaradorligini belgilovchi eng muhim psixik sifatdir. Shaxsning stressga bardoshliligi, frustratsiyaga qarshi turish qobiliyati, emotsional intellekt darajasi va refleksiv tafakkur jarayonlari ushbu barqarorlikning asosiy komponentlari hisoblanadi. Olimlarning fikricha, kasbiy barqarorlik nafaqat individual omillar bilan, balki tashkiliy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bilan ham uzviy bog'liqdir. Shuningdek, psixoprofilaktik mashg'ulotlar, trening dasturlari va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari barqarorlikni rivojlantirishning muhim mexanizmlari sifatida qaratiladi. Shaxsiy kuzatishlarim shuni ko'rsatadiki, profilaktika inspektorlari ko'pincha o'zlarining ichki resurslarini yetarlicha safarbar qila olmaydilar, bu esa ularda tez charchash, stress oqibatida hissiy beqarorlik va qaror qabul qilishda sustkashlikka olib kelishi mumkin. Demak, psixologik barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlari tizimli yondashuvni talab etadi va ularni uch asosiy yo'nalishda ko'rish mumkin: individual psixik resurslarni rivojlantirish, tashkiliy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olimlarning qarashlariga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, o'zbek tadqiqotchilari psixologik barqarorlikni ko'proq ijtimoiy muhit va shaxsiy resurslar uyg'unligida talqin qiladilar. Rus psixologlari esa bu tushunchani faoliyat nazariyasi asosida izohlaydilar va reziliyentlikni ichki psixik kuchlar hamda coping strategiyalar orqali ochib beradilar. Ingliz olimlari esa ijobiy psixologiya yondashuvlari asosida emotsional intellekt, mindfulness va motivatsion barqarorlikni markaziy o'ringa qo'yadilar. Shaxsiy fikrimcha, ushbu yondashuvlarning barchasi bir-birini to'ldiradi va kompleks qo'llanilgandagina profilaktika inspektorlari uchun samarali psixologik tayyorgarlik tizimini shakllantirish mumkin bo'ladi.




1-jadval

Yo'nalish	Psixologik komponentlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutiladigan natijalar
Individual rivojlanish	Stressga chidamlilik, emotsional intellekt, refleksiya	Psixologik treninglar, kognitiv-behavioral yondashuv, o'zini tahlil qilish	Ruhiy chidamlilik va qaror qabul qilish tezligi oshadi
Tashkiliy qo'llab-quvvatlash	Motivatsiya, ish sharoiti, rahbariyat yordami	Kasbiy tayyorgarlik dasturlari, psixoprofilaktik xizmatlar	Kasbiy samaradorlik va ishonch kuchayadi
Ijtimoiy hamkorlik	Kommunikativ kompetensiya, konfliktni boshqarish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Jamoaviy treninglar, ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash	Muloqot samaradorligi va jamoaviy muvozanat oshadi

Jadvalda profilaktika inspektorlari psixologik barqarorligini rivojlantirishning uch asosiy yo'nalishi ko'rsatilgan. Individual rivojlanish bo'limida shaxsning stressga chidamliligi, emotsional intellekti va refleksiya qobiliyati muhim deb belgilangan, ularni rivojlantirish psixologik treninglar va kognitiv-behavioral yondashuv orqali amalga oshiriladi. Tashkiliy qo'llab-quvvatlash yo'nalishi ish sharoitlari, rahbariyat yordami va kasbiy xizmatlarning samaradorligi bilan bog'liq bo'lib, natijada inspektorlarning ishonchi va kasbiy motivatsiyasi kuchayadi. Ijtimoiy hamkorlik esa kommunikativ kompetensiya, konfliktni konstruktiv hal etish va jamoaviy muvozanatni ta'minlaydi, bu esa ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu tarzda, jadval psixologik barqarorlikni rivojlantirishning kompleks mexanizmlarini ko'rsatib beradi.

Profilaktika inspektorlari psixologik barqarorligini ta'minlovchi omillar



1-rasm.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, profilaktika inspektorlari psixologik barqarorligini ta'minlashda individual resurslar (40%) eng katta ulushni tashkil etadi. Bu omil shaxsning stressga chidamliligi, emotsional intellekti va refleksiya qobiliyati bilan bog'liq. Tashkiliy qo'llab-quvvatlash (35%) ikkinchi o'rinda turib, ish sharoiti, rahbariyat yordami va kasbiy tayyorgarlik dasturlari orqali barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy hamkorlik (25%) esa muloqot samaradorligi, jamoaviy muhit va konfliktlarni boshqarish qobiliyatini ta'minlaydi. Demak, uchala omil o'zaro uyg'unlashganda inspektorlarning ruhiy barqarorligi eng yuqori darajada ta'minlanadi.

Profilaktika inspektorlari kasbiy faoliyatida psixologik barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilishi uchun bir qator taklif va tavsiyalarni keltirish mumkin. Avvalo, individual darajada inspektorlarning stressga chidamliligi, emotsional intellekti va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha muntazam psixologik treninglar tashkil etish zarur. Bu borada kognitiv-behavioral yondashuv, mindfulness texnikalari va ijobiy psixologiya elementlaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ikkinchi jihat sifatida tashkiliy darajada rahbariyat tomonidan psixoprofilaktik xizmatlarni tizimli yo'lga qo'yish, kasbiy tayyorgarlik dasturlarini muntazam



yangilab borish va motivatsion muhitni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xizmatda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, jamoaviy treninglar o'tkazish va kommunikativ kompetensiyani oshirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilishi lozim. Tavsiyalarning uchinchi yo'nalishi sifatida profilaktika inspektorlarini muntazam ravishda psixologik monitoringdan o'tkazish, ruhiy salomatlikni saqlashga qaratilgan profilaktik dasturlarni ishlab chiqish hamda individual maslahat xizmatlarini joriy etish mumkin. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda milliy metodik qo'llanmalar yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish ham dolzarb hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Profilaktika inspektorlari psixologik barqarorligini rivojlantirish mexanizmlarining samarali yo'lga qo'yilishi ularning kasbiy faoliyatida yuqori samaradorlik, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi ishonchlilikni kuchaytiradi. Psixologik barqarorlik uch asosiy omil – individual resurslar, tashkiliy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy hamkorlik uyg'unligida shakllanadi. Shaxsiy resurslarni rivojlantirish inspektorning ichki kuchlarini mustahkamlasa, tashkiliy qo'llab-quvvatlash kasbiy motivatsiyani oshiradi, ijtimoiy hamkorlik esa jamoada sog'lom psixologik muhitni ta'minlaydi. Shunday qilib, kompleks yondashuv asosida shakllangan psixologik barqarorlik nafaqat inspektorning shaxsiy samaradorligini, balki butun tizim faoliyatining samaradorligini ham oshiradi. Shu sababli ushbu masalaning chuqur ilmiy o'rganilishi va amaliy tatbiqi profilaktika sohasida dolzarb va strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishonova Z. O'smir psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 215 b.
2. Jo'rayev M. Kasbiy psixologiya asoslari. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 280 b.
3. Tursunov S. Shaxs psixologiyasi va kasbiy faoliyat. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 198 b.
4. Абульханова К. А. Психология и сознание личности. Москва: Наука, 1999. – 234
5. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Смысл, 2004. – 352 с.
6. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер, 2003. – 720 с.
7. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: Freeman, 1997. – 604
8. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books, 2006. – 384 p.
9. Seligman M. E. P. Learned Optimism. New York: Vintage Books, 2006. – 319 p.



O'ZBEKISTON PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA EMOTSIONAL HOLATLAR VA AYBDORLIK HISSINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Sultanova Saida Muhiddin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU, "Amaliy psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ishlovchi ayollarda namoyon bo'ladigan aybdorlik hissining mazmuni, xorij psixolog olimlarining psixologik nazariyalari, ilmiy qarashlari hamda shaxs hayotida aybdorlik hissining ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, ishlovchi ayollarda aybdorlik hissining yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishining tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ishlovchi ayollar, ishga mas'uliyat, hamkasblar o'rtasidagi muloqot, aybdorlik hissi, hissiyot, kechinma, emotsiya, ichki me'yor, jamoatchilik fikri, ijtimoiy me'yor, xulq-atvor, o'zgalar bilan nizolashish.

Abstract: In this article, the content of the feeling of guilt manifested in working women, the psychological theories and scientific views of foreign psychologists, and the important aspects of the feeling of guilt in personal life are widely covered. Also, the analysis of the scientific research work conducted to determine the socio-psychological factors affecting the emergence of guilt among working women is presented.

Key words: working women, responsibility for work, communication between colleagues, feeling of guilt, feeling, experience, emotion, internal norm, public opinion, social norm, behavior, conflict with others.

Аннотация: В данной статье широко освещаются содержание чувства вины, проявляющегося у работающих женщин, психологические теории и научные взгляды зарубежных психологов, важные аспекты чувства вины в личной жизни. Также представлен анализ научно-исследовательской работы, проведенной по определению социально-психологических факторов, влияющих на возникновение чувства вины у работающих женщин.

Ключевые слова: работающая женщина, ответственность за работу, общение между коллегами, чувство вины, чувство, переживание, эмоция, внутренняя норма, общественное мнение, социальная норма, поведение, конфликт с окружающими.

KIRISH

Alisher Navoiy insonning go'zal axloqiy xislatlari, ijobiy fe'l-atvorlari va hissiyotlari borasida to'xtalib o'tar ekan, avvalo, har bir insoniy fazilatning ta'rifini beradi. U yaxshi fe'llarga qanoat, sabr, o'dob, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillilik kabi xislatlarni kiritib, har birining ta'rifidan so'ng tashbeh va hikoyatlar vositasida o'z fikrini to'ldiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Navoiy yuqorida zikr qilib o'tilgan xususiyatlarga ta'rif berish bilan birga, ularga qarama-qarshi bo'lgan salbiy illatlar xususida so'z yuritadi va ulardan qutilish choralarini ham bayon etadi. Demak, yaxshi xulq asosi – o'dob, Navoiy ta'biri bilan aytganda, u barcha insoniy xislatlarning boshlanishi hisoblanadi. Komil insonga xos xislatlar ana shunga bog'liq ravishda ta'rif beriladi. Jumladan, «Qanoat buloqdir – suvi olingani bilan qurimaydir. Xazinadir – naqdinasi sochgan bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug'i izzat va shafqat mevasini beradi. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasini yetkazadi», - deb ifodalaydi. Bundan ko'rinadiki, qanoat hissi insoniylik belgisidir. U insonni yomon kunlardan asraydi, chunki qanoat hissi qanchalik og'ir va mashaqqatli bo'lmasin, insonni nafs balosidan, do'st-dushmanidan, ta'magirlikdan xalos etadi. Shu boisdan ham alloma hech qachon ta'maga berilmaslik, halol mehnat bilan hayot kechirish qanchalik ulug'ligini ta'kidlab, ta'magarlik va ochko'zlik, xasislik kabi salbiy hislarni insoniylik zavoli deb ta'riflaydi.



Navoiy shaxsda ijobiy hissiyotlar namoyon bo'lishiga sabrlik xislatining ta'siri haqida quyidagicha fikrlarni bildiradi: «Sabr achchiqdir, ammo foyda beruvchi, qattiqdir. Ammo zararni bartaraf etuvchi sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir». Mutafakkir mulohazasidan ma'lum bo'ladiki, inson sabr bilan qiyinchiliklarni yengib o'tsa, chinakam ijobiy his-tuyg'ularni boshidan kechiradi.

Ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlari bilan bir qatorda, ta'limiy–axloqiy asarlarida o'zi orzu qilgan komil insonga xos axloqiy fazilatlar deb qanoat, adolat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, rostgo'ylik, adab va shu kabi xususiyatlarni tushungan. Ana shu xislatlar tarkib topgan shaxsda yomonlik, yovuzlik bo'lmasligi, bunday insonlar yashagan jamiyat ham taraqqiy etishi, barcha baxt-sodat, farovonlikka erishishi mumkin deb hisoblagan.

Shu bilan bir qatorda, Alisher Navoiy shaxsda o'zini o'zi nazorat qilish, amalga oshirgan salbiy xatti-harakatlarining mohiyatini anglash, o'zida aybdorlik hislarini boshidan o'tkazish singari masalalarga ham e'tibor qaratgan. Xususan, «Tarbiya jarayonida inson o'z-o'zini tarbiyalash, xato va kamchiliklarini anglash, ularni tuzatishga e'tibor beradi. Yanglishish va xato qilish kishilik shartidir. Xato va yanglishishni anglab, ogohlangan inson baxtli kishidir. Kimki e'tirof tomon qaytar ekan, xatosi yo'qoladi. Kimki dalil keltirib aljiray bersa, xatosini bir karra oshiradi. Mubolag'asi qancha ko'proq ersa, yanglishishi shuncha ko'rimliroq bo'lur va o'zini katta ko'rsatib, tortishuvi qancha ortiqroq ersa, o'zi xalq o'rtasida shuncha rasvoroq ko'rinar», - degan qarashlari bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Kaykovus (1021—1098) inson adabi, sezgi va hissiy kechinmalari borasida o'zining «Qobusnoma» asarida fikr yuritadi. U odamlarning xislatlari uch turda bo'lishi, ya'ni biri aql, biri rostlik, yana biri juvonmardlik ekanligini alohida ta'kidlaydi. Juvonmardlik tushunchasining asosini Kaykovus uch narsa tashkil etadi deb biladi. Ulardan birinchisi aytgan so'zining ustidan chiqish, ya'ni rostgo'ylik, ikkinchisi haqiqatga xilof qilmaslik, uchinchisi xayrli ishni amalga oshirish hisoblanadi.

Insondagi boshqa hamma fazilatlar ushbu uch narsaga bog'liq bo'ladi deydi Kaykovus. Juvonmardlikning ustunlarini (ruklari) quyidagi sifatlarda deb ko'rsatadi: jasurlik, mardlik, sabr-matonat, va'daga vafo qilish, sofdillik va pok zabonli bo'lish, asirlarga zarar yetmaslik, muhtoj kishilarga ko'mak berib, yomon odamlarning zulmidan yaxshilarni asrash, o'zga insonlarga ham ziyon-zahmat yetkazmaslik. Juvonmard sipohiyar esa sabr-bardosh bilan ish tutishi, kamtarlik va va mehmondo'stlik, pok kiyinish, yaxshi qurollanish zarurligini qayd etadi.

Kaykovus olamdagi barcha mavjudotlarni o'zaro bir-biri bilan bog'liq va murosasiz deb hisoblaydi. U inson ruhiyatini ham ikki guruhga ajratadi: jismoniy sezgini modda, ruhiy hissiyotni esa «jon» bilan bog'laydi va ularning birini moddiy, ikkinchisini ruhiy hayot mahsuli deb izohlaydi. Uning ta'biricha, borliqdagi barcha narsalar yaralishi va mohiyat-e'tibori bilan ilohiydir. Zero, inson Allohni tanimoq uchun, avvalambor, o'zini anglamog'i, ya'ni «sozga qarab sozandani tanimog'i lozim», deb uqtiradi. Shu va boshqa masalalar kitobda ixcham hikoyatlar, rivoyatlar, she'rlar, latifalar, maqol va hikmatlar yordamida ochib berilgan.

Kaykovusning hayotda xulq-odob qoidalariga qanday amal qilish borasidagi yoshlarni adolatli, xalqparvar, saxovatli, qanoatli, sabr-bardoshli qilib tarbiyalashga doir fikrlari alohida ahamiyatga molikdir. Mazkur tushunchalar yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida bayon etilgan: «Ey farzand, yaxshilikni ado qil va qilg'on yaxshilikdan hech qachon pushaymon bo'lmag'il. Biror insonga bir yaxshilik qilsang, ko'rgilki, yaxshilik qilg'on vaqtda u kishiga naqadar rohat yetg'on bo'lsa, sening ko'nglinga ham undan ziyodroq xurramlik va hukmronlik yetur. Agar bir kishiga yomonlik qilsang, unga naqadar ozor yetsa, sening ko'nglinga ham ul miqdor tangli yetadur. Demak, bu jahonda yaxshilik va yomonlik mukofoti, albatta, yetgusidir». Darhaqiqat, Kaykovus tomonidan ilgari surilgan qarashlar insonning ichki dunyosi, hissiy olami, ijobiy fazilatlarining mohiyatini anglab yetishda asos bo'lib xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonlik psixolog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida aybdorlik, uyat, tortinchoqlik, hasad, havas va shu kabi boshqa hissiy holatlar atroflicha yoritilganligini qayd etish joiz, xususan, G.Y.Baykunosova, Sh.A.Dusmuxamedova, D.F.Djurakulova, P.S.Ergashev, M.B.Kalandarova, Z.T.Nishanova, I.G'.Raximova, E.G'.G'oziyev va boshqalar turli emotsional holatlarning namoyon bo'lishi, yosh davrlarida hissiyotlar yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ularning shaxsdagi psixik jarayonlar bilan o'zaro aloqadorlik masalalarini ilmiy tadqiq etishgan.

G.Y.Baykunosova o'z tadqiqot ishlarida shaxsda hasad hissining yuzaga kelishi, unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asoslab bergan. Jumladan, «Shaxsda hasad hissi namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik asoslari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida shaxsda namoyon bo'ladigan havas va hasad hissi shakllanishining psixologik xususiyatlari, omillari va mexanizmlari hamda manipulyativ vaziyatda yuzaga keladigan emotsional reaksiyalar kabi jihatlar qamrab olingan.

Shuningdek, tadqiqot ishi natijasida shaxs yo'nalganligiga ko'ra, hasad – ijtimoiy bilish obyektlaridagi (odam yoki odamlar guruhi) hasad predmetiga shaxsiy egalik, uning mutlaq egallanishiga qaratilgan



ustanovkaning ustunligi sharoitida vujudga keladigan sotsial-destruktiv xulqda namoyon bo'ladigan emotsional kechinma, havas esa ijtimoiy bilish obyektlaridagi hasad predmetiga erishish uchun o'zini-o'zi rivojlantirishga qaratilgan ustanovkaning jamiyatda ma'qullanadigan shakllarida namoyon bo'luvchi emotsional kechinma bilan bog'liqligining ifodalanishi tufayli, hasad va havas hislarining differensial jihatlarini mualliflik yondashuvi asosida takomillashtirilgan.

D.F.Djurakulova aynan aybdorlik hissining psixologik xususiyatlarini o'rganganligini alohida qayd etish joiz. U o'zining «Shaxsda aybdorlik hissi namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari» mavzusidagi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishida shaxsda aybdorlik hissi namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari hamda uni susaytirish bo'yicha psixokorreksion ta'sir ko'rsatishning amaliy imkoniyatlarini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida shaxslarda norozilikni keltirib chiqaruvchi aybdorlikning sababsiz ranjitish, xavotir omillarining ifodalanishiga ko'ra shaxsiy hayot bilan bog'liq xususiyatlarning namoyon bo'lishida qo'rquv, afsuslanish, pushaymonlik, vijdon azobi sifatlarining kuchayishi orqali autoagressiya dominant determinantalar ustuvorligi asoslangan. Shu bilan birga, aybdorlik hissi tarkibiga kiruvchi diskomfort, depressiya, o'z xatti-harakatini tahlil qilish, tuzatish istagi, ichki noqulaylik hissining namoyon bo'lishiga asoslanib, shaxsning o'z xulq-atvorini anglashi muhimligiga ko'ra emotsional, kognitiv, motivatsion, psixosomatik komponentlarning rivojlanishi dalillangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tangney J. P., Dearing R. L. Shame and Guilt. New York: Guilford Press, 2003. 272 p.
2. Муздыбаев К. Переживание вины и стыда. СПб : СПб, филиал Института социологии РАН, 1995. стр. 39.
3. Ильин Е.П. Психология совести: вина, стыд, раскаяние. – СПб.: Питер, 2016.
4. Изард К. Э. Психология эмоций. – СПб.: Питер, 2008. – 464 с.: ил. – (Серия «Мастера психологии»).



DEVIANT XULQLI YOSHLARNING IJTIMOYIY MOSLASHUV MEXANIZMLARIDA HISSIY-IRODAVIY JIHATLARNING AHAMIYATI

Zaripova Zilola Erkin qizi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuv mexanizmlarida hissiy-irodaviy sifatlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida psixologik adaptatsiya, ijtimoiy kompetentlik, emosional intellekt va frustratsiyaga bardoshlilik kabi ilmiy tushunchalar asosida yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ochib berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanganligi ijtimoiylashuv jarayonini osonlashtiradi, ularning yetarlicha shakllanmaganligi esa ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: deviant xulq, yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy moslashuv, hissiy-irodaviy sifatlar, psixologik adaptatsiya, ijtimoiy kompetentlik, emosional intellekt, frustratsiyaga bardoshlilik.

Abstract: This article examines the importance of emotional and volitional qualities in the mechanisms of social adaptation of youth with deviant behavior. The study analyzes psychological categories such as social competence, emotional intelligence, stress resistance, and frustration tolerance. The findings demonstrate that a well-developed system of emotional and volitional qualities facilitates successful socialization, whereas their deficiency may lead to social maladaptation.

Key words: deviant behavior, youth psychology, social adaptation, emotional-volitional qualities, psychological adaptation, social competence, emotional intelligence, frustration tolerance.

Аннотация: В статье рассматривается значение эмоционально-волевых качеств в механизмах социальной адаптации молодежи с девиантным поведением. В рамках исследования анализируются такие психологические категории, как социальная компетентность, эмоциональный интеллект, стрессоустойчивость и толерантность к фрустрации. Полученные результаты показывают, что высокий уровень развития эмоционально-волевых качеств способствует успешной социализации, тогда как их недостаточность приводит к социальной дезадаптации.

Ключевые слова: девиантное поведение, психология молодежи, социальная адаптация, эмоционально-волевые качества, психологическая адаптация, социальная компетентность, эмоциональный интеллект, толерантность к фрустрации.

KIRISH

Deviant xulq-atvor bugungi kunda psixologiya fanining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki shaxsning ijtimoiy muhitga moslasha olmasligi, ijtimoiy normalarni buzishi yoki jamiyat talablariga zid bo'lgan xulq shakllarini namoyon qilishi uning ijtimoiylashuv jarayonida jiddiy qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatlarda, ayniqsa, o'smir va yosh davridagi shaxslarning hissiy-irodaviy sifatlari, ya'ni iroda kuchi, frustratsiyaga bardoshlilik, emosional barqarorlik va affektiv reaksiyalarni boshqarish qobiliyati asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, yoshlarning deviant xulqini o'rganishda ijtimoiy-psixologik mexanizmlar bilan bir qatorda hissiy-irodaviy jihatlarning roli alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi.

Ijtimoiylashuv mexanizmlarini o'rganishda shaxsning ijtimoiy kompetentligi, kommunikativ ko'nikmalari, emosional intellekti va kognitiv moslashuvchanligi muhim indikator sifatida baholanadi. Yoshlarning ijtimoiy adaptatsiya jarayonida stressga chidamlilik, o'zini nazorat qilish, motivatsion tizim va shaxsiy identifikatsiya mexanizmlari samarali faoliyat ko'rsatsa, ular ijtimoiy normalarni ongli qabul qiladilar va konstruktiv munosabatlar tizimini shakllantira oladilar. Aksincha, bu mexanizmlar sust rivojlangan hollarda o'quvchilar dezadaptatsiya holatiga tushib qoladilar, konfliktlarga tez kirishadilar va deviant xulq shakllari kuchayadi. Shu bois, hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasi yoshlarning ijtimoiylashuv darajasini belgilovchi asosiy psixologik ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik tadqiqotlarda, xususan, L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev va mahalliy olimlardan E. G'oziyev hamda Z. Nishonova ishlarida shaxsning ijtimoiy rivojlanishi ijtimoiy muhit, tarbiya, kommunikativ tajriba va hissiy-irodaviy sifatlar bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrida shaxsning ichki psixik jarayonlari — motivatsiya, ehtiyoj, affekt va emotsional nazorat mexanizmlari keskin o'zgaradi. Bu davrda yoshlarning o'z-o'zini anglash jarayoni kuchayadi, lekin emotsional barqarorlik yetarli darajada shakllanmaganligi sababli ular tez-tez affektiv portlashlar, impulsiv xatti-harakatlar va konfliktli vaziyatlarga moyillik namoyon qiladilar. Shu nuqtai nazardan, hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, zamonaviy psixologiyada deviant xulqni faqat ijtimoiy sabablarga bog'lab izohlash yetarli emasligi, balki shaxsning emotsional va volitiv sifatleri ham chuqur o'rganilishi zarurligi qayd etilmoqda. Masalan, emotsional intellekt past bo'lgan, iroda nazorati sust shakllangan, frustratsiyaga chidamsiz yoshlar ko'proq deviant xulq shakllariga moyil bo'ladilar. Aksincha, hissiy-irodaviy sifatleri barqaror shakllangan o'quvchilar ijtimoiy vaziyatlarga moslashishda muvaffaqiyatli bo'ladilar, ijtimoiy kompetentlik ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi va jamiyat talablariga ongli tarzda moslashadilar. Shu sababli, deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuv mexanizmlarida hissiy-irodaviy jihatlarni rivojlantirish psixologik intervensiyalar samaradorligini belgilovchi muhim ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi.

O'zbek olimlari tadqiqotlarida deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuviga alohida e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin. Masalan, Z. Nishonova o'smirlik davrida emotsional barqarorlikning shakllanishi shaxsning ijtimoiy kompetentligini belgilovchi asosiy psixologik omil ekanini ta'kidlaydi. E. G'oziyev esa umumiy psixologiya bo'yicha tadqiqotlarida shaxsning emotsional-intellektual jarayonlari va iroda nazoratining ijtimoiylashuvdagi rolini ochib beradi. R. Jo'rayevning psixologik xizmat nazariyasi bo'yicha ishlari esa ta'lim muassasalarida o'quvchilarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini ko'rsatadi. Bu izlanishlar o'zbek psixologiyasida deviant xulqni kamaytirishda hissiy-irodaviy omillarni rivojlantirishga katta ahamiyat berilganini ko'rsatadi.

Rus psixologik maktabi vakillari ham ushbu masalaga keng yondashishgan. L.S. Vygotskiy sotsiokultural nazariyasida shaxsning rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq ekanini ilmiy asoslab berdi. A.N. Leontyev faoliyat nazariyasi orqali shaxsning motivatsion tizimi, iroda kuchi va emotsional boshqaruv mexanizmlarining ijtimoiy adaptatsiyadagi rolini ko'rsatdi. L.I. Bojovich esa bolalik davrida shaxsning ijtimoiy yo'nalganligi, o'zini anglash jarayoni va emotsional reaksiyalarini tahlil qilib, ijtimoiylashuvning psixologik mexanizmlarini chuqur o'rgandi. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hissiy-irodaviy sifatlarning yetarlicha rivojlanmasligi shaxsda deviant xulq shakllarini kuchaytirishi mumkin.

Ingliz psixologlari tadqiqotlarida ham deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuvi masalasi keng o'rganilgan. E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida ayniqsa o'smirlik davrida identifikatsiya inqirozi va ijtimoiy rolga qabul qilish mexanizmlarining muhimligi ta'kidlanadi. A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv nazariyada esa yoshlarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishda modellashuv va ijtimoiy ta'lim mexanizmlari asosiy rol o'ynaydi. D. Goleman esa emotsional intellekt konsepsiyasida shaxsning o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati va boshqalarning emotsiyalarini anglash kompetentligini ijtimoiy moslashuvdagi muhim faktor sifatida tahlil qiladi. Ushbu nazariyalar deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini tushunishda zamonaviy psixologiya uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Umumlashtirib aytganda, turli maktablar va olimlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda hissiy-irodaviy sifatlarning o'rni beqiyosdir. O'zbek psixologiyasi vakillari bu jarayonni milliy qadriyatlar va tarbiyaviy yondashuvlar bilan bog'lab o'rgangan bo'lsalar, rus psixologiyasi shaxsning ichki psixik mexanizmlarini faoliyat va rivojlanish nazariyalari orqali tahlil qilgan. Ingliz tadqiqotlari esa shaxsning emotsional intellekti va ijtimoiy ta'lim mexanizmlariga urg'u beradi. Shu bilan, adabiyotlar tahlili hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirishning ilmiy-amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi va yoshlarning deviant xulqidan ijtimoiy kompetentlikka o'tish mexanizmlarini ochib beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuv jarayonini o'rganish shuni ko'rsatadiki, hissiy-irodaviy jihatlarning ularning xulq-atvorini tartibga soluvchi, o'zini boshqarish imkonini beruvchi va jamiyat talablariga moslashuvni ta'minlovchi muhim psixologik asos hisoblanadi. Hissiy beqarorlik va iroda sustligi shaxsning impulsiv xatti-harakatlarini kuchaytiradi, bu esa ijtimoiy me'yorlarni buzish va deviant xulqqa moyillikni oshiradi. Shu



sababli, yoshlar orasida barqaror emotsional rivojlanish va iroda sifatlarini mustahkamlash ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini to'g'ri shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Olimlarning tadqiqotlari ham bu jarayonning dolzarbligini tasdiqlaydi. Masalan, L.S. Vygotskiy emotsional boshqaruvning ijtimoiylashuvdagi markaziy rolini ko'rsatib, shaxsning o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olishi uning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishini ta'kidlaydi. A.G. Kovalyov esa irodaviy zaiflik deviant xatti-harakatlarning ko'payishiga olib kelishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mahalliy tadqiqotlarda ham, jumladan S.N. Jo'rayeva ishlarida, yoshlarning ijtimoiy muhitga moslashuvi motivatsion determinantlar, iroda sifatleri va emotsional intellekt bilan chambarchas bog'liq ekani qayd etiladi.

Deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini shakllantirish jarayonida bir necha muhim psixologik omillar ajralib turadi. Ulardan birinchisi — emotsional barqarorlik, ya'ni shaxsning stressli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish qobiliyati. Ikkinchisi — iroda kuchi, bu esa ijtimoiy me'yorlarni ongli ravishda bajarishga undaydi. Uchinchisi — o'zini nazorat qilish, u impulsiv reaksiyalarni cheklab, shaxsni ijtimoiy qoidalarga muvofiq harakat qilishga yo'naltiradi. To'rtinchisi — motivatsion barqarorlik, ya'ni maqsad sari qat'iyat bilan intilish va ijtimoiy foydali faoliyatga yo'nalishdir. Ushbu sifatlarining uyg'un rivojlanishi ijtimoiy moslashuvning barqaror mexanizmini shakllantiradi.

Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, hissiy-irodaviy sifatlar yoshlar ongida ijtimoiy qoidalar va normalar bilan uyg'unlashganda deviant xulq kamayadi. Agar bu sifatlar rivojlanmagan bo'lsa, shaxs ijtimoiy ta'sirlar ta'sirida beqarorlikka, nizoli vaziyatlarda impulsiv qararlarga va huquqbuzarlikka moyil bo'lib qoladi. Shu bois ta'lim va tarbiya jarayonida hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuv jarayonida emotsional intellekt ham alohida o'rin tutadi. Emotsional intellekt yuqori bo'lgan shaxslar o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini anglash va ijtimoiy vaziyatlarga moslashishda muvaffaqiyatliroq bo'ladilar. Bu esa hissiy-irodaviy sifatlarining ijtimoiy moslashuvdagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Xorijiy tadqiqotlar ham ushbu fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, D. Goleman (emotsional intellekt nazariyasi asoschisi) insonning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun emotsional barqarorlik va iroda sifatleri intellektual salohiyatdan ham ko'ra ko'proq ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Bu yondashuv shuni anglatadiki, deviant xulqli yoshlarni ijtimoiy moslashtirishda faqat tashqi nazorat va jazolash mexanizmlari emas, balki hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlantiruvchi pedagogik va psixologik dasturlar samarali hisoblanadi.

Amaliy tajribalar ham ko'rsatadiki, psixologik treninglar, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish mashg'ulotlari va iroda mashqlari yoshlarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, ijobiy ijtimoiy muhit va qo'llab-quvvatlash tizimi ularning barqaror psixologik rivojlanishini ta'minlaydi. Shu tariqa, hissiy-irodaviy jihatlar ijtimoiy moslashuv mexanizmlarining negizi sifatida qaralishi zarur.

Deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuv jarayonida hissiy-irodaviy sifatlarining ahamiyatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, emotsional barqarorlik, iroda kuchi, o'zini nazorat qilish va motivatsion barqarorlik yoshlarning ijtimoiy me'yorlarga moslashuvda asosiy psixologik determinant sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu sifatlar rivojlanmagan sharoitda shaxs ijtimoiy nizolarga tez kirishib qolishi, impulsiv xatti-harakatlarga berilishi va huquqbuzarlikka moyilligi kuchayishi mumkin. Shu bois, deviant xulqning oldini olishda hissiy-irodaviy jihatlarini shakllantirish, ularni ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishiga aylantirish zarur.

Amaliy tavsiyalar sifatida, birinchidan, ta'lim va tarbiya muassasalarida psixologik treninglar, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlari va iroda mashqlarini muntazam o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan metodikalar, jumladan, Goleman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional savodxonlik dasturlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Uchinchidan, oila va maktab muhitida qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-psixologik sharoit yaratish, ijobiy munosabat va ishonchga asoslangan tarbiya usullarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, profilaktik tadbirlar jarayonida yoshlarning individual hissiy-irodaviy xususiyatlari hisobga olinishi, har bir shaxs uchun moslashtirilgan yondashuv qo'llanilishi samarali natijalar beradi. Deviant xulqli yoshlarni jamiyatga qayta moslashtirishda faqat tashqi nazorat choralarini emas, balki ichki psixologik resurslarni faollashtirish usullarini keng qo'llash zarur. Bunda psixoprofilaktik mashg'ulotlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi va motivatsion dasturlar bir butun kompleks sifatida ishlab chiqilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuv jarayonini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning hissiy-irodaviy sifatleri ijtimoiy me'yorlarga moslashuvning asosiy psixologik determinantlari hisoblanadi. Emotsional barqarorlikning sustligi, iroda kuchining yetarli rivojlanmaganligi va o'zini nazorat qilish mexanizmlarining zaifligi deviant xatti-harakatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bois ushbu jihatlarining rivojlanish darajasi yoshlarning jamiyatda qanchalik muvaffaqiyatli moslasha olishini belgilovchi omil sifatida qaralishi lozim.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, deviant xulqning oldini olish faqat tashqi nazorat va intizom choralarini kuchaytirish orqali samarali bo'lmaydi, balki ichki psixologik resurslarni faollashtirish, ya'ni shaxsning hissiy-irodaviy salohiyatini oshirish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada emotsional intellektni rivojlantirish, motivatsion barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, iroda mashqlari va psixologik treninglarni tizimli amalga oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari yoshlarning ijtimoiy moslashuv jarayonida hissiy-irodaviy sifatning yetakchi rolini ilmiy asosda ko'rsatib beradi. Bu esa, bir tomondan, psixologik nazariyalarni boyitadi, ikkinchi tomondan, ta'lim-tarbiya va profilaktika amaliyotida yangi yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, oila, ta'lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Umuman olganda, deviant xulqli yoshlarning ijtimoiy moslashuvi ko'p omilli jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyatli kechishi hissiy-irodaviy sifatning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli, ushbu sohada olib boriladigan ilmiy izlanishlar va amaliy tadbirlar kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi jamiyat barqarorligi va yoshlarning ijtimoiy integratsiyasiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraxmonova Q. "Psixologiya asoslari". – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 215 b.
2. Allamova M. "Yoshlar psixologiyasi va ijtimoiy muhit omillari". – Toshkent: Noshir, 2021. – 178 b.
3. Jo'rayeva S. N. "Zamonaviy pedagog imiji shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari". – Toshkent, 2022. – 69 b.
4. Karimova V.M. "Psixologiya: o'quv qo'llanma". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 310 b.
5. Z.S.Elov. Qadimgi xalqlar urf-odatlar va rivojlangan jamiyatda o'z joniga qasd qilishning ijtimoiy psixologik sabablari. Tarix va bugun (qadimgi xalqlar urf – odatlari va bugungi zamon). Jamiyat va innovatsiyalar. Toshkent. (10) 2021
6. Z.S.Elov. Suitsid – o'z joniga qasd qilish ijtimoiy psixologik muammo sifatida. CONFERENCE ON SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. 2021
7. Z.S.Elov. Zamonaviy jamiyatda suitsid (o'z joniga qasd qilish) muammolari. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences 1 (2(2021): EJLFAS), 26-28
8. Z.S.Elov. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda kuzatiladigan psixologik o'zgarishlarning yosh bilan bog'lik XUSUSIYATLARI (Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish markazi tarbiyalanuvchilari misolida) PEDAGOGIK MAHORAT 2022 №6 72-75
9. Z.S.Elov. [O'smirlar davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri](#). PSIXOLOGIYA ILMIY JURNAL 1 (1, 2022), 27-29



SHAXSDA IMPOSTER SINDROMI VA SALBIY BAHOLANISHDAN QO'RQISHNING PSIXOLOGIK ALOQADORLIGI

Yuldasheva Nilufarxon Sherqo'zi qizi

Renessans ta'lim univeristeti Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedrası
v.b dotsenti., PhD
ORCID: 0000-0001-7146-1347

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda shaxsda imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqish metodikasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik tahlil qilindi. Tadqiqot namunasi 564 nafar ishtirokchini (N=564) qamrab oldi. O'lchov natijalari imposter sindromi darajasi va salbiy baholanishdan qo'rqish ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy va o'rtacha kuchli korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi ($r=0,450$; $p<0.01$). Bu esa shuni anglatadiki, shaxsning o'zini "soxta" deb his qilishi va muvaffaqiyatlarini inkor etishi, boshqalarning salbiy bahosidan qo'rqishi bilan sezilarli darajada chambarchas bog'liqdir. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, imposter sindromi ko'pincha ijtimoiy baholanishdan xavotirlanish va tanqidni qabul qilishdagi qiyinchiliklar bilan birga namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot natijalari shaxsiy rivojlanish, psixologik yordam va ta'lim tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: imposter sindromi, salbiy baholanish, qo'rquv, psixologik aloqadorlik, shaxs.

Abstract: This study analyzed the relationship between impostor syndrome and the fear of negative evaluation in individuals. The sample included 564 participants (N=564). The measurement results revealed a positive and moderately strong correlation between the level of impostor syndrome and indicators of fear of negative evaluation ($r=0.450$; $p<0.01$). This suggests that feeling like a "fraud" and denying one's achievements are significantly associated with the fear of negative judgment from others. The findings indicate that impostor syndrome is often accompanied by social evaluation anxiety and difficulties in accepting criticism. These results provide an important scientific basis for developing practical recommendations in the fields of personal development, psychological support, and the education system.

Key words: impostor syndrome, negative evaluation, fear, psychological relationship, personality.

Аннотация: В данном исследовании проанализирована взаимосвязь между синдромом самозванца и методикой страха негативной оценки у личности. В выборке приняли участие 564 респондента (N=564). Результаты измерений показали наличие положительной и средней по силе корреляционной связи между уровнем синдрома самозванца и показателями страха негативной оценки ($r=0,450$; $p<0.01$). Это означает, что ощущение себя «самозванцем» и отрицание собственных достижений значительно связано со страхом негативной оценки со стороны окружающих. Полученные данные указывают, что синдром самозванца часто проявляется вместе с тревожностью по поводу социальной оценки и трудностями в принятии критики. Результаты данного исследования могут служить важной научной основой для разработки практических рекомендаций в сфере личностного развития, психологической помощи и системы образования.

Ключевые слова: синдром самозванца, негативная оценка, страх, психологическая взаимосвязь, личность.

KIRISH

So'nggi yillarda psixologiya sohasida shaxsning o'zini idrok etishi, ijtimoiy munosabatlardagi o'rni va hissiy barqarorligi masalalari keng tadqiq etilmoqda. Shulardan biri — imposter sindromi bo'lib, u shaxsning o'z yutuqlarini inkor etishi, ichki shubhalar bilan kurashishi va o'zini "soxta" yoki yetarlicha qobiliyatli emas, deb his etishi bilan tavsiflanadi. Bunday holat ko'pincha yuqori natijalarga erishgan shaxslar orasida kuzatiladi va ularning o'zini qadrlash darajasiga, shuningdek, kasbiy hamda shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, shaxsning salbiy baholanishdan qo'rqishi ham muhim psixologik omil sifatida e'tiborga olinadi. Bu holat odamning ijtimoiy vaziyatlarda o'zini erkin namoyon qila olmasligi, atrofdagilarning fikridan

ortiqcha tashvishlanishi va natijada o'zini cheklashga moyilligi bilan xarakterlanadi. Mazkur xususiyat ko'pincha ijtimoiy tashvish, o'zini qadrlashning pastligi va stress darajasining ortishi bilan bog'liqdir.

Imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqishning umumiy psixologik ildizlari mavjud bo'lishi mumkin. Chunki ikkala omil ham shaxsning o'zini baholash jarayonlari, ijtimoiy ta'sirga sezuvchanlik va ichki xavotir darajasi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli ularning o'zaro aloqadorligini aniqlash psixologik diagnostika va amaliy yordam ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqish o'rtasidagi bog'liqlik empirik jihatdan tekshirildi hamda ularning o'zaro ta'siri statistik tahlil yordamida namoyon qilindi. Olingan natijalar shaxs psixologiyasini chuqurroq tushunish, shuningdek, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Imposter sindromi ilk bor Klans va Aym [1] tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u shaxsning o'z yutuqlarini ichki qadr-qimmatiga bilan bog'lay olmasligi va muvaffaqiyatlarini tashqi omillar — omad, tasodif yoki boshqalarning yordamiga nisbat berishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, imposter sindromi ko'pincha yuqori akademik yoki kasbiy natijalarga erishgan shaxslar orasida uchraydi va bu holat ularning psixologik farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Imposter sindromi ko'pincha o'zini past baholash, yuqori tashvish darajasi va o'ziga nisbatan ortiqcha tanqidchanlik bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, bu sindrom o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligini ham ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotlar imposter sindromining ayollar va yosh mutaxassislar orasida ko'proq uchrashini ta'kidlaydi [3].

Salbiy baholanishdan qo'rqish tushunchasi

Salbiy baholanishdan qo'rqish (Fear of Negative Evaluation – FNE) konsepsiyasi ijtimoiy tashvish buzilishining asosiy komponentlaridan biri sifatida ko'riladi [4]. Bu holat shaxsning ijtimoiy vaziyatlarda boshqalarning tanqidi yoki salbiy fikridan ortiqcha tashvishlanishini anglatadi. FNE yuqori bo'lgan shaxslar odatda ijtimoiy vaziyatlardan qochishga, o'z fikrini erkin bildirmaslikka yoki xatolardan ortiqcha qo'rqishga moyil bo'ladilar.

Ilmiy adabiyotlarda FNE o'zini past baholash, ijtimoiy xavotir va depressiv simptomatika bilan sezilarli darajada bog'liq ekanini ko'rsatib o'tilgan [5]. Shuningdek, u kasbiy muvaffaqiyatlar, ta'lim jarayoni va shaxslararo munosabatlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqish o'rtasidagi bog'liqlik

Nazariy jihatdan imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqishning umumiy mexanizmlari mavjud. Har ikkisi ham shaxsning o'zini baholash jarayonlarida ichki nomutanosiblik, o'ziga ishonchsizlik va tashqi bahoga haddan tashqari sezgirlik bilan bog'liq. Empirik tadqiqotlar ham bu ikki konstruktsiya o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatadi [7].

Demak, imposter sindromidan aziyat chekayotgan shaxslar boshqalarning salbiy fikri va tanqididan ko'proq xavotirlanishi tabiiydir. Aksincha, ijtimoiy baholanishdan doimiy ravishda qo'rqadigan shaxslar o'z yutuqlarini yetarlicha qadrlay olmay, o'zini "soxta" sifatida his qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda jami 564 nafar ishtirokchi (N=564) qatnashdi. Respondentlar turli yosh, jins va kasbiy yo'nalishdagi shaxslarni qamrab olgan bo'lib, ular tasodifiy tanlash usuli asosida jalb etildi. Ishtirokchilarga tadqiqotning maqsadi tushuntirildi va ularning roziligi olindi.

Psixodiagnostik o'lchovlar sifatida ikki asosiy metodika qo'llanildi. Birinchidan, imposter sindromini aniqlash uchun Klans va Aym tomonidan ishlab chiqilgan S.Klansning "Imposter sindromi testi" adaptatsiya qilingan shaklda ishlatildi. Ushbu metodika yordamida shaxsning o'z yutuqlarini qadrlash darajasi, muvaffaqiyatlarni ichki omillarga bog'lash qobiliyati hamda o'zini "soxta" sifatida his etish ko'rsatkichlari o'lchandi. Ikkinchidan, salbiy baholanishdan qo'rqish darajasini aniqlash uchun M.R.Learining "Salbiy baholanishdan qo'rquv shkalasi" asosida tuzilgan so'rovnoma qo'llanildi. Mazkur shkala shaxsning ijtimoiy vaziyatlarda boshqalarning tanqidi yoki salbiy munosabatidan tashvishlanish darajasini baholashga xizmat qildi.

O'tkazilgan so'rovnomalarda respondentlarga bosma va onlayn shaklda taqdim etildi hamda javoblar anonim tarzda yig'ildi. Olingan ma'lumotlar SPSS 26.0 statistik dasturi yordamida qayta ishlanib, deskriptiv ko'rsatkichlar (o'rtacha qiymat, dispersiya, standart og'ish) hisoblab chiqildi. Shuningdek, imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsienti qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqish o'rtasida ijobiy va o'rtacha kuchli korrelyatsiya mavjud ($r = 0,450$; $p < 0.01$). Bu natija psixologik jihatdan shuni anglatadiki, o'zini "imposter" sifatida his qiluvchi shaxslar ko'pincha boshqalarning salbiy bahosidan ortiqcha tashvishlanadilar (1-jadval). Ularning muvaffaqiyatlarini ichki qobiliyat va mehnat mahsuli sifatida emas, balki tashqi omillar — tasodif, omad yoki boshqalarning yordami bilan izohlashi, ularda o'zini "soxta" deb bilish hissini kuchaytiradi. Bu holat esa, tabiiy ravishda, atrofda gilarning bahosiga nisbatan yuqori sezuvchanlikni keltirib chiqaradi.

1-jadval. Shaxsda imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqish metodikasining o'zaro aloqadorligi namoyon bo'lishi (N-564)

Ko'rsatkichlar	Imposter sindromi
Salbiy baholanishdan qo'rquv	0,450**

Izoh: ** - $p < 0.01$

Shuningdek, ushbu bog'liqlik shaxsning o'zini baholash jarayonlaridagi nomutanosiblikni ko'rsatadi. Imposter sindromiga ega shaxs o'z yutuqlariga ishonmaydi va ularni qadrlay olmaydi, shu sababli u har qanday tanqid yoki salbiy fikrni o'z shaxsiy qiymatini pasaytiruvchi omil sifatida qabul qiladi. Natijada, salbiy baholanishdan qo'rqish uning tashvishlarini yanada kuchaytiradi.

Bu izoh shuni ko'rsatadiki, imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqish bir-birini o'zaro mustahkamlovchi omillar bo'lib, shaxsning ichki psixologik barqarorligiga va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Demak, shaxsda imposter sindromi qanchalik kuchli bo'lsa, salbiy baholanishdan qo'rqish ham shunchalik yuqori darajada namoyon bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsda imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqish o'rtasida sezilarli darajada ijobiy va o'rtacha kuchli bog'liqlik mavjud. Bu shuni anglatadiki, o'zini "imposter" sifatida his qiluvchi shaxslar ko'pincha boshqalarning salbiy bahosidan kuchliroq xavotirlanadilar, tanqidni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar va o'z yutuqlarini qadrlashda muammolarga ega bo'ladilar.

Mazkur natijalar shaxsning o'zini idrok etish jarayonlari, o'ziga bo'lgan ishonch darajasi va ijtimoiy muhitga moslashuvda imposter sindromi va salbiy baholanishdan qo'rqishning o'zaro ta'sirini ochib beradi. Shu boisdan, psixologik amaliyotda ushbu ikki omilni birgalikda inobatga olish shaxsning hissiy barqarorligini mustahkamlash, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va ijtimoiy faoliyatda samaradorligini yuksaltirish uchun muhimdir.

Tadqiqot natijalari ta'lim tizimi, kasbiy rivojlanish hamda psixologik maslahat amaliyotida qo'llanilishi mumkin bo'lib, shaxsning ichki resurslarini rivojlantirish, tanqidni konstruktiv qabul qilishni o'rgatish va o'z yutuqlarini qadrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Clance, P. R., & Imes, S. A. (1978). The imposter phenomenon in high achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. *Psychotherapy: Theory, Research & Practice*, 15(3), 241–247. <https://doi.org/10.1037/h0086006>
2. Sakulku, J., & Alexander, J. (2011). The Impostor Phenomenon. *International Journal of Behavioral Science*, 6(1), 73–92.
3. Parkman, A. (2016). The imposter phenomenon in higher education: Incidence and impact. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 16(1), 51–60.
4. Watson, D., & Friend, R. (1969). Measurement of social-evaluative anxiety. *Journal of Consulting and Clinical Psychology*, 33(4), 448–457. <https://doi.org/10.1037/h0027806>
5. Weeks, J. W., Heimberg, R. G., & Rodebaugh, T. L. (2008). The Fear of Positive Evaluation Scale: Assessing a proposed cognitive component of social anxiety. *Journal of Anxiety Disorders*, 22(1), 44–55. <https://doi.org/10.1016/j.janxdis.2007.08.002>
Natijalar shuni ko'rsatdiki, psixologik xizmat pedagoglarning ish samaradorligini, ruhiy barqarorligini va kasbiy qoniqish hissini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu esa ta'lim tizimida pedagoglarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha strategiyalarni yanada rivojlantirish va zamonaviy psixologik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish zaruratini ko'rsatadi. Shu bilan birga, pedagoglarning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash ta'lim sifati, talabalar motivatsiyasi va innovatsion yondashuvlarni samarali joriy etish uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarga ko'rsatiladigan psixologik xizmatlar pedagoglarning ruhiy barqarorligini oshirish, ish samaradorligini kuchaytirish va kasbiy qoniqish hissini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Individual konsultatsiyalar, guruh treninglari, stressni boshqarish bo'yicha seminarlar hamda onlayn psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlari pedagoglarning ishdagi stress darajasini sezilarli darajada kamaytiradi, ularning ish motivatsiyasini oshiradi va murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali ishlashga tayyorlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, psixologik xizmatlarning tizimli va muntazam shakllari pedagoglar orasida yanada samaraliroq natijalar beradi. Zamonaviy psixologik yondashuvlar, masalan, mindfulness va kognitiv-behaviorial metodlar pedagoglarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, stressni boshqarish va pedagogik samaradorlikni oshirishda samarali vositalar sifatida ajralib turadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, psixologik xizmat pedagoglarning kasbiy charchashini kamaytiradi, ijobiy ish muhitini yaratadi va ta'lim jarayonining sifatini



oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagoglarning psixologik savodxonligini oshirish va psixologik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni samarali tatbiq etish uchun muhim shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alimov, R., & Karimova, S. (2020). O'qituvchilarga psixologik xizmatning samaradorligi. Ta'lim psixologiyasi jurnali, 12(3), 45–57.
2. Rashidov, A. (2019). Pedagoglarning ish yukining stressga ta'siri va psixologik yordam usullari. Pedagogika va psixologiya, 8(2), 23–36.
3. Qodirova, M. (2021). Psixologik xizmatni tizimli tashkil etish va pedagoglarning motivatsiyasi. Oliy ta'lim psixologiyasi, 5(1), 12–25.
4. Karimov, D., & Sobirov, I. (2020). Pedagoglarga psixologik xizmatning amaliy strategiyalari. Ta'lim va innovatsiya, 7(4), 67–80.
5. Nazarov, B. (2018). Zamonaviy psixologik yondashuvlar va ta'lim tizimiga integratsiyasi. Psixologik tadqiqotlar, 10(2), 34–48.
6. Sultonova, L. (2021). O'qituvchilarda ruhiy barqarorlikni oshirish metodlari. Pedagogik psixologiya, 9(3), 55–70.
7. Yoqubov, F., & Islomova, N. (2020). Psixologik xizmatlar tizimining amaliy samaradorligi. Ta'lim tadqiqotlari, 6(2), 41–56.
8. Abdullayeva, D. (2019). Kasbiy charchashni kamaytirish va ruhiy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha psixologik intervensiyalar. Psixologik amaliyot jurnali, 4(1), 28–42.

DESTRUKTIV AXBOROT TAHDIDLARIGA QARSHI PSIXOLOGIK PROFILAKTIKA STRATEGIYALARI

Barakayeva Nilufar Zubaydullo qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola destruktiv axborot tahdidlariga qarshi psixologik profilaktika strategiyalarini tahlil qiladi. Zamonaviy axborot makonida axborotning noto'g'ri, manipulyativ va salbiy ta'sir ko'rsatishi insonlarning ruhiy holati va ijtimoiy barqarorlikka tahdid solmoqda. Maqolada axborot tahdidlarining psixologik mexanizmlari, ularning shaxs va jamiyatga ta'siri, shuningdek, psixologik barqarorlikni saqlash va kuchaytirish bo'yicha samarali profilaktika usullari yoritiladi. Shuningdek, ma'lumotlarning tanqisligi va manipulyatsiyadan himoya qilish uchun axborot madaniyatini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, stressni boshqarish va psixologik himoya mexanizmlari o'rganiladi. Mazkur yondashuvlar destruktiv axborotga qarshi kurashda shaxs va jamiyat darajasida salbiy ta'sirlarni kamaytirish va barqaror muhitni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: destruktiv axborot tahdidlari, psixologik profilaktika, axborot manipulyatsiyasi, ruhiy barqarorlik, tanqidiy fikrlash, stress boshqaruvi, axborot madaniyati, psixologik himoya strategiyalari, ijtimoiy barqarorlik, axborot xavfsizligi.

Abstract: This article analyzes psychological prevention strategies against destructive information threats. In the modern information space, the incorrect, manipulative, and negative influence of information threatens the mental state and social stability of people. The article covers the psychological mechanisms of information threats, their impact on the individual and society, as well as effective prevention methods for maintaining and strengthening psychological stability. Mechanisms for improving information culture, developing critical thinking, stress management, and psychological defense are also being studied to protect against information scarcity and manipulation. These approaches play an important role in reducing negative impacts and creating a stable environment at the level of the individual and society in the fight against destructive information.

Key words: destructive information threats, psychological prevention, information manipulation, mental stability, critical thinking, stress management, information culture, psychological defense strategies, social stability, information security.

Аннотация: В данной статье анализируются стратегии психологической профилактики деструктивных информационных угроз. Неправильное, манипулятивное и негативное влияние информации в современном информационном пространстве угрожает психическому состоянию людей и социальной стабильности. В статье освещаются психологические механизмы информационных угроз, их влияние на личность и общество, а также эффективные методы профилактики для поддержания и укрепления психологической устойчивости. Также изучаются механизмы повышения информационной культуры, развития критического мышления, управления стрессом и психологической защиты для защиты от дефицита информации и манипуляций. Эти подходы важны для снижения негативного воздействия на уровне личности и общества и создания устойчивой среды в борьбе с деструктивной информацией.

Ключевые слова: деструктивные информационные угрозы, психологическая профилактика, информационная манипуляция, психологическая устойчивость, критическое мышление, управление стрессом, информационная культура, стратегии психологической защиты, социальная устойчивость, информационная безопасность.

KIRISH

Globalashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi insoniyat hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Xususan, axborot oqimining keskin ortishi ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, salbiy oqibatlarga ham zamin yaratmoqda. Bugungi kunda inson ongiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishga qaratilgan destruktiv axborot tahdidlari tobora kengayib, jamiyatning axborot xavfsizligi va ruhiy salomatligiga



jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu tahdidlar o'zining noan'anaviy ko'rinishlari bilan shaxsiy ongni manipulyatsiya qilish, noto'g'ri qarorlar qabul qildirish, ijtimoiy tushkunlik va ruhiy iztiroblarni kuchaytirish kabi oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Destruktiv axborot xurujlari nafaqat siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy kontekstda, balki inson psixikasiga, axloqiy-ruhiy muvozanatiga ham tahdid soladi. Aynan shu sababli, axborot xurujlarining psixologik oqibatlarini bartaraf etish va ularga qarshi barqaror immunitet hosil qilish jamiyat uchun muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bunda psixologik profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, bu borada muhim himoya vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur maqolada, destruktiv axborot tahdidlarining psixologik tabiati, ularning shaxs va jamiyatga ko'rsatadigan bosim mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bunday tahdidlarga qarshi kurashishda zarur bo'lgan psixologik profilaktika usullari, ularning samaradorlik omillari, shaxsiy va ijtimoiy immunitetni shakllantirishdagi roli chuqur o'rganiladi. Mavzu doirasida axborot madaniyatini yuksaltirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ongli qaror qabul qilish mexanizmlarining ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Hozirgi raqamli asrda axborot inson hayotining eng muhim strategik resurslaridan biriga aylangan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy kommunikatsiya vositalarining global miqyosda keng tarqalishi axborotni tezkor etkazish imkonini bergani holda, uni manipulyatsiya qilish, noto'g'ri talqin qilish va psixologik bosim vositasiga aylantirish xavfini ham keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tez sur'atda tarqalayotgan destruktiv axborotlar — yolg'on yangiliklar, vahima uyg'otuvchi kontentlar, manipulyativ ma'lumotlar va psixologik tahdidlar — jamiyatda salbiy kayfiyatlar, ishonchsizlik va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kuchaytirmoqda.

Destruktiv axborot tahdidlari ko'pincha ochiq ko'rinmaydi, ammo ularning psixologik ta'siri chuqur va barqaror bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, yoshlar, axborot filtrlash ko'nikmasi rivojlanmagan shaxslar va informatsion stressga zaif qatlamlar orasida keng tarqalgan. Natijada, shaxsiy identifikatsiya inqirozi, ijtimoiy befarqlik, ruhiy tushkunlik, xulq-atvor buzilishlari va hatto ekstremistik kayfiyatlar shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Shunday bir vaziyatda, bunday tahdidlarga qarshi faqat texnik yoki huquqiy choralar emas, balki psixologik jihatdan puxta o'ylangan profilaktik strategiyalar ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning axborotga bo'lgan munosabati, uni qabul qilish darajasi, emotsional reaksiyasi va ijtimoiy ongda o'zgarishlar bevosita psixologik omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, u nafaqat milliy axborot xavfsizligini ta'minlash, balki jamiyat ruhiy salomatligini asrash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va axborotga nisbatan ongli immunitet shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Destruktiv axborot tahdidlariga qarshi psixologik profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish — bu bugunning emas, balki kelajakning ijtimoiy barqarorligiga xizmat qiladigan ustuvor yo'nalishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Destruktiv axborot tahdidlari va ularga qarshi kurashish usullari so'nggi yillarda xorijiy va mahalliy ilmiy doiralarda keng muhokama qilinayotgan dolzarb masalalardan biridir. G'arb olimlari, xususan N. Chomsky, E. Bernays va Z. Baumanlar o'z izlanishlarida axborot vositalari orqali ommaviy ongga qanday ta'sir o'tkazilishini, manipulyativ kommunikatsiya mexanizmlari qanday ishlashini tahlil qilganlar. Ular axborotni boshqarish orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish, ruhiy holatni o'zgartirish va siyosiy irodani yo'naltirish mumkinligini ilmiy asoslab bergan.

Rossiya olimlaridan V. Lepskiy va N. Fedorovlar axborot-psixologik urushlar va ularning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini chuqur tahlil qilib, psixologik himoyaning davlat miqyosidagi ahamiyatiga e'tibor qaratishgan. Ularning fikricha, destruktiv axborotlar shaxsiy psixikani bevosita nishonga oladi va bu xavfga qarshi individual psixologik tayyorgarlik muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda bu sohada ilmiy tadqiqotlar nisbatan yangi bosqichda bo'lsa-da, ayrim mualliflar — Jumladan, A. To'xtasinov, M. Islomov, G. A. Ochldiyeva va boshqalar axborot madaniyati, yoshlar ongini himoya qilish, axborot xavfsizligi va media savodxonlikka doir tadqiqotlarda ushbu muammoning ayrim jihatlarini yoritib berishgan. Biroq destruktiv axborotning psixologik ta'siri va unga qarshi maxsus profilaktik strategiyalar masalasi hali to'liq tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, destruktiv axborot tahdidlariga qarshi samarali kurash faqat texnologik yoki siyosiy yo'nalishlarda emas, balki psixologik muhofaza va profilaktika choralarini shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu esa yangi ilmiy yondashuvlar, ko'p fanli (interdisiplinar) metodlar va amaliy strategiyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida psixologiya, axborot xavfsizligi, kommunikatsiya nazariyasi va sotsiologiya fanlari integratsiyalashgan yondashuv asosida tanlandi. Destruktiv axborotning psixologik ta'sirini aniqlashda quyidagi asosiy metodologik yondashuvlar qo'llaniladi:

1. Kognitiv-psixologik yondashuv

Bu yondashuv axborotning inson ongida qanday qayta ishlanishi, hissiy reaksiyalarning shakllanishi, stress holatlari va qaror qabul qilish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga imkon beradi. A. Bekk va D. Kaneman kabi olimlarning ishlanmalari asosida axborotga nisbatan shaxsning kognitiv immunitetini baholash mumkin.

2. Psixologik profilaktika nazariyasi

Bu yondashuv stressga chidamlilik, psixologik barqarorlik, emotsional moslashuvchanlik kabi shaxsiy sifatlar asosida axborot tahdidlariga qarshi immunitet hosil qilish mexanizmlarini o'rganadi. G. Caplan va R. Lazaruslarning ishlanmalari psixologik profilaktikaning zamonaviy modelini ishlab chiqishda asos bo'ladi.

3. Ijtimoiy-psixologik tahlil

Axborot muhitidagi destruktivlik ko'pincha ommaviy fikr, ijtimoiy norma va stereotiplarga ta'sir orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy psixologiya prinsiplari – ijtimoiy konformizm, taqlid, guruh bosimi kabi omillar axborot tahdidlarining kuchayish mexanizmini anglashda qo'llaniladi.

4. Media savodxonlik va tanqidiy fikrlash metodlari

Bu yondashuv yordamida axborot oqimlarini saralash, tahlil qilish, manipulyatsiyalardan himoyalaniish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ishlab chiqiladi. UNESCO, EUvsDisinfo kabi xalqaro tashabbuslarning metodik yondashuvlari tadqiqotga asos sifatida olingan.

5. Sifat va miqdoriy tadqiqot metodlari

Empirik tadqiqotlar uchun so'rovnoma, psixologik testlar, kontent-tahlil va yarim tuzilgan intervyular qo'llaniladi. Bu usullar orqali destruktiv axborotlarning psixologik ta'siri, unga bo'lgan individual va ijtimoiy reaksiya darajasi aniqlanadi.

Destruktiv axborotning zamonaviy ko'rinishlari. Hozirgi vaqtda destruktiv axborot tahdidlarining an'anaviy va noan'anaviy shakllari mavjud. Ular orasida quyidagilar ajralib turadi:

- Deepfake (soxta videolar va audiosignallar): shaxslar haqida soxta kontent yaratilib, ularning iiji, ijtimoiy obro'siga putur etkaziladi. Bu psixologik ishonchni buzadi.

- Infodemiya: noto'g'ri yoki manipulyativ ma'lumotlarning haddan tashqari ko'payishi orqali odamlar orasida charchoq, tushunmovchilik va xavotir kuchayadi. Ayniqsa pandemiya va inqiroz davrlarida bu holatlar yaqqol namoyon bo'lgan.

- Clickbait va sensatsion kontent: shov-shuvli sarlavhalar orqali shaxsni emotsional jihatdan charchatish, ruhiy beqarorlikni keltirib chiqarish vositasi sifatida ishlatiladi.

Psixologik ta'sir mexanizmlari. Destruktiv axborotlar odam ongiga bir necha asosiy yo'nalishlarda ta'sir qiladi:

1. Qo'rquv va xavotir uyg'otish: negativ kontent orqali odamlar ongida xavfsizlikka tahdid hissi shakllantiriladi.

2. Ijtimoiy yakkalanish: noaniqlik va ishonchsizlik odamni jamiyatdan uzoqlashtiradi, bu esa ruhiy salomatlikka zarar keltiradi.

3. Norma va qadriyatlarning buzilishi: destruktiv axborot jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy me'yorlarni nishonga oladi, shubha va konfliktlarni kuchaytiradi.

Psixologik profilaktikaning asosiy strategik yo'nalishlari

1. Axborotga nisbatan emotsional masofani shakllantirish

Odamlarga axborotni darhol ichki hissiyot bilan emas, balki tahliliy asosda qabul qilishni o'rgatish — psixologik himoyaning birinchi bosqichidir.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Destruktiv kontentni tanib olish va undan himoyalaniish uchun shaxsda tanqidiy fikrlash, savol berish va tahlil qilish ko'nikmalari bo'lishi kerak.

3. Axborot gigiyenasini shakllantirish

Odamlarga qaysi manbalarga ishonish, qaysi kontentni iste'mol qilish kerakligini o'rgatish, bu boradagi odatlarni shakllantirish psixologik mustahkamlikni oshiradi.

4. Psixologik mustahkamlikni (resilience) kuchaytirish

Stressni boshqarish, ijobiy emotsiyalarni saqlash, o'zini anglash kabi ko'nikmalar orqali shaxs destruktiv axborot tahdidlariga nisbatan bardoshli bo'lib boradi.

5. Media savodxonlik treninglari

O'quvchi, talabalar va keng jamoatchilik uchun treninglar orqali zararli axborotni tahlil qilish va undan himoyalaniishni o'rgatish.



Tadqiqot va amaliyot uchun yo'nalishlar:

- Turli yoshdagi odamlar (yoshlar, o'qituvchilar, davlat xizmatchilari) orasida destruktiv axborotga nisbatan psixologik reaksiya tahlili
- Destruktiv axborotni aniqlashdagi muammolar va noto'g'ri xulosalarning ruhiy oqibatlar
- Psixologik himoya mexanizmlarini (masalan, emotsional intellekt, stressga chidamlilik) rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida inson ongiga, axborot maydoniga, ijtimoiy ong va psixologik holatga tahdid soluvchi destruktiv axborotlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday tahdidlar jamiyat barqarorligiga, shaxsiy xavfsizlikka va milliy xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, destruktiv axborot tahdidlariga qarshi kurashda psixologik profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish zaruriyati dolzarb masalaga aylanmoqda.

1. Destruktiv axborot tahdidlarining mohiyati va shakllari

Destruktiv axborotlar – bu jamiyatda qo'rquv, noaniqlik, depressiya, adovat, ijtimoiy beqarorlik kabi holatlarni yuzaga keltiruvchi, ongli ravishda manipulyatsiya qiluvchi, noto'g'ri yoki yolg'on axborotlarni tarqatish orqali salbiy ijtimoiy va psixologik muhit yaratishga xizmat qiluvchi vositalardir. Bu tahdidlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- Yolg'on va manipulyativ axborotlar (feyk news);
- Psixologik bosim (trolling, cyberbullying);
- Propaganda va ideologik bosim;
- Ijtimoiy tarmoqlarda salbiy axborot kampaniyalari;
- Katastrofik voqealarni sun'iy shishirish (panika tarqatish).

Bunday axborotlar insonning ruhiy holatini izdan chiqaradi, ongli qaror qabul qilishga to'sqinlik qiladi, ijtimoiy agressiya va tushkunlik holatlarini kuchaytiradi.

2. Psixologik profilaktikaning ahamiyati

Psixologik profilaktika – bu shaxsni salbiy axborotlarga nisbatan barqaror psixologik immunitet bilan ta'minlash, uning ruhiy-psixik salomatligini asrash, qaror qabul qilishda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir.

Profilaktikaning asosiy maqsadi:

- Shaxsni ongli tanlovga tayyorlash;
- Axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmasini rivojlantirish;
- Stressga chidamlilikni oshirish;
- Ijtimoiy-psixologik barqarorlikni mustahkamlash

3. Strategik yondashuvlar va choralar

Destruktiv axborot tahdidlariga qarshi samarali psixologik profilaktika quyidagi strategik yondashuvlarni talab qiladi:

A) Axborot savodxonligini oshirish

Axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbalarni tekshirish, feyk axborotlarni aniqlash ko'nikmalarini o'rgatish zarur. Bu borada maktab, kollej, universitetlarda media savodxonlik fanlarini kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ruhiy barqarorlikni rivojlantirish (psixologik immunitet)

Shaxsning ruhiy sog'lig'ini saqlash, stressga qarshi chidamliligini oshirish, ijobiy emotsional fonni qo'llab-quvvatlash uchun:

- Treninglar (stress-menejment, konfliktologiya)
- Psixologik maslahatlar;
- Ommaviy axborot vositalarida ijobiy kontentlarni ko'paytirish;
- Psixologik xizmatlarni rivojlantirish muhim.

C) Targ'ibot-tashviqot va ijtimoiy ong bilan ishlash

Destruktiv axborotlarga qarshi milliy g'oya va mafkura asosida ijobiy, ruhlantiruvchi, ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi kontentlar ishlab chiqilishi va tarqatilishi lozim. Ijtimoiy tarmoqlarda ekspertlar, ruhshunoslar, etakchi shaxslar orqali jamiyatda emotsional barqarorlik targ'ib qilinishi zarur.

D) Tashkiliy va institutsional choralar

- Psixologik xizmatlar (maktab, universitet, ish joylarida);
- Maxsus monitoring tizimlari (destruktiv axborotlarni aniqlovchi);
- Hukumat va nodavlat tashkilotlar hamkorligi;
- Internet va OAV monitoringi va tartibga solish siyosati.

4. Yoshlar va ularning axborotga sezuvchanligi

Bugungi yoshlar – raqamli avlod, ularning asosiy axborot manbai – ijtimoiy tarmoqlar. Ular destruktiv axborotlar ta'siriga eng ko'p duchor bo'ladi. Shu sababli yoshlar orasida psixologik profilaktika:

- Psixologik treninglar;
 - Yoshlar liderlari orqali ijobiy ijtimoiy xatti-harakatlarni targ'ib qilish;
 - Raqamli texnologiyalar orqali sog'lom kontent etkazish orqali olib borilishi maqsadga muvofiqdir.
- Destruktiv axborot tahdidlarining psixologik oqibatlarini. Destruktiv axborotlar odamning:
- Kognitiv faoliyatiga (axborotni tushunish, tahlil qilish qobiliyati);
 - Emotsional holatiga (qo'rquv, xavotir, g'azab, depressiya);
 - Xulq-atvoriga (tajovuzkorlik, passivlik, ishonchsizlik) bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu tahdidlar jamiyatda quyidagi holatlarga sabab bo'ladi:

- Jamoatchilik orasida ishonchsizlik kuchayadi;
- Ijtimoiy ziddiyatlar kuchayadi (etnik, diniy, siyosiy);
- Ijtimoiy passivlik va loqaydlik yuzaga keladi;
- Tashqi kuchlarning axborot manipulyatsiyasiga nisbatan qarshilik susayadi.

Psixologik profilaktika faqat bitta chora-tadbir emas, u bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. Bosqich Mazmuni

1. Diagnostika Jamiyatda va yoshlar orasida qanday destruktiv axborotlar tarqalayotgani, ularning psixologik holatga ta'siri o'rganiladi.

2. Axborot savodxonligi Tanqidiy fikrlash, feyk axborotni aniqlash, emotsional manipulyatsiyalardan himoyalaniish ko'nikmalari beriladi.

3. Psixologik yordam va treninglar Stress, xavotir, depressiyaga qarshi treninglar, psixologik maslahatlar o'tkaziladi.

4. Ijobiy axborot muhiti yaratish OAV va internetda ijobiy, ruhlantiruvchi, sog'lom axborotlar ulushi ko'paytiriladi.

5. Monitoring va tahlil Profilaktika strategiyalarining natijasi baholanadi va yangilanadi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt (AI) asosida ishlaydigan tizimlar yordamida destruktiv axborotlarni aniqlash va oldini olish mumkin:

- AI vositalari yordamida feyk axborotni avtomatik aniqlash;
- Psixologik monitoring tizimlari (ijtimoiy tarmoqlarda salbiy kayfiyatli postlarni aniqlash);
- Emotsional sun'iy intellekt (chat va botlar orqali ruhiy yordam ko'rsatish).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi globallashuv va raqamli axborot maydonining kengayishi fonida destruktiv axborot tahdidlarining ko'payishi inson psixikasiga, ijtimoiy muhitga va jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu tahdidlar nafaqat yolg'on yoki manipulyativ axborotlar shaklida, balki ijtimoiy tarmoqlar, OAV va virtual muhit orqali ongli ravishda odamlarning emotsional holatini izdan chiqarish, ongini boshqarish va ularni salbiy xatti-harakatlarga undash tarzida namoyon bo'lmoqda.

Destruktiv axborotning psixologik ta'sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bunday xatarlarning oldini olishda oddiy bloklash yoki senzura etarli emas. Zarur bo'lgan eng muhim chora – bu psixologik profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish va tizimli ravishda amalga oshirishdir. Bu strategiyalar shaxsning axborotga nisbatan ongli yondashuvi, tanqidiy fikrlash layoqati, ruhiy barqarorlik darajasini oshirish, manipulyatsiyalarga nisbatan psixologik immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Media va axborot savodxonligini rivojlantirish:

- Maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida media savodxonlikka oid maxsus darslar, kurslar tashkil etish;
- Ommaviy axborot vositalarida tanqidiy fikrlash, feyk axborotlarni aniqlash bo'yicha ijtimoiy roliklar tayyorlash va targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

2. Psixologik immunitetni shakllantirish:

- Stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, depressiya va xavotir holatlariga qarshi ruhiy-psixologik treninglar o'tkazish;
- O'quv yurtlarida, tashkilot va muassasalarda psixologik maslahat markazlarini rivojlantirish.

3. Ijobiy axborot muhitini yaratish:

- Internet va ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlar, birlik, mehr-oqibat, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi kontentlar ulushini ko'paytirish;
- Bloggerlar, ommabop shaxslar, psixologlar ishtirokida ijtimoiy ongni ijobiy tomonga yo'naltiruvchi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.



4. Davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligini kuchaytirish:

- Destruktiv axborotlarni monitoring qilish bo'yicha maxsus tizimlar va markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish;
- NNTlar, OAV va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash orqali ommaviy profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish.

5. Yoshlar bilan tizimli ish olib borish:

- Yoshlar orasida destruktiv axborotlarga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan trening, seminar va forumlarni yo'lga qo'yish;
- Ularni sog'lom axborot muhiti shakllanishida faol ishtirok etishga jalb qilish.

Psixologik profilaktika samarador bo'lishi uchun u ko'p darajali yondashuvga ega bo'lishi kerak: individual (shaxsga yo'naltirilgan treninglar, maslahatlar), institutsional (ta'lim, OAV, tibbiyot tizimi orqali), va ijtimoiy (milliy axborot siyosati, digital madaniyat kampaniyalari). Shuningdek, davlat organlari, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va psixologlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlik zarur.

Ushbu tahdidlarga qarshi kurashda faqat texnik yoki huquqiy vositalar etarli emas. Bu jarayonda inson omili, ya'ni shaxsning ruhiy mustahkamligi, axborotni tahlil qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlash darajasi va psixologik barqarorligi muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, psixologik profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish, ularni turli yosh guruhlari va ijtimoiy qatlamlar uchun moslashtirish, ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Tojiboyev, S. R. (2022). Axborot xavfsizligi va ijtimoiy ong: psixologik tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimova, Z. M. (2020). Yoshlar va axborot tahdidlari: psixologik yondashuvlar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 29-iyundagi "Axborot xavfsizligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–5154-son qarori.
4. Abdullayeva, G. N. (2019). "Axborot makonidagi tahdidlar va ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri". // Psixologiya va hayot ilmiy-amaliy jurnali, №3, 45–50-betlar.
5. Shermatova, M. K. (2021). Axborot urushi va yoshlarning psixik himoyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Qodirov, R. A. (2023). "Destruktiv axborot tahdidlariga qarshi kurashda psixologik profilaktika mexanizmlari". // Ijtimoiy fanlar va zamonaviy tadqiqotlar, №1(12), 62–68-betlar.
7. UNESCO (2022). Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing.
8. Turobov, A. (2020). "Destruktiv axborot oqimlariga qarshi axborot savodxonligini shakllantirish". // Innovatsion ta'lim, №4, 33–39-betlar.
9. Зубаревич, Н. В. (2021). Информационная безопасность личности и общества. – Москва: Юрайт.
10. Ellis, D., & Potter, J. (2021). The Psychology of Fake News: Accepting, Sharing, and Fighting Misinformation. – New York: Routledge.

THE STRUCTURAL MODEL OF STUDENTS' ENGAGEMENT IN LIFELONG LEARNING

Y.K. Quliev

Associate Professor,
Department of Psychology and Sociology
Bukhara State University

Abstract: This article analyzes the structural model of students' engagement in lifelong learning, highlighting the socio-psychological characteristics related to students' commitment to continuous education. The study also reviews current models of educational engagement proposed by both local and international researchers. Students' engagement in lifelong learning is considered an independent socio-psychological phenomenon that emerges from the interaction between students and their social environment, including educational institutions, study groups, professional representatives, teachers, and others.

Key words: structural model of engagement, engagement in lifelong learning, structure of engagement in lifelong learning, four- and five-component models of engagement, professional environment.

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning umrbod ta'limga jalb etilishining (engagement) strukturaviy modeli tahlil qilinib, ularning uzluksiz ta'limga sodiqligi bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik xususiyatlar yoritiladi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan ta'limga jalb etilishning mavjud modellari ham ko'rib chiqiladi. Talabalarning umrbod ta'limga jalb etilishi ta'lim muassasalari, o'quv guruhlari, kasbiy vakillar, o'qituvchilar va boshqa ijtimoiy muhit subyektlari bilan o'zaro ta'sir natijasida shakllanadigan mustaqil ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: jalb etilishning strukturaviy modeli, umrbod ta'limga jalb etilish, umrbod ta'limda jalb etilishning tuzilishi, to'rt va besh komponentli jalb etilish modellari, kasbiy muhit.

Аннотация: В данной статье анализируется структурная модель вовлечённости студентов в непрерывное образование, раскрываются социально-психологические характеристики, связанные с их приверженностью к обучению на протяжении всей жизни. Кроме того, рассматриваются современные модели вовлечённости в образование, предложенные отечественными и зарубежными исследователями. Вовлечённость студентов в непрерывное образование рассматривается как самостоятельное социально-психологическое явление, формирующееся во взаимодействии студентов с их социальным окружением, включая образовательные учреждения, учебные группы, профессиональных представителей, преподавателей и других участников.

Ключевые слова: структурная модель вовлечённости, вовлечённость в непрерывное образование, структура вовлечённости в непрерывное образование, четырёх- и пятикомпонентные модели вовлечённости, профессиональная среда.

INTRODUCTION

Students' engagement in lifelong learning reflects the level of effort and energy they invest in performing educational activities, as well as the emotional experiences, cognitive, motivational, and meaningful processes associated with learning. Managing students' engagement in lifelong learning ensures the achievement of the ultimate goals of educational programs. A high level of engagement supports students in actively acquiring new knowledge and developing their professional competencies throughout the educational process.

When analyzing scholarly work on the issue of engagement, it is important to note that many researchers have attempted to conceptualize engagement as a multidimensional construct that includes several components. It should also be noted that within the field of organizational psychology, numerous studies have been conducted on the structure of engagement, with a primary focus on work-related activity and the organizational context.

Some researchers, when studying engagement, consider behavior as the sole and dominant criterion, evaluating behavioral manifestations of involvement as objective indicators. However, it should be emphasized that even when an individual demonstrates external activity and participation, this may not always be supported by internal cognitive and emotional engagement. In other words, we believe that in the study of engagement,



not only behavioral aspects but also other dimensions should be taken into account. When examining the model of students' engagement in lifelong learning, attention can be given to certain structural models that have been considered in various contexts—not only within educational activities but also in the context of work.

LITERATURE REVIEW

J. Fredricks' three-factor model includes three components: behavioral, emotional, and cognitive. Behavioral engagement is reflected in students' verbal and non-verbal actions. Emotional engagement relates to students' sense of belonging to the school (e.g., their relationships with peers, teachers, and other adults). Cognitive engagement is manifested in a sense of personal responsibility during the learning process and in reflective thinking while solving complex problems. Each of these three components is considered essential for understanding students' engagement. The author also notes that many studies tend to focus primarily on one aspect of student engagement—mainly the behavioral component[6].

The four-factor model of engagement includes academic, behavioral, cognitive, and psychological components[8]. Academic engagement variables include the amount of time spent on tasks, grades earned by the end of the course, and the completion of homework assignments. Behavioral engagement variables include class attendance, disciplinary actions taken against the student, and voluntary participation in classroom and extracurricular activities. Cognitive and psychological components reflect cognitive and motivational factors. These four components are not necessarily required for students to be consistently engaged. Rather, they are used to understand the various characteristics that influence the relationship between students and their learning environment[7].

In another model, students' engagement is characterized by energy, dedication, and absorption. N.A. Fedorova (2011), when describing the structure of student engagement, identified two main components: cognitive component, characterized by the assimilation of learning material, motivational component, which reflects interest in acquiring professional knowledge and developing professional skills. In the context of organizational psychology, K. Maslach, W. Schaufeli, and other scholars identified the following components of engagement: vigor, dedication to work, and self-efficacy.

J. Meyer and N. Allen, along with P. Morrow, considered engagement as an emotional component of commitment. Researchers from the CIPD (Chartered Institute of Personnel and Development) in the United Kingdom define the key components of engagement as: Focus on the task, Satisfaction with one's role, and Loyalty to the organization, its goals, and values[7]. Based on the studies described above, it is important to note that a model of engagement in lifelong learning can be developed. Engagement in lifelong learning emerges in the process of an individual's professional development, and it reflects the learner's goal-directed activity in acquiring knowledge throughout their professional life. An analysis of the available literature on this issue suggests that in the structure of engagement in lifelong learning, both objective and subjective components can be distinguished.

RESEARCH METHODOLOGY

The objective component is manifested at the behavioral level through external expressions (which are easily observable), and many engagement studies focus specifically on this level. The subjective component, on the other hand, is identified through internal processes of the individual and is not readily observable. These include beliefs, attitudes, needs, motivations, meanings, and so on. The study of subjective components is not as widespread. It is also important to highlight the interrelation between the objective and subjective components of engagement in lifelong learning. Furthermore, based on a deep and comprehensive study of the phenomenon of engagement in lifelong learning—as an integral part of professional development activities—Russian scholars, particularly N.V. Kiseleva (Doctor of Sciences, Moscow State University of Psychology and Education), have developed a five-component structural model of student engagement in lifelong learning.

In this model:

-The objective component is represented by the behavioral component.

-The subjective component is represented by four components: cognitive, emotional, motivational, and value-based.

In particular:

1.Cognitive Component (Reflects various perceptions of lifelong learning)

– Perceptions of lifelong learning, its level of necessity for professional development, and its importance within reference groups;

– Understanding of the learning environment (peer groups, teaching staff, and other groups involved in the educational process);



- Perceptions of one's professional future, self-efficacy, the ability to acquire professional knowledge and develop competencies, and the opportunity to realize creative potential within the profession;
- Perceptions of the "rational benefits" of lifelong learning — i.e., the ratio between the costs of education and the potential benefits (e.g., status, salary);
- Perceptions of the availability and quality of education;
- Confidence in one's professional future and the belief that investments made in education will lead to professional fulfillment and the achievement of desired outcomes.

2. Emotional Component (Reflects the affective attitude toward lifelong learning and the dominant emotions experienced during the educational process)

- Positive and negative emotions experienced during the learning and professional development process;
- Emotional evaluation of the learning process, its outcomes, and the content and format of educational programs;

- Degree of satisfaction with the learning process;
- Experiences of immersion or absorption during educational activities;
- Attitude toward the chosen profession and its perceived attractiveness.

3. Behavioral Component (Reflects the individual's behavioral activity in the learning process)

- Participation in lifelong learning programs and related activities;
- Completion of required formal educational procedures;
- Time allocated to learning;
- Level of activity and willingness to maintain or increase engagement in the future, including readiness to exert additional effort;

- Tendency to reduce effort in learning activities;
- Social interactions and engagement with other participants in the learning process, including gradual entry and integration into the professional environment.

4. Motivational Component (Reflects the perceived necessity of lifelong learning)

- The content and strength of the motivations underlying the student's educational activity (e.g., intrinsic vs. extrinsic motivation);

- The learner's professional needs that they plan to fulfill through education, including aspirations toward professional competence and achievement;

- Motivations related to personal growth and self-actualization that are satisfied in the course of learning.

5. Value-Based Component (Reflects the personal significance of lifelong learning and the values attributed to it by the individual)

- The importance of lifelong learning for professional activity;
- The personal value placed on one's profession, the aspiration to "be the best" in one's field, the importance of remaining competitive and in demand in the labor market;
- The significance of belonging to a professional group;
- The value of the professional environment itself;
- The presence of personal meaning in the educational process;
- The value of lifelong learning for personal and professional growth, as well as for self-realization;
- The voluntary nature of career choice, confidence in that choice, and the development of professional identity;
- The importance of lifelong learning for successful adaptation and socialization in modern conditions.

Analysis and Results

Based on various combinations of behavioral and value-based components, as well as the degree to which these are expressed, N. Kiseleva identified four types of engagement:

1. Active Engagement (AE) Characterized by a high level of behavioral engagement combined with a strong value placed on education. The student actively participates in learning and attributes significant importance to the educational process.

2. Compelled Pseudo-Engagement (CPE) Characterized by high behavioral engagement, but low personal meaning and value attributed to the learning process and professional development. The student appears engaged, but this behavior is not supported by intrinsic motivation or perceived value.

3. Passive Engagement (PE) Characterized by low behavioral activity, yet accompanied by a high value placed on education. The student considers learning important but demonstrates minimal involvement in the educational process.

4. Lack of Engagement (LE) Characterized by both low behavioral engagement and low attribution of value to education. The student neither participates actively in learning nor considers it personally meaningful.

Engagement in lifelong learning can be regarded as a phenomenon arising during a person's professional development process. Engagement in the educational process reflects the learner's purposeful activity aimed



at a specific goal and includes the subjective evaluation of the importance of the learning process. It should also be noted that learners' engagement in the educational process has an uneven character. Specifically, during certain periods of learning activity, learners' involvement in the educational process may be high, while during other periods it may be lower. This phenomenon may be related to factors such as:

- crises in professional identity awareness;
- understanding the value of the competencies being acquired for future professional work;
- the level of satisfaction with the educational process; and so forth.

The dynamics of learners' engagement in lifelong learning are considered within the context of their interaction with the external environment and deserve special attention. When studying learner engagement as a socio-psychological phenomenon, it is necessary to examine it within the framework of the interaction between the individual and their environment: engagement is shaped by the influence of internal personal factors and external environmental factors (such as engagement with the professional environment, social groups, professional communities, and higher education institutions). These factors include:

- individual psychological and personal characteristics;
- the perception of one's own effectiveness and ability;
- the sense of success or failure;
- motivational characteristics and volitional qualities;
- the learner's engagement with professional communities, their interaction with higher education institutions, and other processes occurring in society and the immediate social environment.

Today, engagement in lifelong learning has become an integral part of the life of a modern specialist with a profession, where educational activity remains relevant throughout life. Engagement in lifelong learning facilitates the successful acquisition of new knowledge, skills, and competencies, which in turn helps better adapt to constantly changing conditions and enables the mastery of professional competencies necessary to remain competitive in the labor market.

UNESCO's "Education Strategy for 2014–2021" identifies lifelong learning as a "fundamental organizing principle" for all forms of education. This principle is based on the belief that the education system must support lifelong learning and create opportunities for formal, non-formal, and informal learning for people of all ages. In this process, the focus should not only be on providing knowledge and developing specific skills but also on cultivating broad competencies that serve to realize learners' potential. I.P. Pecheransky emphasizes that "one of the mega-trends of the new century, alongside demographic changes and globalization, is lifelong learning"[7]. Taking these characteristics into account when studying engagement in lifelong learning, three main areas of focus can be distinguished:

- Engagement in the educational process.
- Engagement in the development of professional competencies within the lifelong educational activity process.
- Engagement in social interactions with the professional environment, including teachers, other learners, and representatives of the chosen profession — owners of professional culture and competencies.

Each of these directions can be an independent object of research. For example, engagement in the educational process can be studied within pedagogy, even outside the context of lifelong learning. Engagement in professional development may be investigated in andragogy and acmeology. Engagement with the professional environment could be a topic of interest in organizational and social psychology. At the same time, in real-life conditions, all these phenomena are interrelated.

Thus, engagement in lifelong learning can be described as a multi-level system: sectors represent components of engagement, while levels reflect its substructures (subcomponents). Summarizing the existing materials, it is important to emphasize that "engagement in professional development" is the individual's striving to develop their professional competencies, the desire to accumulate life experience; consciously seeking opportunities for professional development within the social environment; manifested through the person's activity — that is, understanding their intentions, organizing professional development, and recognizing their responsibility towards this process.

"Engagement with the Professional Environment and Social Interaction".

Traditionally, the professional environment often defines the content of vocational education. Currently, numerous efforts are underway to adapt the educational process to the demands of the professional environment. However, this process is primarily implemented in higher education institutions and is not yet fully applied across all stages of the lifelong learning system. Throughout the educational activity, a gradual adaptation to the professional environment occurs. Over time, as learners engage in educational activities and develop professional competencies, the scope of their professional community expands, leading to a deeper understanding of professional norms and values, and the fulfillment of professional needs within significant social groups (reference groups).

This article seeks to further explore the essence of engagement with the professional environment from a social-psychological perspective. "Engagement with the professional environment" refers to an individual's active interaction with the professional milieu, manifested through behavioral activity both within and outside the environment, representing themselves as a member of that professional community. Such engagement is expressed through the individual's emotional attachment to the environment and their loyalty to the professional goals and values.

The professional environment, in turn, is a complex system comprising professional activity subjects, the conditions under which this activity takes place, and their interactions and mutual influences. It facilitates an individual's awareness of their professional affiliation, acceptance of professional principles, integration into professional culture, and ensures professional growth and development. Participants in the professional environment include competent specialists, newcomers (students and young professionals), professional groups and communities, higher education institutions, departments, organizations, and others.

Egoistik deviant xulq-atvorli bolalar va o’smirlarning eng xos shaxsiy ruhiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ularga quyidagilar xos: boshqalarning kechinmalariga befarqlik, kelishmovchilik, obro‘-e’tiborni tan olmaslik. Deviant xulq-atvor tuzilmasidagi egotsentrizm barqaror kasallik holati sifatida qaraladi. Odatda, egotsentrizm o‘zini anglash va o‘z yo‘lini belgilashga yordam beradigan o‘ziga e’tibor qaratish uchun zarur bo‘lgan rivojlanish bosqichidir. Biroq, deviant xulq-atvor holatida egotsentrizm haqiqiy qiyinchiliklarni yashiradigan va insonda soxta muvaffaqiyat tasavvurini yaratadiganch “himoya mexanizmi”ga aylanadi. Egotsentrizmdan deviant xulq-atvor bilan bog‘liqlik mexanizmi shundaki, insonning o‘zi haqidagi tasavvurlari buziladi. Unga o‘z fazilatlarini haddan tashqari baholash xos bo‘lib, bu jamiyatning u haqidagi tasavvurlariga kam mos keladi [5].



Deviant guruhlardagi yigitlar va qizlarda “deviant xulq-atvorga moyillik” bilan “ekstraversiya” o’rtasidagi sezilarli kuchli korrelyatsion bog’liqlik ularning quyidagi psixologik xususiyatlari bilan izohlanadi: muloqotchanlik, impulsivlik, tashabbuskorlik, xulq-atvorning moslashuvchanligi, doimiy aloqalarga intilish, yangi taassurotlarga qiziqish, xatti-harakatlarning erkin shakllari, yuqori harakat va nutq faolligi. Ular his-tuyg’ularini doim ham qat’iy nazorat qila olmaydilar va tajovuzkorlikka moyillik ko’rsatadilar.

Deviant guruhdagi qizlarda “deviant xulq-atvorga moyillik” bilan “neyrotizm” o’rtasidagi ahamiyatli kuchli korrelyatsion bog’liqlik neyrotizmning ularning xulq-atvorida og’ishlar shakllanishi ehtimolini oshiruvchi omillardan biri ekanligi bilan izohlanadi. Neyrotizmning muayyan darajasiga limbik tizimda faollashuvning ma’lum darajasi mos keladi: hissiy beqarorlikning kuchayishi organizmning ichki muhitidagi hodisalarga nisbatan yuqori ta’sirchanlik natijasi bo’lsa, hissiy barqarorlik, aksincha, past ta’sirchanlik natijasidir [6]. Neyrotizm darajasi va deviant xulq-atvor o’rtasida o’zaro bog’liqlik mavjud. Neyrotizm darajasi yuqori bo’lgan o’smirlar salbiy his-tuyg’ularga ko’proq beriluvchan bo’lib, tushkunlik holatlariga tez-tez duchor bo’ladilar. Ularni xavotirli, zaif, qo’rqoq, o’ziga ishonchsiz, shuningdek, stress ta’sirida asabiy holatlarga tushishga moyil deb ta’riflaydilar. Neyrotizm darajasi yuqori bo’lgan o’smir hissiy barqaror o’smirlarga qaraganda deviant xulq-atvorni tezroq namoyon etadi, deb hisoblanadi. Biroq, shuni e’tiborga olish lozimki, deviant xulq-atvorga boshqa omillar ham, masalan, ijtimoiy omillar, tarbiya muammolari, rivojlanishning muhim bosqichlari va boshqalar ta’sir ko’rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotning 1-jadval (yigitlar) va 2-jadval (qizlar) ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, yigitlar tanlanmasida (n=178) “internetga qaramlik” ko’rsatkichi “neyrotizm”, “introversiya” hamda “shaxsning muloqot va o’zaro ta’sirga yo’naltirilganligi” bilan kuchli korrelyatsion bog’liqlikka ega.

Deviant guruhdagi qizlar tanlanmasida (n=107) “internetga qaramlik” ko’rsatkichi xuddi shunday “neyrotizm” va “introversiya” bilan “shaxsning muloqot va o’zaro ta’sirga yo’nalganligi”, shuningdek “shaxsning o’ziga yo’nalganligi” bilan kuchli korrelyatsion bog’liqlikka ega.

Deviant guruhlardagi yigitlar va qizlarda internetga qaramlikning neyrotizm va boshqa shaxsiy psixologik xususiyatlar bilan aloqadorligi tadqiqotchilar tomonidan internetga qaramlik shakllanishining xavf omillari sifatida tavsiflanadi (O.Yu. Kocherova, O.M. Filkina, A.V. Boboshko va boshqalar, 2018) [7]. Qizlarda yuqori neyrotizm va introversiya, o’g’il bolalarda esa introversiya o’smirlarda internetga qaramlik shakllanishining xavf omillari hisoblanadi. Bu guruhlarda neyrotizm darajasining ortishi aniqlik, aqliy mehnat qobiliyati va o’zlashtirishning pasayishi bilan birgalikda 15-17 yoshli o’smirlarda ham internetga qaramlik shakllanishining xavf omili sanaladi. Internetga qaramlik darajasining ball bahosi va neyrotizm darajasi o’rtasida to’g’ridan-to’g’ri korrelyatsion bog’liqlik aniqlangan. Internetga qaramlikning rivojlanish xavfi mavjud bo’lganda, qizlarda o’g’il bolalarga qaraganda ko’proq introversiya kuzatiladi, internetga qaramlik guruhida esa ekstraversiya va yuqori neyrotizm namoyon bo’ladi. Internetga qaramlikka chalingan o’g’il bolalarda qizlarga nisbatan sentroversiya ko’proq qayd etilgan. Internet qaramligi kuchli bo’lgan o’smirlarda aniqlik va aqliy ish qobiliyati koeffitsiyentining eng past ko’rsatkichlari hamda past o’zlashtirish darajasi kuzatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, №PF-5106, 5 iyul 2017 yil “yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”.
2. Экстраверсия, интроверсия ва девиант хулқ ўртасидаги боғлиқликлар /ebooks.grsu.by [cyberleninka.ru>article/n/psiholog...](http://cyberleninka.ru/article/n/psiholog...)
3. Соболева М. О. Психологические характеристики современных девиантных подростков // Вестник РГГУ. Серия “Психология. Педагогика. Образование”. - 2018. - № 4 (14). - С. 40-49.
4. Дроздов С.В., Логвинова М.И., Логвинова Т.И. Психологический портрет современного деструктивного лидера подросткового возраста // Журнал “Пензенский психологический вестник”. - 2015. - № 1 (4). - С.108-128
5. Фокина А.В. Роль личностного эгоцентризма в структуре подростковой девиантности : автореферат дис. ... кандидата психологических наук (специальность ВАК РФ 19.00.13). МГУ им. М.В. Ломоносова. — Москва, 2008. — 22 с.
6. Альшанская М.В., Александрова Н.В., Вихорева Е.В. Личностные особенности подростков с поведенческими нарушениями // Омский психиатрический журнал.- 2017. - № 4 (14). http://omskoop.ru/opj/2017_04.pdf
7. Личностные факторы риска развития интернет-зависимости у подростков 15–17 лет / О.Ю. Кочерова, О.М. Филькина, А.В. Бобошко, Е.А. Воробьева, Н.В. Долотова, А.И. Малышкина // Анализ риска здоровью. – 2024. – № 3. – С. 21–29. DOI: 10.21668/health.risk/
8. Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. - Тошкент, “Фан” нашриёти. – 2008. – 314 б.
9. Асадов Ю. М., Тайлаков Н.И. Диагностика и коррекция учащихся, склонных к правонарушениям и преступлениям. Методическое пособие. УЗНИИПН им. Кары Ниязи. - Ташкент, 2018.- 64 с.
10. Юнусова Г.С. Ўсмирлар ўртасида жиноятчилик профилактикасининг психологик механизмлари (оила аспекти) // Мактаб ва ҳаёт. - 2021. - № 6.

O'SMIRLIK DAVRIDAGI STRESSNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Tulyaganova Gulnoza Olimjonovna

Alfraganus universiteti

Psixologiya kafedrası v.b. dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, bu davrda shaxsning emotsional beqarorligi, identifikatsiya jarayonlari hamda stress omillariga nisbatan psixologik himoya mexanizmlari tahlil qilingan. Ota-ona va pedagoglarning o'smirlarning hissiy holatini barqarorlashtirish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va inqirozli vaziyatlarning oldini olishdagi o'rni alohida yoritilgan. Shuningdek, o'smirlarning stressga chidamliligini oshirishda psixoprofilaktik dasturlar, treninglar va pedagogik-psixologik yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, emotsional beqarorlik, psixologik inqiroz, stressga moslashuv, ota-ona qo'llab-quvvatlashi, pedagogik yondashuv.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the psychological characteristics of adolescence, focusing on emotional instability, self-awareness development, and coping mechanisms in response to stress factors. Particular emphasis is placed on the role of parents and educators in maintaining adolescents' emotional balance, fostering effective communication skills, and preventing crisis situations. Furthermore, the paper discusses the implementation of psychological and pedagogical interventions, resilience-building programs, and stress-management training aimed at enhancing adolescents' mental well-being and adaptive capacities.

Key words: adolescence, emotional instability, psychological crisis, stress resilience, parental support, educational interventions.

Аннотация: В статье анализируются психологические особенности подросткового возраста, включая эмоциональную нестабильность, процессы самосознания и стратегии совладания со стрессом. Особое внимание уделено роли родителей и педагогов в поддержании психоэмоционального равновесия подростков, формировании навыков конструктивного поведения и предупреждении кризисных ситуаций. Рассматриваются современные психолого-педагогические технологии и профилактические программы, направленные на развитие стрессоустойчивости и эмоциональной регуляции в подростковом возрасте.

Ключевые слова: подростковый возраст, эмоциональная нестабильность, психологический кризис, стрессоустойчивость, поддержка родителей, педагогическая профилактика.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar hamda etnik, iqlimiy va siyosiy hamda boshqa global o'zgarishlar fonida ro'y berayotgan psixologik jarayonlar turli yosh davridagi kishilarga psixologlar tomonidan alohida yondashuv talab eta boshladi. Ayniqsa, hozirgi kunda o'smirlar nafaqat o'smir, balki jamiyatga ta'sir o'tkazishning asosiy vositasi sifatida qaralayotgani ularda kelib chiqadigan stress xavfini yanada oshirdi.

Yosh davrlari psixologiyasidan bizga ma'lumki, o'smirlik davri inson shaxsining rivojlanishi va kamol topishida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davr inson hayotidagi tub burilish davri bo'lib, tashqi ko'rinish va xulq-atvordagi ahamiyatli o'zgarishlar bilan birga kechadi. Ana shu o'zgarishlar ta'sirini turlicha qabul qilishi natijasida o'smir psixologiyasida ijobiy yoki salbiy xulq-atvor shakllari rivojlanadi. Shuni inobatga olgan holda inson hayotining eng muhim davri bo'lgan o'smirlik davrining o'ziga xosligi va bu davrda kechadigan inqirozlar haqida ma'lumotlarni tahlil qilishning dolzarbligini O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikri orqali ta'kidlash mumkin: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalo, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak...".



Shunday ekan, o'smirlik davri psixologiyasini bilish bu yosh davri bilan ishlayotgan har bir pedagog, xodim va ota-ona uchun muhim hisoblanadi. Maqolada ayni shu davrga xos bo'lgan psixologik o'zgarishlar va inqirozlar haqida ma'lumotlar berilgan.

O'smirlik davri inson shaxsining rivojlanishi va kamol topishida alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu davrda o'smir faoliyat doirasi kengayadi, uning xarakteri o'zgaradi, shaxslilik tizimida ilgari shakllangan tuzilmalarning qayta qurilishi va yangi tuzilmalarning yuzaga kelishi bilan bog'liq keskin o'zgarishlar yuz beradi, axloqiy tasavvurlar va ustanovkalarining yo'nalganligi namoyon bo'la boshlaydi. Bu holatlarning barchasi o'smirning fiziologik va psixik rivojlanishi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, uning ma'naviy kamoloti jarayonida ko'zga tashlanadi. Shu bois ham o'smirlik davri ko'pgina olimlar tomonidan "qiyin", "murakkab", "inqirozli" davr deb baholanadi.

Mutaxassislar tomonidan bu davr bolaning psixologik shakllanishida eng qiyin davr ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Va buning sababi sifatida fiziologik jihatdan organizmdagi keskin o'zgarishlar uning ruhiyatida ham "qayta qurilish"larga olib kelishi qayd etiladi. Bunday "qayta qurilish" jarayonida o'smirlik yosh davrining umumiy xususiyatlari sifatida sababsiz bezovtalanish, yuqori qo'zg'aluvchanlik, o'zini-o'zi baholashning o'ta pasayib ketishi (ayrimlarda aksincha o'ta yuqori baho), kayfiyatning juda tez o'zgaruvchanligi, emotsional noturg'unlik, quvnoqlikdan kutilmaganda tushkunlik va pessimizmga o'tish kabi holatlar kuzatiladi.

Organizmdagi tez o'sish va qayta qurilish jarayoni tufayli o'smirlik davrida o'z tashqi ko'rinishiga bo'lgan qiziqish ham keskin ortib boradi. O'smirda jismoniy "Men"ning yangi obrazi vujudga kela boshlaydi. Ota-onalar bu holni o'smirning oyna oldidan ketmayotganligidanoq fahmlab olishlari mumkin bo'ladi. Va bunday davrda o'smirning tashqi ko'rinishida bo'layotgan barcha o'zgarishlar — tana qismlarining noproportional tarzda o'sayotgani, yuz tuzilishining o'zgarishi, bolalikdagi tozaligini yo'qotayotgan teri, semirib ketish yoki ozib ketish — o'smir tomonidan bezovtalanish bilan qabul qilinadi, unda yetishmovchilik kompleksi yuzaga keladi.

Shunday zo'riqishni his qilayotgan o'smirning ota-onasi uni "oyna oldidan keta olmay qolgan"ligi uchun unga jahl qilmasdan, balki bo'layotgan o'zgarishlarning tabiiy ekanligi va bu jarayon hammada ham sodir bo'lishini tushuntirishlari va unga dalda bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Demak, o'smirlarning o'z tashqi ko'rinishlaridagi o'zgarishlarga bo'lgan og'ir emotsional reaksiyalarini kattalarning iliq va ishonchli munosabatlari engillashtiradi. Kattalarning aksincha yoki befarq munosabati esa o'smirning pessimizm va nevrotizmga berilishiga olib keladi. Ota-onaning ana shunday daldasi yuqoridagi holatdagi o'smirni stress holatlaridan asrovchi omillardan biri bo'lishi mumkinligini ham ota-onalar unutmashliklari lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorij psixolog olimlaridan biri F. Raysning fikricha: "O'smirlarning ovozi ham, ko'zi ham boshqacha, eng muhimi atrof-muhitni idrok etishi, boshqa odamlarga munosabati, talablari, qiziqishlari, istak-hohishlari sifat jihatidan boshqa yoshdagilardan tamomila farq qiladi". Uning ta'kidlashicha, "o'smirning atrofida gilar bilan o'zaro munosabatlaridagi ziddiyatlar bois nizolashuvchanlik va hatti-harakatlaridagi qarama-qarshiliklar kattalar tomonidan anomaliya, jamiyat qoidalaridan og'ish deb qabul qilinadi".

O'smirlik davrining yirik tadqiqotchilaridan yana biri — nemis faylasufi va psixologi E. Shpranger, o'smirlik yoshi qizlarda 14–21 va o'g'il bolalarda 13–19 yoshlargacha davom etib, uning birinchi bosqichi 14–17 yoshlarga to'g'ri kelib, bu yoshda "bolalikdan qutulish" sodir bo'lishini ta'kidlaydi. U o'zining o'smirlik yoshining madaniy-psixologik konsepsiyasida rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan o'smirlarni uchta tipga ajratib ko'rsatadi:

Birinchi tip – o'zgarishlarni keskin, inqirozli, shiddatli qabul qiladi va o'smir o'zini ikkinchi marta tug'ilgandek his etadi, natijada uning yangi "Men"i vujudga keladi.

Ikkinchi tip – o'smirning kattalik hayotiga o'tishida bosqichlik, sokinlik, uzluksizlik sezilib, uning shaxsiyatida chuqur va jiddiy o'zgarishlar ro'y bermaydi.

Uchinchi tip – bu rivojlanish jarayonining shunday bosqichiki, o'smir o'z ichki kechinmalari va inqirozlarini matonat bilan engib, o'zini o'zi faol anglagan holda shakllantiradi hamda tarbiyalaydi.

E. Erikson o'smirlik yoshini inson hayotining eng qiyin davrlaridan biri deb baholab, bu davr yaxlit shaxs sifatida shakllanish, nafaqat fiziologik yetilish va shaxsiy biografiya, balki jamiyatdagi ma'naviy muhit va mavjud ijtimoiy mafkuraga nisbatan ichki norozilikdan iborat psixologik zo'riqish davri ekanligini izohlab bergan.

V. S. Muxinaning fikricha, o'smirlarda kuzatilayotgan akseleratsiya jarayoni shaxslilikning rivojlanishi uchun muhim sharoit yaratadi. Hatto aytish mumkinki, erta balog'atga eta boshlagan o'g'il-qizlarda o'ziga ishonch va xotirjamlik kuzatiladi. Ayniqsa, o'g'il bolalar uchun balog'at muddatlari juda ahamiyatli, chunki jismoniy jihatdan balog'atga yetgan o'g'il bola tengdoshlariga nisbatan kuchliroq bo'lib, sportda va jismoniy faoliyatning boshqa turlarida ko'proq muvaffaqiyatga erishishi bilan ajralib turadi va bu holat o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda o'ziga ishonchning yuqoriroq bo'lishiga olib keladi.

Shu o'rinda milliy mentalitet nuqtai nazaridan aytish mumkinki, ayrim o'smir qizlardagi erta balog'atga yetish atrofidagi kattalar tomonidan ijobiy qabul qilinmasligi va buni munosabatlarida namoyon qilishi ham,

o'zidagi erta o'zgarishlarning sababini anglamasligi natijasida, ayrim o'smir qizlarda xavotir va odamovilik holatlari kuzatilishi ham mumkin.

L. S. Vigotskiy o'smirlik davridagi tafakkur rivojlanishi masalasini o'rganib, o'smirlarning tafakkuri tashqi olamni o'zlashtirish asosida kechishini va o'smir tafakkuri subyektiv shaklga ega bo'lib, o'zgalardan "sir" tutiladigan intim jabhalarga qaratilishini, hamda o'smir shaxsining ichki o'zgarishlarini qamrab oluvchi refleksiya rivojlanishini — ya'ni o'zligini anglashdek yangilanishlar ro'y berishini qayd etadi. Ushbu psixologik yangilanishlar o'smirning motivasion tizimida ma'lum salbiy reaksiyalarni qo'zg'atib, ichki va tashqi nizolarni keltirib chiqaradi hamda tarbiyasi "qiyin"lik ko'rsatkichiga aylanadi.

O'zbek psixologiyasining asoschilaridan biri E. G'. G'oziyevning fikricha: "Maktab ta'limining bevosita ta'siri bilan o'smirda o'zini anglash jarayoni rivojlana boshlaydi. U o'zining fikriga, mustaqil qarashiga, mulohazasiga ega bo'lish uchun harakat qiladi. Shuning uchun o'qituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy nuqtai nazardan qaraydi. Ko'pincha o'qituvchining mulohazasidan, kitob va darsliklardan xato va kamchiliklar topishga intilib, o'z gapida turib, ayrim fikrlarga qat'iy e'tiroz bildirishga, tortishishga, bahslashishga moyil bo'ladi. Aqlning tanqidiyligi ayrim hollarda o'qituvchi va o'quvchi orasida "anglashilmovchiliklar"ni keltirib chiqaradi".

Shu o'rinda o'smirlarga ta'lim berayotgan o'qituvchilar va tarbiya berayotgan ota-onalarga alohida ta'kidlash lozimki, o'smir tafakkurida o'zini "katta odam", "mustaqil odam" deb hisoblash sodir bo'layotganligi bois ular kattalarning ishlarini, gaplarini o'zlaricha tahlil qiladilar va o'z shaxsiy fikrlarini bildiradilar. Ularning fikrlari kattalarga yoqmasa, bundan xafa bo'lish, ularga tanbeh berish emas, balki ular bilan dildan suhbatlashish, ularga fikrining xato ekanligini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Bolalik hayotida latent holatdan o'smirlikka o'tishda bir qator o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar bolaning oldingi xulq-atvoriga o'rgangan ota-onalar va o'qituvchilar uchun rivojlanishdagi regressiya sifatida katta tashvish va qayg'uiga sabab bo'lishi mumkin. Latent yosh davridagi (5 yoshdan 11–12 yoshgacha) aniq va yaqqol ifodalanuvchi xarakter xislatlari o'rnini, o'smirlik yoshida (taxminan 11–12 yoshdan to 14 yoshgacha) kechadigan xudbinlik, atrofidagilarga befarqlik, oilaviy o'zaro munosabatlardagi disgarmoniya, shaxslararo subordinasiyaning buzilishi, o'z diqqatini o'quv predmetlariga to'play olmaslik, o'qishga nisbatan qiziqishlarining so'nishi kabi bir qator illatlarni namoyish etishi bilan o'smir hammani hayratga soladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Balog'atning obyektiv tashqi namoyon bo'lishi bilan bir vaqtda o'smirda o'ziga katta odamdek munosabatda bo'lish hissi ham paydo bo'ladi. Mazkur subyektiv jihat o'smirlik davrining markaziy yangi tuzilmasi hisoblanadi. O'zini kattalardek his qilish — o'zini o'zi anglashning alohida shakli bo'lib, o'smirning boshqalar (asosan ota-onasi va o'qituvchilari) unga katta odamlarga munosabatda bo'lgandek munosabatda bo'lishlarini istash hissiyotida namoyon bo'ladi. O'smir kattalar bilan teng huquqli munosabatlarda bo'lishga da'vogarlik qiladi va o'z pozitsiyasini himoya qilish uchun ota-onasi va o'qituvchilari bilan nizoga ham boradi. Shuningdek, kattalar safiga qo'shilish hissi mustaqillikka intilish, hayotining ayrim tomonlariga aralashishdan ota-onasini, o'qituvchilarini chetlashtirishda ham namoyon bo'ladi.

O'smirlik davri yuqori qo'zg'aluvchanlik, emotsiyalar va xulq-atvor noturg'unligi bilan birga kechadi, o'smirlar o'zlarini yaxshi nazorat qila olmaydilar, ta'sirchan va nomuqim bo'ladilar, bu holatlar ularda agressivlik va nizolarga beriluvchanlik ehtimolini oshiradi.

Jadal sur'atlarda rivojlanish o'smir organizmida qator o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, ya'ni yurak, o'pka faoliyati, miyaning qon bilan ta'minlanishida murakkabliklar kuzatiladi, shuning uchun o'smirlarda tomir va muskul tonuslarining o'zgaruvchanligi qayd etiladi. Bu esa o'z navbatida emotsional holatning, jumladan kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishiga olib keladi. Umuman, o'smirlik davrida emotsional fon juda notekis, nomuqim bo'lib qoladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Organizmida yuz berayotgan uzoq va og'ir davom etadigan, lekin balog'at uchun zarur bo'lgan qayta qurilish jarayonlari o'smirlik inqirozining asosiy sababi hisoblanadi.

O'smirlik davrida kechadigan psixologik inqiroz holatlarini bir qancha psixolog olimlar o'rgangan bo'lib, quyida ularning fikrlarini tahlil qilamiz:

O'smir shaxsidagi asosiy yangilanishlardan biri — «kattalik hissi» o'smirning o'zi haqida «endi kichkina emasman» degan tasavvurning shakllanishiga sabab bo'lib, bu hisning qondirilmaligi atrofidagi kattalar bilan turli nizolarning tug'ilishiga turtki bo'ladi.

O'smir shaxsi yangilanishlaridan yana biri — o'smir faoliyati va xulqini aniqlovchi o'zini o'zi baholash ehtiyoji bo'lib, uning qondirilmaligi o'smir-o'qituvchi munosabatlari doirasida ma'naviy va psixologik to'siqning vujudga kelishini ta'minlaydi, muayyan sharoitlarda «noadekvatlik affekti»ni kuchaytiradi.



O'smir shaxsining yo'nalganlik belgisi sifatida, uning motivasion-ehtiyoj doirasidagi barqaror ehtiyoj va motivlarning mustahkamlanishini sanash mumkin. Uning yetarli darajada dominantlikka o'sib o'tmasligi, ba'zan axloqiy xulq motivlarining shakllanmasligiga olib keladi.

O'smirning jamoada (sinfda, oilada va hokazolar) o'zining aniq o'rniga ega bo'lishga intilishi ham mazkur yosh yangilanishlaridan biri bo'lib, uning qondirilmasligi o'smirda «men va guruh» munosabatlaridan «ko'cha» mikromuhitini tanlash imkoniyati uchun zamin yaratadi va o'qishdagi, sinf jamoasidagi, real hayotdagi barcha muvaffaqiyatsizliklar o'rnini qoplovchi «ulfatlar guruhi»ning a'zosiga aylantiradi va unda «yangicha faoliyat» boshlanadi.

Shuningdek, o'smirlarda o'zini o'zi anglash bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlar ham kuzatiladi: tezroq yetuklik davriga yetishish xohishi, boshqalar uni katta odam deb hisoblashlarini istash yuzaga keladi. O'smirdagi jismoniy-fiziologik yetilish unga yetuklik hissiyatini beradi, biroq oila va maktabdagi ijtimoiy mavqei o'zgarmay qoladi. Ana shunda unda o'z huquqlarini tan olinishi va mustaqillikka erishish uchun kurash boshlanadi, bu holat kattalar va o'smirlar o'rtasida ko'pincha nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada o'smirlik davri inqirozi yuzaga keladi.

Insonning inqirozli vaziyatlarga moslashish muammosi ilgari olimlarni qiziqtirib kelgan. So'nggi yillarda esa zamonaviy fanlarning bu muammoni o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, hech bir inson hayoti mobaynida yuzaga keladigan to'siqlar, muvaffaqiyatsizliklar, hayajonlanishlardan kafolatlangan emas. Va psixologik savodxonlik yoki hayotiy tajribalarga ega bo'lmagan ko'pchilik o'smirlar atrofidagilar (ota-onalari, o'qituvchilari, o'z do'stlari yoki sinfdagi o'rtoqlari) bilan janjallar, o'zaro munosabatlardagi nizolar va munozaralarni chetlab o'ta olmaydilar — bunday munosabatlar ularning ruhiyatiga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Natijada ularda psixik va jismoniy salomatlikni izdan chiqaruvchi emotsional stress yuzaga keladi.

Ingliz tilidan tarjima qilinganda «stress» so'zi zo'riqish, kuchlanish, urg'u berish, bosim o'tkazish ma'nolarini anglatadi.

O'smirlarda stressga munosabatning tashqi ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin. Xususan, birinchi holat — tormoz reaksiyasi bo'lib, bunda o'smirdagi harakat faolligining sustlashuvi kuzatiladi, bu esa o'quv faoliyati davomida berilayotgan axborotlarni idrok qilib, esda olib qolishni qiyinlashtiradi. Ayrim o'smirlarda sustkashlik shu darajada kuchli namoyon bo'ladiki, ular hatto oddiy harakatlarni bajarishdan ham bosh tortadilar, bu vaqtda ularda qo'rquv, yordamga muhtojlik, apatiya kabi ruhiy holatlar kuzatiladi.

Stressga munosabatning ikkinchi turida esa, aksincha, o'smir maksimum darajadagi faollikni namoyon etadi, doimiy harakatda va shoshqaloq bo'lib qoladi, ko'p gapiradi, bir vaqtning o'zida bir necha xil ishlarni bajarishga kirishadi, biroq ularning birortasini ham oxiriga yetkazmaydi. Kayfiyati nihoyatda o'zgaruvchan bo'lib, qo'zg'aluvchanlik agressiya bilan o'rin almashib turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy qilib aytganda, stress holatida o'smirlarda xatti-harakatlarning chigallashuvi, tartibsiz va impulsiv harakatlar sodir etilishi, nutqning buzilishi, atrofdagilarning harakati va gaplarini noto'g'ri qabul qilish, fikrlash va xotira jarayonlarida muayyan buzilishlarning kuzatilishi xosdir. Stress holatiga tushgan o'smir ota-onasi va o'qituvchisining unga yaxshilik istab aytayotgan gap-so'zlari va harakatlarini noto'g'ri tushunishi natijasida ularga nisbatan salbiy hissiyotlar shakllanadi va bu holat ko'pincha nizolarning yuzaga kelishiga olib keladi. Bunday nizolardan chiqib keta olmaslik esa o'smirning nojo'ya harakatlari bilan yakunlanadi.

Nojo'ya harakatlar qatoriga o'qishdan sovib ketish, darslarga qatnashmaslik, maktabga bormaslik, uyga qamalib olish yoki aksincha uydan chiqib ketish, turli to'dalar ta'siriga tushib qolish, ichkilikbozlik va chekish kabi salbiy illatlarga berilish, virtual olamning quliga aylanish hamda eng xavfli holatlardan biri — o'z joniga qasd qilishni kiritish mumkin.

Shunday salbiy oqibatlarining oldini olish uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin:

Psixoprofilaktik ishlarni kuchaytirish:

O'smirlik davri psixologiyasi asosida maktablarda psixologik xizmat faoliyatini yanada rivojlantirish, stressga chidamlilikni oshiruvchi trening va mashg'ulotlar tizimini joriy etish zarur.

Ota-ona va pedagoglar uchun psixologik savodxonlik dasturlari:

O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, inqiroz davrlari va stress omillari bo'yicha ota-onalar va pedagoglarni muntazam psixologik-pedagogik treninglarga jalb qilish kerak. Bu ularga o'smirlar bilan to'g'ri muloqot o'rnatishga yordam beradi.

Individual yondashuv tamoyilini kuchaytirish:

O'smirlarning shaxsiy qiziqishlari, emotsional holatlari va stressga qarshi individual reaksiyalarini hisobga olgan holda pedagogik hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.



Ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash:

Sinf va maktab jamoalarida do'stona, qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish orqali o'smirlarning ijobiy ijtimoiy munosabatlar o'rnatishiga imkon yaratish lozim.

Media va virtual olamning salbiy ta'sirini kamaytirish:

O'quvchilar uchun maqsadli ijtimoiy loyihalar, sport, madaniyat va ijodiy faoliyatlar orqali ularning vaqtini mazmunli tashkil etish, zararli virtual kontentdan himoyalash mexanizmlarini ishlab chiqish kerak.

Krizis holatlarida tezkor psixologik yordam xizmatlari:

O'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish uchun maktab psixologlari va tibbiyot xodimlari ishtirokida tezkor yordam ko'rsatish markazlari faoliyatini kengaytirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T: Ma'naviyat, 2008.
2. Mironov. E. Stress. Moskva-Sankt-Peterburg. 2003. - 434 b.
3. Rays F. Psixologiya podrostkovogo i yunosheskogo vozrasta. M. 2005. -820 b.
4. G'oziyev E. G'. Psixologiya. T. 1994 y. -223 b.



TALABALARDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA GENDER XUSUSIYATLARINING O'ZGARISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Alanazarova Sholpan Artikbaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
sholpanallanazarova25@gmail.com

Janabaeva Raxima Orazali qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Magistratura bosqichi Psixologiya mutaxassisligi talabasi
E-mail: rakhimaurazaliyevna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda xarakter aksentuatsiyasi va gender xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik A.E. Lichko tipologiyasi asosida tahlil qilindi. Qoraqalpoq davlat universitetining psixologiya yo'nalishi talabalari ishtirokida so'rovnoma va psixologik testlar yordamida o'tkazilgan tadqiqot 25 nafar talabani qamrab oldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, erkak talabalar orasida gipertim va sikloid tiplar ko'proq uchrasa, ayol talabalar orasida emotsional va astenonevrotik tiplar ustunlik qildi. Xarakter aksentuatsiyasi va gender xususiyatlarining shakllanishida oilaviy tarbiya, ijtimoiy stereotiplar va ta'lim muhiti muhim omillar sifatida qayd etildi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xarakter aksentuatsiyasi, Lichko tipologiyasi, gender, talabalar psixologiyasi, emotsional tip, gipertim tip, astenonevrotik tip, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.

Abstract: This article examines the relationship between character accentuation and gender characteristics among students based on A.E. Lichko's typology. The study was conducted among students of the Psychology Department at Karakalpak State University using questionnaires and psychological tests, involving 25 participants. The results showed that hyperthymic and cycloid types were more common among male students, while emotional and asthenoneurotic types predominated among female students. Family upbringing, social stereotypes, and the educational environment were identified as key factors influencing the formation of accentuations. The findings have practical implications for improving personalized approaches in pedagogy.

Key words: character accentuation, Lichko typology, gender, student psychology, emotional type, hyperthymic type, asthenoneurotic type, personalized approach.

Аннотация: В статье рассматривается взаимосвязь акцентуаций характера и гендерных особенностей студентов на основе типологии А.Е. Личко. Исследование проведено среди студентов психологического направления Каракалпакского государственного университета с использованием анкетирования и психологических тестов, в котором приняли участие 25 студентов. Результаты показали, что у юношей чаще встречаются гипертимный и циклоидный типы, а у девушек — эмоциональный и астеноневротический. Установлено, что формирование акцентуаций связано с семейным воспитанием, социальными стереотипами и образовательной средой. Выводы исследования имеют практическое значение для совершенствования личностно-ориентированного подхода в педагогике.

Ключевые слова: акцентуация характера, типология Личко, гендер, психология студентов, эмоциональный тип, гипертимный тип, астеноневротический тип, личностно-ориентированный подход.

KIRISH

Xarakter aksentuatsiyasi — bu shaxs xususiyatlarining normal diapazondagi haddan tashqari kuchayishi holatidir. Karl Leongard aksentuatsiyani inson xarakteridagi ayrim belgilar me'yordan chetga chiqishi sifatida ta'riflagan, A.E. Lichko esa uni "ayrim xarakter xususiyatlarining haddan tashqari kuchayishi, biroq bu holat normal chegaralardan tashqariga chiqmaydi" deb ta'kidlaydi [5; 6].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksentuatsiya holatidagi shaxslar ma'lum vaziyatlarda o'z xarakter xususiyatlarini kuchliroq namoyon qiladi, natijada muayyan psixogen omillarga nisbatan o'ziga xos sezgirlik kuzatiladi [7; 4]. Aksentuatsiyalar, asosan, o'smirlik va yoshlik davrida yaqqol namoyon bo'lib, shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin [1; 2].

Bundan tashqari, gender (jinsiy) xususiyatlar ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, hayotimizda biologik jins bilan bir qatorda ijtimoiy rollarni ham belgilaydi. G. Stoller ta'rificha, "gender — bu biologik jins asosida shakllanuvchi ijtimoiy-konstruktsion tushuncha bo'lib, jamiyatda ayollar va erkaklar roli orqali namoyon bo'ladi" [5]. Shu sababli, jinsiy identifikatsiya (o'zini ayol yoki erkak deb anglashi) va jamiyatdagi jinsiy rollar har bir shaxsda turlicha kechadi hamda xarakter aksentuatsiyasi bilan o'ziga xos bog'liqlikka ega bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Aksentuatsiya ko'pincha o'smirlik davrida faol rivojlanadi va uning so'nggi bosqichlari taxminan 18 yosh atrofida tugaydi. Shu bois tadqiqot obyekti sifatida 1-kurs talabalari tanlab olindi. Mazkur ishda Qoraqalpoq davlat universitetining psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan 25 nafar talaba (jinsiy tarkib: 12 nafar erkak va 13 nafar ayol) ishtirok etdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — A.E. Lichko tipologiyasi asosida talabalardagi xarakter aksentuatsiyasi turlari va genderni xos xususiyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganishdan iborat bo'ldi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda so'rovnoma va psixologik testlar qo'llanildi. Ularning yordamida talabalarda uchraydigan aksentuatsiya turlarining taqsimoti aniqlanib, erkak va ayol guruhlar o'rtasidagi farqlar batafsil tahlil qilindi.

Tadqiqotga Qoraqalpoq davlat universitetining psixologiya ta'lim yo'nalishi 1–2-bosqich talabalari jalb etildi (jami 25 kishi: 12 nafar erkak va 13 nafar ayol).

Qo'llanilgan metodikalar:

A.E. Lichko tomonidan adaptatsiya qilingan Leongard–Shmishek xarakter aksentuatsiyasi so'rovnoma (ba'zi manbalarda "Leonhard–Lichko testi" deb ham yuritiladi);

gender identifikatsiyasi va ijtimoiy rollar bo'yicha bazaviy so'rovnoma;

umumiy demografik ma'lumotlar va talabalarning hayot sharoitlariga doir so'rovnoma.

Ishtirokchilarga metodikalarni to'ldirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi va testlar mustaqil ravishda bajarildi. Har bir aksentuatsiya tipining qisqa ta'rifi bilan tanishtirilib, zarur hollarda o'zini baholash elementlari ham kiritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Lichko tipologiyasi asosida aniqlangan xarakter aksentuatsiyasi turlari jinsiy omil bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi. 25 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan psixologik testlar quyidagi ma'lumotlarni taqdim etdi:

Erkak talabalar orasida gipertim tip (optimistik, faol, tashabbuskor) 41,7% ni tashkil etdi. Bu talabalar ijtimoiy faol, ochiqko'ngil, tashqi muhitga moslashuvchan bo'lib, liderlikka intilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, 33,3% erkak talabada sikloid tip kuzatildi. Bu tipdagi talabalar kayfiyatning ko'tarinki va tushkun holatlar o'rtasida davriy ravishda o'zgarib turishi bilan tavsiflanadi, bu esa o'quv jarayonida motivatsiya beqarorligi va emotsional fonning tez o'zgarishi bilan izohlanadi.

Ayol talabalar orasida emotsional (labil) tip 38,5% da qayd etildi. Bu tip vakillari odatda nozik hissiyotli, boshqalarning kayfiyatiga sezgir va ijtimoiy munosabatlarda empatik bo'lishadi. Yana 30,8% ayol talabada astenonevrotik tip kuzatildi. Bu tip xavotirchanlik, tez charchash va stressga yuqori sezgirlik bilan xarakterlanadi.

Ushbu natijalar Popov (2012) tadqiqotlari bilan mos keladi. U ham tibbiyot yo'nalishidagi talabalar orasida jinsiy omil bilan bog'liq aksentuatsiya profillarida sezilarli farqlarni qayd etgan.

Qo'shimcha so'rovnoma va intervyu natijalari shuni ko'rsatdiki, xarakter aksentuatsiyasiga nafaqat biologik, balki ijtimoiy va shaxsiy omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

Avtoritar tarbiya uslubini qabul qilgan oilalarda nevrotik va astenik tiplar ko'proq uchradi.

Demokratik va qo'llab-quvvatlovchi tarbiya olgan talabalar orasida esa gipertim va optimistik tiplar ustun bo'ldi.

O'quv jarayonidagi raqobatbardoshlik darajasi ham muhim rol o'ynadi: qattiq baholash tizimiga duch kelgan ayol talabalar orasida xavotirchanlik oshgan bo'lsa, erkaklarda impulsivlik va keskinlik kuchaydi.



Gender stereotiplari ham talabalarning xarakter profillariga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Jamiyatda ayollar uchun "hissiy, mehribon, nozik" bo'lish qadrlangani uchun ularda emotsional tipning ustunligi kuzatildi; erkaklar esa "faol, tashabbuskor, qat'iyatli" sifatlar bilan baholangani sababli gipertim tip ularda ko'proq rivojlandi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, aksentuatsiyalar shaxsning o'zini namoyon qilish jarayonida ham imkoniyat, ham xavf omili sifatida namoyon bo'ladi. Gipertim tip ijodkorlik va liderlik salohiyatini kuchaytirs, emotsional tip insonlararo munosabatlarda sezgirlikni oshiradi. Ammo kuchli stress yoki noqulay muhit sharoitida bu tiplar psixologik beqarorlik, tashvish, shaxslararo kelishmovchilik kabi holatlarga ham olib kelishi mumkin.

Shuning uchun aksentuatsiya turlarini hisobga olgan psixoprofilaktika, stress-menejment va guruh psixoterapiyasi talabalarning psixologik barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida ushbu masala yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lim tizimi va gender tengligi siyosati sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Masalan, ayollarda liderlik sifatlarini rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy islohotlar ularning xarakter tiplarini ham o'zgartirishi mumkin. Proskuryakova va Polilov (2019) ham gender va aksentuatsiya o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni ta'kidlab, bu tushunchalarni ajratib bo'lmashini ko'rsatgan.

Tadqiqotimiz natijalari zamonaviy o'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv uchun muhim metodik asos yaratadi: gipertim tipdagi talabalar uchun ijodiy topshiriqlar samarali bo'lsa, emotsional tipdagi talabalar bilan ishlashda qo'llab-quvvatlovchi, hissiy jihatdan moslashuvchan pedagogik yondashuv foydali bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Lichko tipologiyasi asosida aniqlangan xarakter aksentuatsiyasi turlari talabalarda jinsiy omilga bog'liq ravishda sezilarli farq qiladi. Aksentuatsiyalar shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuviga, stressga bardoshlilikiga va ta'limdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, aksentuatsiya va gender xususiyatlarining shakllanishida genetika, oilaviy tarbiya, jamiyatdagi stereotiplar va ta'lim muhiti kabi omillarning roli yuqoriligicha qolmoqda.

Ushbu natijalar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

Xarakter aksentuatsiyasi turlari Lichko tipologiyasida turlicha bo'lib, ularning jins bo'yicha taqsimoti sezilarli farq qiladi. Erkak talabalar orasida gipertim va sikloid, ayol talabalar orasida esa emotsional va astenonevrotik tiplar ko'proq uchraydi. Ushbu ma'lumotlar o'quv jarayonlarini tashkil etishda va talabalarga individual yondashuvni shakllantirishda e'tiborga olinishi zarur.

Aksentuatsiyalar odatda muayyan shart-sharoitlarda faollashadi va shaxsning ruhiy salomatligini saqlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Haddan tashqari kuchaygan aksentuatsiyalar stress ta'sirida psixologik beqarorlikka olib kelmasligi uchun, ularni erta aniqlash va psixoprofilaktik tadbirlar o'tkazish muhimdir.

Gender xususiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik omillar — ota-ona munosabati, jamiyatdagi gender stereotiplari, kasb tanlashdagi qadriyatlar — aksentuatsiya xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, yoshlar tarbiyasida gender tengligini hisobga olgan kompleks pedagogik va psixologik yondashuv zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Leonhard K. Akzentuierte Persönlichkeiten. — Rostov n/Don: Feniks, 2000.
2. Lichko A.E. Psikhopatii i aktsentuatsii kharaktera u podrostkov. — Leningrad: Meditsina, 1983.
3. Jurayev X.O. O'smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviant xulq-atvor shakllanishiga ta'sirining psixologik mexanizmlari // Oriental Renaissance: Educational, Natural and Social Sciences. 2023. 3(9):560-569.
4. Veselkova E.A., Yudin A.Yu. Aktsentuatsii kharaktera u studentov psikhologov i yuristov // Alley of Science. 2024. №4 (91).
5. Proskuryakova L.A., Polilov S.V. Sravnitel'nyy analiz aktsentuatsiy kharaktera s gendernoy identichnost'yu u studentov // Molodoy uchyonny. 2019. №44 (282):300-302.
6. Parfilova E.R., Karimova S.G. Adolescents' Demonstrative Behavior Research // Int. J. of Science and Environmental Education. 2016. Vol.11, No.6:1127-1135.
7. Popov D.D. Polovyye razlichiya aktsentuatsiy kharaktera u studentov-medikov // Uchitel'skiy zhurnal. 2012. (maqola).

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING MAMLAKATIMIZ HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich

Yangiyul tumani IIB HPB VYMB inspektor-psixolog leytenant

E-mail: u961059@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi, ularning mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari va boshqa institutlarning demokratik jamiyat qurilishidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, demokratik jamiyat, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy sheriklik, mahalla.

Abstract: The article analyzes the formation and development of civil society institutions, their role in the political, social and cultural life of our country. The importance of NGOs, mahallas, mass media, trade unions and other institutions in building a democratic society will also be highlighted.

Key words: civil society, democratic society, NGO, public control, social partnership, neighborhood.

Аннотация: В статье анализируется становление и развитие институтов гражданского общества, их роль в политической, социальной и культурной жизни нашей страны. Также будет освещено значение НПО, махалли, средств массовой информации, профсоюзов и других институтов в построении демократического общества.

Ключевые слова: гражданское общество, демократическое общество, НПО, общественный контроль, социальное партнерство, соседство.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy islohotlar davrida fuqarolik jamiyatining ahamiyati ortib bormoqda. Bu har qanday demokratik davlatning mustahkam asosini tashkil etadigan fuqarolik jamiyati institutlari. Ushbu institutlar orqali fuqarolarning ijtimoiy faolligi, o'z fikrlarini erkin ifoda etish huquqi, davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyati ta'minlanadi. Shuning uchun fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatlar uchun ustuvor vazifalardan biridir. Fuqarolik jamiyatining mohiyatini tushunish, uning tarkibiy qismlari-NNT, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari va boshqa institutlar faoliyatini tahlil qilish demokratik jamiyatni qurish jarayonida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va samarali tashkil etish uchun bir qator qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar va qarorlar qabul qilinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XII bobi fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyatining faoliyati, ularning tarkibi, turlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Bundan biz fuqarolik jamiyati institutlari huquqiy davlatni qurish, rivojlantirish va jamiyatdagi odamlarning huquqiy madaniyatini oshirishning eng muhim institutlaridan biri ekanligini ko'ramiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fuqarolik jamiyatining nazariy va amaliy jihatlarini bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jahon tajribasida Aristotel, Sh. Monteske, G. Gegel, A. de Tokvil singari faylasuf va siyosatshunoslarning asarlarida fuqarolik



jamiyati tushunchasi keng yoritilgan. Ularning ta'kidlashicha, fuqarolik jamiyati – davlat hokimiyatidan mustaqil faoliyat yurituvchi institutlar tizimi bo'lib, inson erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarida fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillari “Inson qadri uchun” g'oyasi asosida izohlangan [1]. Prezidentning nutqlari va farmonlarida davlat va jamiyat o'rtasidagi ochiq muloqotni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va NNTlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarurligi qayd etiladi.

O'zbekiston qonunchiligida ham fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni mustahkamlangan. Jumladan, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi Qonun (1999), “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonun (2014), “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonun (2018) bu borada asosiy me'yoriy hujjatlar hisoblanadi [1; 2]. Ushbu qonunlar fuqarolarning o'z tashabbuslarini amalga oshirishiga, davlat organlari faoliyatini nazorat qilishiga keng imkon yaratdi.

Akademik adabiyotlarda ham mavzuga oid tadqiqotlar ko'p uchraydi. Masalan, A. Raximov (2021) fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy hayotdagi rolini tadqiq etib, ularning davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajarishini ta'kidlaydi [3]. Shuningdek, mahalla institutining jamiyatni barqarorlashtirish va milliy qadriyatlarni saqlashdagi o'rni alohida o'rganilgan.

Xalqaro miqyosda esa BMT, YXHT, Jahon banki va boshqa tashkilotlarning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid hisobotlari O'zbekiston tajribasini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Bu manbalarda fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va korrupsiyaga qarshi kurashdagi roli ta'kidlangan.

Umuman, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, ammo ilmiy tadqiqotlarda ko'proq huquqiy asoslar va nazariy qarashlar yoritilgan. Endi esa kelgusida empirik tadqiqotlar – ya'ni fuqarolarning amaliy ishtiroki, NNTlarning faoliyati samaradorligi, jamoatchilik nazorati mexanizmlari bo'yicha ilmiy ishlarga ehtiyoj sezilmoqda.

